

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI
TARJIMA NAZARIYASI VA AMALIYOTI KAFEDRASI**


QAHHAROVA SABOHAT ABDUG‘AFUROVNA

HOZIRGI O‘ZBEK ADABIY TILI

tarjima nazariyasi va amaliyoti yo‘nalishi bakalavr talabalari uchun

O‘QUV QO‘LLANMA

TOSHKENT



2026

UO‘K
KBK
Q

Qahharova, Sabohat

Hozirgi o‘zbek adabiy tili. O‘quv qo‘llanma. / S.A.Qahharova. – T.: “Firdavs-Shoh” nashriyoti, 2026. – 144 b.

Mazkur o‘quv qo‘llanma 60230200 – Tarjima nazariyasi va amaliyoti bakalavr ta’lim yo‘nalishi o‘quv rejasi va “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” fan dasturi asosida tayyorlangan. Qo‘llanmada fanning birinchi semestrida o‘qitiladigan *fonetika, leksikologiya va frazeologiya* bo‘limlari qamrab olingan.

Qo‘llanmaning ilmiy asosi va yangiligi muallif tomonidan olib borilgan “O‘zbek tilidagi yurish semali lug‘aviy birliklar semantikasi va tezaurusi” mavzusidagi PhD tadqiqotlari va monografiyasi xulosalarining matnga tizimli singdirilganligidadir. Xususan, leksikologiya va frazeologiya bo‘limlarida harakat fe‘llarining nozik semantik qirralari, ularning tezaurus modellarini yaratish va tarjima jarayonida leksik adekvatlikni ta’minlash masalalari muallifning shaxsiy ilmiy ishlanmalari asosida yoritilgan.

Materiallar xalqaro BOPPPS modeli (*Bridge-in, Objective, Pre-assessment, Participatory learning, Post-assessment, Summary*) talablari darajasida ishlab chiqilgan bo‘lib, u talabalarning ijodiy va mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga, mustaqil ta’lim olishga yo‘naltirilgan.

Qo‘llanma bakalavriat talabalari, magistrlar, tarjimonlik sohasi mutaxassislari hamda o‘zbek tili leksikologiyasi va semantikasi bilan shug‘ullanuvchi mustaqil tadqiqotchilar uchun mo‘ljallangan.

M a s’ u l m u h a r r i r

Zulxumor Xolmanova,

filologiya fanlari doktori, professor.

T a q r i z c h i l a r

M.Abdurahmonova,

filologiya fanlari doktori, professor.

D.Muhammadiyeva,

filologiya fanlari doktori, dotsent

Ushbu o‘quv qo‘llanma O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2026-yil 13-maydagi 7748-926a-0429-bb4f-17c8-8148-4735-sonli ma’lumotnomasiga asosan nashrga tavsiya etildi.

ISBN

© S.Qahharova, 2026

© “Firdavs-Shoh” nashriyoti, 2026

*Mazkur o'quv qo'llanma Alisher Navoiy nomidagi
Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti
tashkil etilganining 10 yillik yubileyiga bag'ishlanadi.*

SO'ZBOSHI

Hurmatli bo'lajak mutaxassis!

Siz tanlagan tarjimonlik kasbi shunchaki bir tildagi matnni boshqa tilga o'girish emas, balki ikki xalq, ikki madaniyat va ikki tafakkur olami o'rtasida lisoniy ko'priq qurish san'atidir. Professional tarjimon uchun xorijiy tilni bilish muvaffaqiyatning faqat bir qismi bo'lsa, ona tilining adabiy me'yorlarini mukammal egallash sifatli tarjimaning asosiy kafolatidir. Ushbu o'quv qo'llanma aynan sizning professional ish qurolingiz bo'lmish o'zbek adabiy tilini zamonaviy va tizimli o'rganishingizga xizmat qiladi.

Mazkur qo'llanmaning o'ziga xosligi shundaki, unda an'anaviy grammatik qoidalar bugungi kun tarjimonlik amaliyoti va zamonaviy tilshunoslik yutuqlari bilan uyg'unlashtirilgan. Qo'llanma materiallarini tayyorlashda muallifning "O'zbek tilidagi yurish semali lug'aviy birliklar semantikasi va tezaurusi" mavzusidagi ko'p yillik ilmiy izlanishlari va PhD tadqiqotlari xulosalaridan foydalanildi. Xususan, leksikologiya bo'limida harakat fe'llarining nozik ma'no qirralari, ularning tezaurus modellarini yaratish hamda tarjima jarayonida so'z tanlash muammolariga alohida urg'u berildi. Zero, ingliz tilidagi bitta harakat fe'lini o'zbek tiliga o'girishda o'sha harakatning qay holatda ekanini his qilish professional mahorat belgisidir.

Ushbu jarayonning samaradorligini ta'minlash maqsadida mazkur o'quv qo'llanma xalqaro ta'lim standartlarida keng e'tirof etilgan **BOPPPS pedagogik modeli** tamoyillari asosida ishlab chiqildi. Qo'llanmadagi har bir mavzu qat'iy 6 bosqichli metodik struktura asosida yoritilgan bo'lib, ushbu tizimli yondashuv olingan nazariy bilimlarni to'g'rida to'g'ri bevosita tarjimonlik amaliyotiga tatbiq etish ko'nikmasini rivojlantiradi. BOPPPS modelining bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. Bridge-in (Mavzuga kirish). Mashg'ulotni an'anaviy qoidalar bayoni bilan emas, balki talaba diqqatini jalb qiluvchi muammoli vaziyat, qiziqarli ma'lumot yoxud kasbiy savol bilan boshlash bosqichi.

2. Objective (Maqsad va kutilayotgan natijalar). Dars yakunida talaba qanday bilimlarni egallashi va qaysi amaliy ko'nikmalarni bajara olishi kerakligini oldindan aniq belgilab berish.

3. Pre-assessment (Dastlabki baholash). Yangi mavzu bayoniga o'tishdan avval auditoriyaning tayyorgarlik darajasi va muammoga doir bazaviy bilimlarini diagnostik qilish.

4. Participatory learning (Hamkorlida o'rganish). Mashg'ulotning asosiy qismi bo'lib, unda nazariy ma'lumotlar amaliy tahlillar, interfaol mashqlar, kasbiy keyslar va jamoaviy muhokamalar orqali o'zlashtiriladi.

5. Post-assessment (Yakuniy baholash). Dars davomida berilgan bilimlarning amaliyotda qanchalik o'zlashtirilganini tekshirish maqsadida mustahkamlovchi topshiriqlar va mantiqiy savollar bilan ishlash bosqichi.

6. Summary (Xulosa): O'tilgan mavzu bo'yicha yakuniy ilmiy-amaliy xulosalarni shakllantirish hamda mantiqiy izchillik asosida keyingi o'quv moduliga zamin yaratishni o'z ichiga oladi.

Mavzuni yoritishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar, xususan, keys-stadi, tanqidiy fikrlashga undovchi "muzyurar" savollar va vizual tahlil metodlaridan foydalanilgan.

***Zulxumor Xolmanova,**
filologiya fanlari doktori, professor.*

KURS XARITASI (MODULLAR TARKIBI)

O'quv bloki	Modullar	Blokning qamrovi va o'rganiladigan masalalar
I BLOK. Fonetik va grafik me'yorlar	1–3-modullar	Tilning ijtimoiy mohiyati, o'zbek adabiy tilining to'g'ri talaffuz (orfoepiya) hamda to'g'ri yozish (orfografiya) me'yorlarining tarjima jarayonidagi o'rni.
II BLOK. Leksikologiya va semantika	4–7-modullar	So'zlarning ko'p ma'noliligi, shakl va ma'no munosabatlari, semantik maydonlar tahlili. Shuningdek, o'zbek tili leksikasidagi o'z va o'zlashgan qatlamlar, faol hamda nafaol so'zlar bilan ishlash bo'yicha tarjimon strategiyasi.
III BLOK. Uslubiyat, frazeologiya va terminologiya	8–10-modullar	So'zlarning uslubiy hamda hissiy-ekspressiv bo'yog'ini matn tarjimasida saqlash muammolari. Barqaror birikmalarni o'girishdagi milliy-madaniy to'siqlar. Ilmiy matnlarni tarjima qilish va adekvat termin tanlash tamoyillari.

SHARTLI BELGILAR

Qo'llanma davomida quyidagi belgilar kuzatiladi:

 **Maqsad.** Ushbu mavzudan kutilayotgan natija.

 **Eslatma!** Yodda tutish shart bo'lgan oltin qoidalar.

 **Diqqat, xató!** Tarjimonlar tez-tez yo'l qo'yadigan xatolar (“False friends”, uslubiy g'alizliklar).

 **Amaliyot!** Mustaqil bajarish uchun topshiriqlar.

 **Keys!** Real hayotiy vaziyatlar tahlili.

Ushbu kurs sizni “havaskor so'zlovchi”dan “professional filolog-tarjimon” darajasiga olib chiqish uchun loyihalashtirilgan.

Sahifani oching, mashg'ulotlarni boshlaymiz!

1-MA'RUZA. "HOZIRGI O'ZBEK ADABIY TILI" FANI, UNING MUNDARIJASI, MAQSADI, VAZIFALARI VA KASBIY AHAMIYATI

1.  **Bridge-in (kirish va qiziqtirish).** Tasavvur qiling, siz chet tilidan murakkab matnni tarjima qilyapsiz. Asliyat matnni 100% tushundingiz, lekin uni o'zbek tiliga o'girishda bitta noto'g'ri grammatik shakl yoki shevaga xos so'z ishlatsangiz, butun boshli asar saviyasi "nol"ga tushib ketadi. Nima uchun? Chunki tarjimonning eng asosiy ish quroli bu adabiy til me'yorlaridir. Bugun biz nima uchun aynan shu fan sizning kasbiy muvaffaqiyatingiz poydevori ekanligini bosqichma-bosqich ko'rib chiqamiz.

[Slayd 1: Ekranda faqat bitta rasm turibdi – Film subtitridan parcha]

Matn: *"La'nati, sen meni xafa qilyapsan, eshityapsanmi?" (Damn, you are hurting me, do you hear?)*

Ma'ruzachi: Ekranga qarang. Bu gap grammatik jihatdan to'g'rimi?

(Auditoriya javobi: *Ha, so'zlar o'zbek tilida, grammatik qurilishi me'yoriy tartibda*).

To'g'ri, misolda barcha so'z o'zbek tilida, biroq ayting-chi, uyingizda yoki ko'chada kimdir shunday gapiradimi?

(Auditoriya javobi: *Yo'q, bunaqa gapirmaydi*).

Ma'ruzachi: Barakalla! Demak, so'zlar o'zbek tilida to'g'ri berilgan bo'lsa ham, tarjima tili (translationese)da adabiy til me'yori buzilgan. Tarjimon ingliz tilini a'lo darajada biladi, lekin o'zbek tili tabiati va imkoniyatlarini to'liq anglamasligi natijasida muallifning fikri, maqsadini o'z ona tili (o'zbek tili)da berishda bir qator qiyinchiliklarga duch keladi. Shuning uchun *"Damn, you are hurting me, do you hear?"* gapi ikki xil holat uchun o'zbekona ohangda, uning tabiatiga xos shaklda tarjima qilinadi:

1. Jismoniy og'riq holati uchun. *(Masalan, kimdir qahramonning qo'lini qattiq qisganda, itarganda yoki jismoniy azob berganda)*

Tabiiy (so'zlashuv uslubiga xos): *Hoy, og'riyapti deyapman, senga aytyapman!*

Kinolarga xos (emotsional): *Jin ursin, jonimni og'rityapsan, eshityapsanmi o'zi?!*

Jahl chiqqanda: E, bo‘ldi qil, azob beryapsan-ku, esing bormi?!

2. Ruhiy, hissiy og‘riq holati uchun. (Masalan, kimdir ko‘ngilga tegadigan qattiq gapni gapirganda yoki xiyonat qilganda)

Tabiiy, so‘zlashuv uslubiga xos: *Dilimni og‘rityapsan, tushunyapsanmi o‘zi?!*

Kinolarga xos, chuqur mazmunli tarjima: *Jin ursin, yuragimni ezib yubording, nahotki shuni tushunmaysan?!*

Kuchli azob bilan: *Menga qanchalik azob beryapsan, bilib turibsanmi?!*

Bugun biz siz bilan qanday qilib “tarjima tili”da emas, balki “akademik o‘zbek tili”da adabiy til me‘yorlariga rioya qilgan holda o‘g‘zaki va yozma matn tuza olishni o‘rganishni boshlaymiz.

2 🎯 Objective (maqsad va kutilayotgan natija)

🎯 Darsning maqsadi: Hozirgi o‘zbek adabiy tili fanining maqsadi, uning tarkibiy bo‘limlari: fonetika, leksikologiya, morfologiya, sintaksis va kelgusidagi tarjimonlik faoliyatidagi o‘rni bilan tanishish.

[Slayd 2: Darsdan kutilayotgan natijalar]

Ma’ruzachi: Bugungi 80 daqiqalik darsimiz so‘ngida biz quyidagi natijalarga erishamiz:

- tarjimon uchun ona tili shunchaki “grammatik qoidalar”dan iborat bo‘libgina qolmay, balki “strategik qarorlar qabul qilish san’ati” ekanligini tushunadi;
- tarjima jarayonida fanning 4 asosiy sathi: fonetik, leksik, grammatik, stilistik sathlaridan qanday foydalanishni bilib oladi;
- matnni lisoniy jihatdan tahlil qila oladi, kontekstual ma’nolarni aniqlab, unga to‘g‘ri muqobil tanlay biladi;
- rasmiy, ilmiy, badiiy va publitsistik uslubdagi matnlarni milliy me‘yorlarga moslay oladi.

3. 🗨 Pre-assessment (dastlabki baholash). [Slayd 3: “Qora ekran” yoki “?” belgisi]

🔗 Keys. Ma’ruzachi: Darsni boshlashdan oldin kichik so‘rovnomaga o‘tkazamiz. Qo‘l ko‘tarib javob bering.

1. Kim tarjima jarayonida eng qiyin bosqich bu chet tilidagi soʻzni tushunish (Decoding) deb oʻylaydi? (*Qoʻllarni sanang*).

2. Xoʻsh, endi kim eng koʻp vaqtini oʻzbek tilidagi muqobil soʻzni topishga (Encoding) sarflaydi? (*Odatda kamroq odam qoʻl koʻtaradi*).

Maʼruzachi: Qiziq statistika! Biroq Yevropaning Manchester universiteti tadqiqotlariga koʻra, professional tarjimon vaqtining 60%ini ona tilidagi matnni uslubiy jihatdan silliqlashga, tahrir qilishga sarflar ekan. Demak, siz ingliz tilini akademik darajada bilishingiz mumkin, lekin oʻsha 60% ishini eplay olmasangiz, sifatli tarjima qilolmaysiz. Bu fanda sizga oʻsha 60%da qanday muvaffaqiyatga erishish yoʻllari aniq lisoniy va uslubiy qoliplar orqali koʻrsatib beriladi.

“Thinking Translation” konsepsiyasiga koʻra, tarjima jarayoni ikki bosqichdan iborat:

1. Manba tilini tushunish (Decoding).

2. Tarjima matnini oʻz ona tilisida tuzish va tahrirlash (Encoding).

Koʻpincha tarjimonlar birinchi bosqichda emas, aynan ikkinchi bosqichda, yaʼni oʻz ona tili meʼyorlarini bilmaslik oqibatida faoliyatida muvaffaqiyatsizlikka uchraydilar. Shu sababli ushbu fan kesimida boʻlajak tarjimonlarda oʻzbek tilining fonetik, leksik, grammatik va uslubiy meʼyorlariga asoslangan holda tabiiy, ravon va nashrga yaroqli matn yaratish hamda tahrir qilish koʻnikmasini shakllantirishdir.

4. ❀ Participatory learning (asosiy qism).

1-qism: Fanning mundarijasi. [Slayd 4]

Maʼruzachi: Til – millatning tafakkur tarzi va madaniy qiyofasini aks ettiruvchi murakkab ijtimoiy hodisa. “Hozirgi oʻzbek adabiy tili” fani umumxalq milliy tilining ishlangan, silliqlangan va muayyan qonun-qoidalarga boʻysundirilgan oliy shakli boʻlmish **adabiy til** qonuniyatlarini oʻrganadi.

Xususiyatlari	Adabiy til	Sheva / Jonli soʻzlashuv
Qoidalarga munosabati	Qatʼiy meʼyorlashgan til	Erkin, qatʼiy grammatik qoliplarsiz

Xususiyatlari	Adabiy til	Sheva / Jonli so‘zlashuv
Tarjimadagi funksiyasi	Ilmiy, rasmiy, badiiy va sinxron tarjimalar uchun	Badiiy asar qahramoni xarakterini ochish uchun
Barqarorligi	Konservativ, ilmiy lug‘atlarda mustahkamlangan	Tez o‘zgaruvchan, yangi ifodalarga moyil
Hududiy qamrovi	Umummilliy	Ma’lum bir hudud vakillariga xos
Leksik xususiyati	Umumxalq tushunadigan so‘zlar qatlami	Hududiy va ijtimoiy chegaralangan so‘zlar

Bugungi global raqamlashtirish sharoitida adabiy til me’yorlarini bilish tarjimon oldiga yangi texnologik vazifalarni ham qo‘yadi. Tabiiy tilni qayta ishlash (NLP) texnologiyalari, Katta til modellari (LLM) va neyrotarjima tizimlari (masalan, Google Translate) faqatgina qat’iy algoritmgga solingan adabiy til qoidalari asosidagina aniq ishlashi mumkin. Xorijiy tajribalar shuni ko‘rsatmoqdaki, kompyuter dasturlari uchun lingvistik bazani tayyorlash va mashina tarjimalarini tahrir qilish bevosita o‘zbek adabiy tilini chuqur biladigan professional mutaxassislar zimmasidadir.

Fanning mundarijasi o‘zaro uzviy bog‘liq bo‘lgan quyidagi sathlardan iborat:

Fonetik sathda tovushlar tizimi va fonemalar differentsatsiyasi; urg‘u va intonatsiyaning ma’no farqlash vazifalari o‘rganiladi. Xalqaro amaliyotda atoqli otlar, toponimlar va terminlarni o‘g‘irishda Xalqaro fonetik alifbo (IPA)ga asoslaniladi. Muammo shundaki, xorijiy tillarning artikulyatsion bazasi o‘zbek tili fonetik tizimiga har doim ham mos kelavermaydi. Yechim sifatida transliteratsiya (harfiy o‘g‘irish) va transkripsiya (tovushli o‘g‘irish) o‘rtasidagi me’yorni aniqlash va uni o‘zbek tili imlo me’yorlariga moslashtirish talab etiladi. Shuningdek, alifbo tizimi va imlo qoidalarining ilmiy-nazariy asoslarini bilish, tipografik standartlar; jahon va milliy punktuatsiyadagi nomutanosibliklar (masalan, qo‘shirnoq, tire va defis ishlatilishi); xalqaro hujjatlar rekvizitlarini o‘zbek tili imlo me’yorlariga muvofiqlashtirish lozim.

Leksik sathda soʻzning lugʻaviy maʼnosi, polisemantik birliklar, iboralar va soha terminologiyasi, turgʻun birikmalar (kollokatsiyalar); soʻzlarning lisoniy va nutqiy birikish imkoniyatlarini tahlil qilish; hissiy boʻyoq va uslubiy qatlamlarni tillararo adekvat yetkazish; sohaga oid terminologik bazalar (glossariylar)ni shakllantirish malakalariga ega boʻladi. Shu bilan bir qatorda yangi lugʻat tuzish uchun lingvistik manbalar va ularni tuzish tamoyillari, zamonaviy elektron lugʻatlar, tezauruslar va terminologik banklar (TermBank) bilan ishlash; tarjima xotirasi (TM) va korpus tilshunosligi maʼlumotlaridan leksik tanlovda foydalanishni bilishi lozim. Bundan tashqari mazkur sathda soʻzlarni alohida birlik sifatida emas, balki lisoniy tezaurus sifatida oʻrgatish muhim. Tadqiqotlarimizda asoslanganidek, harakat feʼllarini semantik maydon sifatida oʻrganish tarjimonga matnning uslubiy boʻyogʻiga mos soʻzni tezkor va xatosiz tanlash imkonini beradi. Bu esa boʻlajak mutaxassisning lugʻaviy boyligini tizimlashtiradi.

“Yurish” semali lugʻaviy birliklarning semantik tahlili va tarjimadagi farqlanishi

Lugʻaviy birlik	Denotativ sema	Differensial sema	Tarjimon uchun kontekstual tavsiya
<i>Yurmoq</i>	Harakatlanish	Neytral	Umumiy harakat (<i>to walk, to go</i>) uchun eng keng qoʻllanuvchi variant.
<i>Odimlamoq</i>	Harakatlanish	+tantanavorlik, +keng qadam	Rasmiy nutq yoki koʻtarinki uslubdagi matnlar uchun.
<i>Qadamlamoq</i>	Harakatlanish	+shaxdamlik, +bir marom	Harbiy yoki qatʼiy harakatni ifodalashda (<i>to march</i>).
<i>Sudralmoq</i>	Harakatlanish	+xohishsiz harakat, +sekinlik	Majburiy yoki ojizona harakatni (<i>to drag oneself</i>) berishda.

Lug‘aviy birlik	Denotativ sema	Differensial sema	Tarjimon uchun kontekstual tavsiya
<i>Jilmoq</i>	Harakatlanish	+kichik masofa, +sekin	Bir nuqtadan ozgina harakatlanishni ifodalashda (<i>to budge</i>).
<i>Oqsamoq</i>	Harakatlanish	+nuqson (oqsoqlik)	Jismoniy holat yoki jarayonning to‘xtalishini (<i>to limp</i>) tasvirlashda.

(Manba: Muallifning “Yurish” semali lug‘aviy birliklar semantikasi va tezaurus modeli monografiyasidan olindi)

Grammatik sathda so‘zning morfemik tarkibi va so‘z yasaliş (derivatsion) imkoniyatlarini tahlil qilishni; affiksatsiya usuli yordamida xorijiy neologizmlarni o‘zbek tiliga moslashtirish (adaptatsiya)ni (masalan: *-ization* qo‘shimchasini *-lashtirish* shaklida ifodalash); so‘z yasaliş modellari asosida terminologik muqobillarni yaratishni; so‘z turkumlari, grammatik kategoriyalar va shakllar tizimini qiyosiy o‘rganadi. Xususan, manba tildagi o‘zbek tilida mavjud bo‘lmagan grammatik kategoriyalar: *articles*, *perfect tenses*, *gerundning* funksional-semantik hamda grammatik muqobillarini aniqlash (masalan, ingliz tilidagi Past Participle shaklini kontekstual vazifasidan kelib chiqib, sifatdosh yoki ravishdosh shaklida ifodalash) ko‘nikmasiga ega bo‘ladi.

So‘z birikmasi, sodda va qo‘shma gaplarning quriliş qoliplari (modellari); matn sintaksisi va uning mantiqiy butunligi; sintaktik variativlik va gap bo‘laklari tartibi (inversiya); matnni sintaktik jihatdan tahrir qilish va sayqallash bosqichlari quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- *strukturani moslashtirish*: asl matn qurilişini tarjima qilinayotgan tilning qoidalari va tabiatiga moslab qayta shakllantirish;

- *gaplar bilan ishlash*: uzun gaplarni bo‘laklarga bo‘lish (segmentatsiyalash) yoki bir necha qisqa gaplarni mazmunan birlashtirish (integratsiyalash);

- *mantiqiy mazmunni saqlash*: gapdagi asosiy yangilik va urg‘u berilayotgan qism (tema va rema) muvozanatini saqlab qolish.

Stilistik sathda tarjimon o‘zbek tilini shunchaki bilishi emas, balki uni faol tahririy instrument sifatida ishlatishi lozim. Bu esa professional tarjima sifatini belgilovchi xalqaro (ISO 17100) standartdagi lisoniy va matniy kompetensiya (linguistic and textual competence) talablariga to‘liq javob beradi.

Jahon standartlarida bo‘lajak tarjimonlardan tilni shunchaki o‘rganish emas, balki uni instrumental tahlil qilish talab qilinadi. Tarjimon uchun “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” fani filologik kursdan farqli ravishda kontrastiv (qiyosiy) va funksional xarakterga ega bo‘lishi lozim. Jahon standartlariga ko‘ra, tarjimon o‘z ona tilisini nafaqat bilishi, balki istalgan matnni tahrir qila olishi va xorijiy til konstruksiyalariga mos muqobillarni topa bilishi shart.

Fanning maqsadi talabalarda xorijiy til konstruksiyalarini o‘zbek tili tabiatiga moslab qayta tuzish mahoratini egallash hamda “lingvistik kompetensiya”ni shakllantirish orqali uni “tarjima kompetensiyasi”, ya’ni bir tildan ikkinchi tilga ma’no yo‘qotishlarsiz o‘tkazishga tayyorlashdir. Shuningdek, o‘zbek adabiy tilining barcha sathlari, xususan, tovushdan matngacha haqida tizimli bilimni shakllantirish bilan bir qatorda adabiy til me’yorlariga qat’iy rioya qilgan holda fikrni aniq, mantiqiy va uslubiy jihatdan to‘g‘ri bayon etishni o‘rgatishdan iborat.

2-qism: Fanning vazifasi. [Slayd 5: Turkiya modeli – “Anlatım Bozukluğu” (Ifoda nuqsonlari)]

Ma’ruzachi: Turkiya tarjima maktablarida “Anlatım Bozukluğu” (Uslubiy g‘alizliklarni tuzatish) fani mavjud. Fanning asosiy vazifalari quyidagi ko‘nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan:

deskriptiv (tavsifiy): til birliklarining hozirgi holati va xususiyatlarini tavsiflash;

normativ (me’yoriy): orfoepik (talaffuz), orfografik (imlo), leksik va grammatik me’yorlarni belgilash;

tahliliy: so‘z va gaplarni sathlararo: fonetik, morfem, morfologik, sintaktik tahlil qilish usullarini o‘rgatish;

qiyosiy: tarjimonlar uchun ona tili va xorijiy til orasidagi funksional o‘xshashlik va farqlarni aniqlash;

lisoniy tahrir: o‘zbekcha matndagi uslubiy g‘alizliklarni aniqlash va bartaraf etish;

terminlarni standartlashtirish: soha terminlarini standartlashtirish va glossariylar ustida ishlash.

matn tahlili: matnning qaysi uslubga: rasmiy, ilmiy, badiiy uslubga xosligini aniqlab, o‘zbek tilida shu uslub qoliplarini qo‘llash.

Tarjimonning eng katta vazifasi pleonazm (ortiqcha so‘z)ga qarshi kurashishdir. Misollar: *Men o‘z ko‘zim bilan ko‘rdim. Kutilmagan syurpriz. Eng optimal variant.*

Ma‘ruzachi: Keling, birga tahlil qilamiz: “ko‘z” shundoq ham o‘zingizniki bo‘ladi, birovniki emas, “o‘z” – ortiqcha; “syurpriz” shundoq ham kutilmaganda bo‘ladi; “optimal” – eng yaxshi degani, “eng” so‘zi ortiqcha.

3-qism: Fanning ahamiyati.

💡 **Eslatma.** Ma‘ruzachi: *“Tarjimon bu, eng avvalo, o‘z tilining mohir yozuvchisidir. Agar tarjima qilingan asar o‘zbek tilida g‘aliz o‘qilsa, o‘quvchi asl nusxa yomon ekan demaydi, balki tarjima yomon ekan deydi”.*

Fanning ahamiyati shundaki, u tarjimonni “Translationese” (tarjima tili – sun‘iy til) kasalligidan qutqaradi. O‘zbek tili me‘yorlarini chuqur bilish tarjimonga erkinlik beradi – u qolipga tushib qolmaydi, balki muallif fikrini o‘zbekona ifodalar bilan boyita oladi.



Raqamli texnologiyalar jadal rivojlanayotgan davrda tabiiy tilni qayta ishlash, sun'iy intellektga asoslangan ovozli yordamchi tizimlar keng qo'llanilmoqda. Bu jarayonda fonetik transkripsiya texnologiyasi muhim rol o'ynaydi. Ayniqsa, o'zbek tilining fonetik xususiyatlariga mos avtomatik transkripsiya tizimlar yo'qligi uni dolzarb yo'nalishga aylantiradi.

“Uzfonemayzer” loyihasi o'zbek tilining tovush tizimini aniq transkripsiyalovchi, nutqni yozuvga yaqinlashtiruvchi, fonetik tahlilni osonlashtiruvchi muhim vositadir.

5. 📄 **Post-assessment (mustahkamlash).** [Slayd 8: “Bir daqiqalik muharrir”]

✂ **Amaliyot.** Ma'ruzachi: Daftaringizni oching. Ekranda 3 ta jumla bor. Ulardagi me'yoriy xatoni 2 daqiqa vaqt ichida topib, tahrir qiling.

Ushbu kitob o'quvchilar tomonidan sevib o'qildi.

Biz kelajakka ishonch bilan progress qilmoqdamiz.

Yomg'ir yog'ayotganligiga qaramasdan biz ko'chaga chiqdik.

[Javoblarni tekshirish]:

(Talabalardan javob so'rang va tahlil qiling):

Tahrir: *O'quvchilar bu kitobni sevib o'qidilar. Biz kelajakka ishonch bilan odimlamoqdamiz* (progress – o'zlashma so'z). *Yomg'ir yog'ishiga qaramay...* (g'aliz qo'shimchalar olib tashlandi).

Topshiriq: Quyidagi jumlada o'zbek adabiy tili me'yori, ya'ni so'z tartibi va uslubi buzilgan. Sababini tushuntiring va tahrir qiling.

Matn: *Men kecha universitetga borishni rejalashtirdim, lekin yomg'ir tufayli men uyda qoldim.*

Tahlil (*talaba bajarishi kerak*): Mazkur gap strukturasi ingliz, rus tili ta'siri bor. O'zbek tilida “men” olmoshi ikkinchi gapda ortiqcha, chunki “-di+m” qo'shimchasi shaxsni ko'rsatib turibdi.

Tuzatilgan variant: *Kecha universitetga borishni rejalashtirgan edim, ammo yomg'ir yog'ayotganligi sababli uyda qoldim.*

6. 🎓 **Summary (xulosa va uyga vazifa).** [Slayd 9: Xulosa]

Ma'ruzachi: Demak, bugun biz nimani angladik?

💡 **Eslatma!** Tarjimon bu shunchaki ikki tilni biluvchi shaxs emas, balki o‘z ona tilisining me‘mori, muharriri va himoyachisidir. Agar siz so‘zlarni to‘g‘ri tanlay olmasangiz, eng ajoyib g‘oya ham o‘quvchiga yetib bormaydi.

[Slayd 10: Uyga vazifa (amaliy)]

Ma‘ruzachi: Keyingi darsgacha topshiriq:

Ko‘chaga chiqing yoki ijtimoiy tarmoqlarni kuzating. Reklama bannerlari, menyular yoki postlardan 2 ta “g‘aliz tarjima” (adabiy til me‘yorining buzilishi) toping va rasmga oling. Nega g‘aliz ekanligini yozib keling.

Amaliy mashg‘ulot uchun topshiriqlar:

“MUZYURAR” (ICEBREAKER)

1. “Million dollarlik vergul”. Jahon tarixida bitta vergul noto‘g‘ri qo‘yilgani uchun kompaniyalar tomonidan millionlab dollar jarima to‘langan holatlarni kuzatish mumkin. O‘zbek tilida ham bitta tinish belgisi yoki qo‘shimcha shartnoma taqdirini o‘zgartirishi mumkinmi? (Misol: *“Oqlash, mumkin emas, otilsin”* qabilida).

2. “Savodsiz daho”. Tasavvur qiling, bir odam o‘ta iste‘dodli yozuvchi, lekin imlosi juda yomon ahvolda. Ikkinchisi imlo qoidalarini suv qilib ichgan, lekin fikri jo‘n. Qaysi biri tilga ko‘proq foyda keltiradi? Adabiy tilni kim yaratadi: qoidani buzuvchi daholarmi yoki qoidani qo‘riqlovchi tilshunoslarmi?

3. “Til politsiyasi”. Fransiyada do‘kon peshlavhasida inglizcha so‘z ishlatsangiz, jarima to‘laysiz. Bizda esa “Food City”, “Magic City”... Sizningcha, tilni jarima va qonun bilan himoya qilish to‘g‘rimi yoki til erkin bozor qonunlariga bo‘ysunishi kerakmi?

4. Kontekst va kollokatsiya. Ingliz tilidagi “run” so‘zi turli vaziyatlarda turlicha tarjima qilinadi. Quyidagi 3ta gapni o‘zbek tiliga to‘g‘ri o‘g‘iring va “run” so‘zi qaysi so‘zlar bilan birikayotganini tushuntiring.

*He likes to **run** in the park every morning.*

(Tarjimon tanlovi: _____)

*My uncle **runs** a successful restaurant in Tashkent.*

(Tarjimon tanlovi: _____)

*Take some medicine, your nose is **running**.*

(Tarjimon tanlovi: _____)

Nazorat va muhokama savollari:

1. Fanning asosiy obyekti nimalardan iborat va u qaysi bo‘limlarni qamrab oladi?
2. Milliy til va adabiy til tushunchalari o‘rtasidagi chegarani qanday izohlaysiz?
3. Adabiy til me‘yorlari deganda nima tushuniladi?
4. Qanday holatlarda badiiy tarjimada adabiy til me‘yorlaridan chekinish va shevadan foydalanish o‘zini oqlaydi?
5. Kompyuter lingvistikasi (NLP) rivojlanishida o‘zbek adabiy tili qoidalarining o‘rni qanday?
6. Nima uchun “kalka” usulidagi tarjima adabiy til me‘yorlarining buzilishi hisoblanadi?
7. Tarjimon mashina tarjimasini tahrir qilish jarayonida qaysi lingvistik jihatlariga e’tibor qaratishi shart?

Glossariy (tayanch atamalar):

1. **Adabiy til** – umumxalq tilining ishlangan, silliqlangan, muayyan me‘yorga tushirilgan va hamma uchun tushunarli bo‘lgan oliy shakli.
2. **Me‘yor** – so‘zlashuv va yozuv amaliyotida til vositalaridan foydalanishning jamiyat tomonidan qabul qilingan namunaviy qoidalari.
3. **Kodifikatsiya** – adabiy til me‘yorlarini tartibga solish, ularni maxsus lug‘atlar va grammatik qoidalar to‘plamlarida qonunlashtirish.
4. **Milliy til** – muayyan bir millatga mansub barcha kishilarning aloqa vositasi.

5. **Sheva (dialekt)** – umumxalq tilining faqat ma'lum bir hudud aholisiga xos bo'lgan, fonetik va leksik jihatdan farqlanuvchi tarmog'i.
6. **Kalka** – xorijiy tilning so'z yasalishi yoki sintaktik qurilishini ona tiliga sun'iy ravishda, so'zma-so'z ko'chirish hodisasi.
7. **Kompyuter lingvistikasi** – tilshunoslik masalalarini algoritmik modellashtirish va kompyuter dasturlari yordamida hal qilish bilan shug'ullanuvchi soha.
8. **NLP (Tabiiy tilni qayta ishlash)** – kompyuterning inson (tabiiy) tillarini tushunishi va tahlil qilishini ta'minlovchi sun'iy intellekt yo'nalishi.
9. **Post-editing** – kompyuter (AI) tomonidan qilingan dastlabki tarjimani mutaxassis tomonidan adabiy til me'yorlariga moslab qayta tahrirlash jarayoni.
10. **Adekvat tarjima** – aslyat matnining mazmuni, uslubi va pragmatik ta'sirini tarjima tilining adabiy me'yorlari asosida to'laqonli yetkazib berish.

 Mavzu yuzasidan qo'shimcha mutolaa uchun manbalar:

1. Jamolxonov H. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: Talqin, 2005.
2. Mengliyev B. Hozirgi o'zbek tili. – Toshkent: Tafakkur bo'stoni, 2018.
3. Xamroyeva Sh.M. O'zbek tili mualliflik korpusining lingvistik ta'minoti va uni modellashtirish. Filol. fan. dok. (DSc) diss. – Toshkent, 2021.
5. Qahharova S. "Yurish" semali lug'aviy birliklar semantikasi va tezaurus modeli. Monografiya. – Toshkent: Firdavs-shoh, 2025. – 134 b.
6. O'zbek tili milliy korpusi: www.uzbekcorpus.uz
7. Uzfonomayzer — O'zbek tili orfoepik lug'ati: <https://orfo.uz/>
8. Jurafsky D., Martin J.H. Speech and Language Processing (An Introduction to Natural Language Processing, Computational Linguistics, and Speech Recognition). – Stanford University, 2023.

2-MA'RUZA. ADABIY TILNING FONETIK ME'YORLARI

1. Bridge-in (kirish va qiziqtirish). [Faollikni oshirish: “tez aytish” sinovi]

 **Keys.** Ma'ruzachi: Darsimizni kichik bir eksperiment bilan boshlaymiz.

Ekranda jumlani kim uni bir nafasda, tutilmasdan, baland ovozda o'qib bera oladi?

[Slayd 1: Kakofoniya namunasi]

Tez aytish: *G'irrom g'arazgo'y g'ulomlarning g'urbatidagi g'alayon.*

(Talabalar o'qishga harakat qiladi, tillari tutiladi, kulgi ko'tariladi).

Ma'ruzachi: Qiyin-a? Nega? So'zlar o'zbekcha-ku?

Talabalar: (*g'harfi ko'p, og'ir o'qiladi*). Xuddi shunday. Bu hodisaning nomi Kakofoniya.

Ma'ruzachi: Ayrim tovushlarning o'zi insonda ma'lum bir hissiyotni uyg'otadi. O'zbek tilida tovushlar ikki turdagi taassurotni qoldirishi mumkin: kakofoniya va evfoniya. Kakofoniya (cacophony yunoncha *kakos* – “yomon”, *phone* – “tovush”) tovushlarning g'aliz birikuvi; talaffuzni qiyinlashtiruvchi va tinglovchiga g'aliz eshitiluvchi fonetik nomutanosiblik. Matn ovoz chiqarib o'qilganda til tutilsa yoki nafas yetmay qolsa, demak, fonetik me'yor buzilgan sanaladi. Jarangsiz, portlovchi tovushlar (q, k, p, t, x, sh), bular urush, g'azab, shovqin yoki qo'rquvni ifodalashda qo'l keladi.

Alliteratsiya va evfoniya yoqimli, ritmik tovushlarga qaratilgan bo'lsa, kakofoniya buning aksidir. U quloqni bezovta qilish uchun qo'pol undoshlar va keskin tovush tizimiga tayanadi. Ushbu kontrastni tushunish talabalarga yozuvchining nima uchun ma'lum bir kayfiyat yoki mavzu uchun muayyan bir tovush effektini tanlashini aniqlashga yordam beradi.

Evfoniya (euphony yunoncha *eu* – “yaxshi”, *phone* – “tovush”). Nutq tovushlarining o'zaro uyg'unligi va ohangdorligi; talaffuz qilish va tinglash uchun qulay bo'lgan fonetik butunlik. Yumshoq, jarangdor eshitiladigan tovushlar (l, m, n, r, y, o, a), bular ko'pincha sevgi, tabiat, xotirjamlikni tasvirlashda ishlatiladi.

O'zbek tili tabiatan singarmonizm, ya'ni unlilar ohangdoshligiga asoslangan til sanalganligi bois tarjimon, avvalo, matnni mazmuniga mos ifodali, ta'sirchan o'qiy olishi kerak.

Cho‘lponning “Kecha va Kunduz” romani o‘zbek tilining **fonostilistik** (tovushlar uslubi) imkoniyatlarini ko‘rsatib berish uchun eng mukammal asar sanaladi. Yozuvchi qahramon xarakterini ochishda nafaqat so‘z ma’nosidan, balki tovushlarning akustik jihatidan ham unumli foydalangan. Romanda Zebi tasvirlanganda yumshoq tovushlar, Akbarali mingboshi tasvirlanganda esa dag‘alroq tovushlar ko‘proq ishlatilgan.

Cho‘lpon Zebi tasvirida asosan unlilar (a, i, u) va sonor (l, m, n, r, y) hamda sirg‘aluvchi (s, sh, z) undoshlardan foydalanadi, chunki bu tovushlarda musiqiylik, mayinlik mavjud.

*“Bir-ikki bayt o‘tgandan keyin Zebining **tiniq, g‘uborsiz, jonon piyoladek jaranglab** chiqadigan **chiroyli** va **o‘tkir** ovozi qo‘shildi. Bu ovoz, peshona ustida **pilpillagan** eng yorug‘ yulduz singari boshqa ovozlardan ochiq ajralib turardi”.*

1. Assonans (unlilar uyg‘unligi): “I” tovushining ko‘p qo‘llanilishi:

(tiniq, piyola, chiroyli, o‘tkir, pilpillagan, singari).

Fonetik xususiyati: “I” — til oldi, yuqori tor unli.

“I” tovushi akustik jihatdan yuqori chastotali, ingichka talaffuz qilinadi. Mazkur tovush tabiatan narsaning kichikligini, nafisligini va o‘tkirligini bildiradi.

Cho‘lpon Zebi ovozi tasvirini berish uchun atayin “i”ga boy so‘zlarni tanlagan. Bu orqali kitobxon Zebining ovozi juda ingichka va jarangdor ekanligini his qiladi.

2. Alliteratsiya (undoshlar takrori): “P” va “L” o‘yini

Eng kuchli fonetik tasvir **“Pilpillagan”** so‘zida ifodalangan.

Tahlil: p-l-p-l tovushlarining almashinib kelishi.

“P” (portlovchi): yorug‘likning bir zum charaqlab, so‘ng o‘chishi (pulsatsiya).

“L” (sonor, sirg‘aluvchi): nur yoki tovushning mayin oqishi.

Bu so‘z **onomatopeya** (tovushga yoki holatga taqlid)dan yasalgan, *pilpillagan* deganda yulduzning ko‘z qisib o‘ynashini ham ko‘rish mumkin, ham ovozdagı titroqni eshitish mumkin.

Keyingi tovushlar “j” va “z” jarangli shovqinli undoshlardir (*Zebi, jonon, jaranglab, yulduz*). Ular matnga “metall jarangi”ni (bu tovushlarning talaffuz o‘rni, artikulyatsiyasi “temir”ga o‘xshaydi: z – sirg‘aluvchi: til uchi tishlarga yaqinlashadi va

havo tor oraliqdan siqilib, ishqalanib o‘tadi. natijada yuqori chastotali shovqin, vizillash paydo bo‘ladi, bu xuddi tarang tortilgan simning vizillashiga o‘xshaydi; **j** – portlovchi-sirg‘aluvchi: o‘zbek tilidagi *jonon*, *jarang* so‘zlaridagi “dj”, bu tovushda havo oqimi to‘siqni zarb bilan yorib o‘tadi, bu xuddi bolg‘aning temirga urilish paytiga o‘xshaydi) beradi.

Fonetik metaforaga misol: *jonon piyola* – chinni piyola chertilganda qanday “jarang” etgan tovush chiqaradi, Zebining ovozi ham xuddi shunday tiniq ekanligini ifodalaydi.

4. Sinesteziya (eshitish va ko‘rishning birlashuvi). Cho‘lpon tovushni (ovozni) ko‘z bilan ko‘riladigan narsaga, ya‘ni yulduzga qiyoslaydi. **Tiniq, g‘uborsiz** – bular aslida suvga yoki havoga nisbatan ishlatiladi, lekin bu yerda ovozga ko‘chirilgan, *yorug‘*, *yulduz* so‘zlari esa fonetik jihatdan yuqori pardani anglatadi.

Agar tarjimon bu “metall jarangi”ni his qilmasdan “jaranglab chiqadigan ovoz”ni shunchaki **“loud voice”** (baland ovoz) deb tarjima qilsa, xato qilgan bo‘ladi. Chunki “baland ovoz” karnay ovozi kabi qo‘pol bo‘lishi mumkin. Ammo “jarangdor ovoz” — **“ringing voice”**, **“silver voice”**, **“bell-like voice”** (qo‘ng‘iroqdek) bo‘lishi kerak.

Tarjimonlar uchun topshiriq:

“Tasavvur qiling, siz shu parchani ingliz yoki rus tiliga tarjima qilyapsiz. Sizning vazifangiz shunchaki ma‘noni o‘girish emas, balki tovush ta‘sirchanligini ham saqlab qolishdir”.

Agar siz “tiniq” so‘zini shunchaki “clear” (inglizcha) deb tarjima qilsangiz, ma‘no chiqadi, lekin “tiniq” so‘zidagi “i-i” o‘ynog‘iligi va “q”ning qat‘iyligi yo‘qolishi mumkin. **Yechim:** Tarjimon “crystal”, “ringing”, “shimmering”, “piercing” kabi fonetik jihatdan jarangdor va yorqin so‘zlarni izlashi kerak. Misol uchun, “pilpillagan” so‘zini shunchaki “shining” (porlayotgan) desa, tovush effekti yo‘qoladi. Uni “twinkling” (t-w-i-n-k-l — bu yerda ham mayda tovushlar bor) yoki “flickering” deb berish maqsadga muvofiq.

Zebining ushbu tasvirida Cho‘lpon **lab** (p, b, m) va **til oldi** (t, d, n, l, s, z, i) tovushlaridan mohirona foydalanib, unda yorug‘lik va musiqiy ohangni birlashtirgan. Demak, tarjimon matn musiqasini eshita olishi shart.

2. 🎯 Objective (maqsad va natija).

Mavzu rejasi:

1. Fonetika obyekti va adabiy tilning tovushlar tizimi.
2. Orfoepiya (to'g'ri talaffuz) va orfografiya (to'g'ri yozuv) me'yorlari ziddiyati.
3. Chet tilidan kirgan o'zlashtirma so'zlarning fonetik moslashuvi (transkripsiya va transliteratsiya).

[Slayd 2: Darsdan kutilayotgan natijalar]

Ma'ruzachi: Ushbu ma'ruza yakunida bo'lajak tarjimonlar o'zbek adabiy tilidagi unli va undosh tovushlarning artikulyatsion xususiyatlarini, yozuv va talaffuz o'rtasidagi tafovutlarni ilmiy tahlil qila oladilar hamda xalqaro atamalarni o'zbek tiliga fonetik jihatdan to'g'ri o'zlashtirish ko'nikmasiga ega bo'ladilar. Shuningdek:

matndagi fonetik g'alizlikni (kakofoniya) va ohangdorlikni (evfoniya) ajrata olasiz;

ingliz va rus tilidagi intonatsion urg'uni o'zbek tilida yuklamalar va so'z tartibi orqali bera olasiz;

tutuq belgisi va fonemalarining ma'noga ta'sir etishini baholay olasiz.

3. 🧠 Pre-assessment (dastlabki baholash). [Slayd 3: "Quloq" testi]

⚠️ **Diqqat, xatô! Ma'ruzachi:** Hozir ikki xil variantda tarjima qilingan bitta gapni o'qiyman. Qaysi biri o'zbek adabiy tili fonetik me'yoriga mos ekanligini toping.

1-variant: *Huquqni himoya qilish haqiqati haqida haqiqiy qaror qabul qilindi.*

2-variant: *Adolatni tiklash yuzasidan muhim qaror qabul qilindi.*

(Auditoriya: 2-variant).

Ma'ruzachi: Nega 1-variant emas, unda qanday xatoliklarni payqadingiz?

(Javob: 1-variantda "H" va "Q" harflari haddan tashqari ko'p, o'qilganda tomoq qiriladi, 2-variantda esa "H" va "Q" o'rniga yumshoqroq tovushlar tanlandi).

To'g'ri! Demak, sizda "fonetik sezgirlik" bor. Bu ajoyib.

4. 🌱 **Participatory learning (faol ta'lim).** Bugungi kunda sun'iy intellektga asoslangan Speech-to-Text (ovozni matnga o'tkazish) va Text-to-Speech (matnni ovozga aylantirish) dasturlari tarjimonlarning asosiy yordamchisiga aylangan. Biroq

Google Translate, Yandex kabi tizimlarning o‘zbekcha ovozlari nima uchundir ko‘pincha g‘ayritabiiy eshitiladi? Chunki bu dasturlarning algoritmlariga o‘zbek tilining orfoepik (talaffuz) bazasi emas, balki quruq orfografik (yozuv) qoidalari kiritilgan. Bo‘lajak tarjimonlar va tilshunoslar sifatida sizning vazifangiz kelajakda neyrotarjima tizimlariga o‘zbek tilining haqiqiy fonologik modellari hamda fonetik hodisalarini kiritishda faol ishtirok etishdir.

1-qism: Fonetik sath va evfoniya. [Slayd 4:]

Ma’ruzachi: Yevropa tarjimashunosligida “Phonic Level” (Fonetik sath)da nutq tovushlarining musiqiylik, ohangdorlikni ta’minlaydigan vositalar o‘rganiladi.

[Juftlikda ishlash (3 daqiqa)]:

Ekranda: *Keskir qilich uchi bilan kesdi.* (Q, K, Ch).

Vazifa: Ushbu jumlaning sinonimlar yordamida evfoniya holatiga keltiring.

Kutilgan javob: *O‘tkir tig‘ zarbi ila chopdi.*

2-qism: Urg‘u “ mantiq kaliti” sifatida. [Slayd 5: Intonatsiya va so‘z tartibi]

Ma’ruzachi: Tarjimonning eng katta muammosi shundaki, ingliz tilida ovoz ohangi (intonatsiya) bilan berilgan ma’noni o‘zbek tilida yozma shaklda qanday berishi sanaladi. Masalan: ingliz tilida: *I DID call you.* (urg‘u “did” da).

Xato tarjima: *Men senga telefon qildim.* (Hissiz axborot).

Fonetik me’yorga asoslangan tarjima: *Men senga telefon qildim-ku!* (-ku yuklamasi mantiqiy urg‘uni beradi).

Yoki: *Senga o‘zim telefon qildim* (so‘z tartibi o‘zgardi, ya’ni inversiya hodisasi yuz bergan).

Gap (logik) urg‘u. Gap bo‘laklaridan birining boshqalariga nisbatan kuchli ohang bilan aytilishi logik (gap) urg‘usi deyiladi. Misollar: **Bugun** *majlis bo‘ladi* (ertaga emas balki bugun) 2. *Bugun majlis boladi* (faqat majlis bo‘ladi), 3. *Bugun majlis bo‘ladi* (bo‘lmaydi emas, bo‘ladi) .

O‘zbek tilida so‘zlovchi uchun eng muhim so‘z, ya’ni mantiqiy (gap, logik) urg‘u olgan so‘z ko‘pincha kesimdan (fe‘l-kesimdan) oldin keladi, ammo bu qat’iy fikr emas. Bundan tashqari so‘z (leksik) urg‘usi ham ma’no farqlash vazifasini bajaradi. Masalan:

hozir (ravish): *Hozir keladi* – **hózir** (sifat): *Hozir-u nozir*

yangi (sifat): *Yangi uy* – **yangi** (ravish): *Yangi keldi*

Akade`mik (ot, ilmiy unvon)          Atla`s (ot, ipak mato) Banda` (ot, xudoning bandasi)          Bog`la`r (ot, bog`ning ko`pligi)          Bolada` (ot, -da- kelishik) Bolagina` (ot, -gina kichraytirgich)          Bosma` (sifat, bosma harf) Boti`n (ot, ichki)          Boti`r (sifat, botir kishi) Eti`k (ot, poyafzal)          Fi`zik (ot, o`qituvchi)          Geofi`zik (ot, mutaxassis) Gulla`r (ot, gulning ko`pligi) Ishla`r (ot, -lar ko`plik qo`shimchasi)          Ishchi` (ot, -chi so`z yasovchi qo`shimcha) Kla`ssik (ot, san`at arbobi) Kre`dit (ot, kredit operatsiyasi)          Ko`zla`r (ot, ko`zning ko`pligi)          Li`rik (ot, shoir) Matema`tik (ot, mutaxassis)          Mexa`nik (ot, mutaxassis) Mi`stik (ot, mistikaga moil kishi)          Moda` (ot, makiyon) Moslama` (ot, biron narsaning moslamasi)          Olma` (ot, meva) Oti`ng (ot, -ing egalik)          Proza`ik (ot, proza adibi) Qatlama` (ot, taom)          Qishloqcha` (ot, -cha kichraytirgich) Qo`lla`r (ot, qo`lning ko`pligi) Roma`ntik (ot, romantizm tarafdori)          Sizsi`z (sifat, sizsiz to`y o`tmaydi) Soya` (ot, salqin joy)          Surma` (ot, bezak) Te`xnik (ot, mutaxassis)          Tortma` (ot, stolning tortmasi) To`za (sifat, toza ko`ylak) Yangi` (sifat, eangi ko`cha) Yigitcha` (ot, kichraytirgich)          O`quvchimi`z (-miz egalik q.)          Changi` (ot, -I egalik qo`shimchasi)          Chog`la`r (ot, o`sha chog`lar)          Chora` (ot, eskirgan, katta yog`och idish)	Akademi`k (sifat, akademik litsey)          A`tlas (ot, kartalar to`plami)          Ba`nda (ot, qurollangan o`g`rilar) Bo`g`lar (fe`l, ko`zni bog`lar)          Bola`-da (ot, -da yuklama) Bola`gina (ot, -gina yuklama)          Bo`sma (fe`l, nonni bosma )          Bo`tin (fe`l, shu ishni qilishga botin)          Bo`tir (fe`l, qo`lingni botir) E`tik (sifat, etika faniga oid)          Fizi`k (sifat, fizikaga oid) Geofizi`k (sifat, geofizikaga asoslangan)          Gu`llar (fe`l)          I`shlar (fe`l, yaxshi ishlar edi)          I`sh-chi (ot, -chi yuklama) Klassi`k (sifat, mukammal)          Kredi`t (ot, qarz) Ko`zlar (fe`l, ishni ko`zlar)          Liri`k (sifat, poema) Matemati`k (sifat, matematikaga oid)          Mexani`k (sifat, mexanikaga oid) Misti`k (sifat, mistikaga asoslangan)          Mo`da (ot, did kiyinish) Mosla`ma (fe`l,) O`lma (fe`l, harakat) O`ting (fe`l, olmani menga oting) Prozai`k (sifat, proza bilan yozilgan)          Qatla`ma (fe`l, kitobni qatlama)          Qishlo`qcha (ravish, -cha ravish yasovchi) Qo`llar (fe`l, Xudo qo`llar)          Romanti`k (sifat, romantizm ruhida yozilgan) Si`zsiz (olmosh+shaxs-son, ishonganim sizsiz)          So`ya (ot, o`simlik)          Su`rma (fe`l)          Texni`k (sifat, texnikaga oid) To`rtma (fe`l, qo`limdan tortma)          Toza` (ravish, toza charchadik) Ya`ngi (ravish, hozirgina)          Yigi`tcha (ravish, yigitcha gaplashamiz) O`quvchi`miz (-miz -shaxs-son) Cha`ngi (fe`l) Cho`g`lar (fe`l, ko`ngilni chog`lar)          Cho`ra (ot, tadbir, iloj)
---	---

3-qism: grafik vositalar (tutuq belgisi) va fonema. [Slayd 6: Tutuq belgisi – tovushmi yoki belgi?]

Ma'ruzachi: Ko'pchilik tutuq belgisini (‘) shunchaki bir belgi deb o'ylaydi. Yo'q, u tarjimada ma'no farqlovchi birlik.

[Blits-savol]: Quyidagi so'zlar tutuq belgisi bilan va usiz qanday ma'no beradi? *sur'at va surat* (tezlik / rasm); *ta'na va tana* (malomat / jism).

Tarjimon tutuq belgisini tushirib qoldirsa, u imlo xatoni emas, uslubiyl xatoni qilgan bo'ladi.

O'zbek tili fonetik tizimining o'ziga xosligini belgilovchi eng muhim qonuniyatlardan biri **singarmonizm**, ya'ni unlilar ohangdoshligi hisoblanadi. Bu qonuniyat so'z tarkibidagi unlilarning ma'lum artikulyatsion belgilari, xususan, tilning gorizontol holati va labning ishtirokiga ko'ra bir-biriga moslashishini anglatadi. Singarmonizm asosan ikki turga bo'linadi:

1. Palatal garmoniyl (Til oldi va til orqa unlilarining moslashuvi). Bu turda so'z o'zagidagi birinchi unli til oldi bo'lsa, keyingi unlilar ham til oldi bo'lishi yoki birinchi unli til orqa bo'lsa, keyingilari ham til orqa bo'lishi lozim. Masalan, *ishchilarimiz* (barcha unlilar til oldi), *quyoshjon* (barcha unlilar til orqa).

2. Labial garmoniyl (Lablangan va lablanmagan unlilarning moslashuvi). Bunda so'zning birinchi bo'g'inidagi unli lablangan bo'lsa, keyingi bo'g'inlardagi unlilar ham lablangan bo'lishga moyil bo'ladi. Masalan, *tuzum*, *qutulmoq*. Garchi yozuvda, ya'ni orfografiyada singarmonizm to'liq aks etmasa-da, og'zaki nutqda, orfoepiyada beixtiyor unlilar bir-biriga moslab talaffuz qilinadi. Bu nutqning ravonligi, ohangdorligi va evfoniyasini ta'minlaydi.

Tarjimon matndagi xorijiy joy nomlari, ismlarni o'zbek tiliga o'zlashtirganda, qaysi affiksni qo'shishni o'zakning oxirgi bo'g'inidagi unliga qarab belgilaydi. Bu matnning o'qilish tezligi, ravonligini ta'minlaydi:

1. Agar chet el nomining oxirgi bo'g'inida til orqa (qattiq) unli kelsa: *Nyu-York+ka*, *London+da*, *Bred Pitt+ga*.

2. Agar oxirgi bo'g'inda til oldi (yumshoq) unli kelsa: *Vashington+ga*, *Parij+da*, *Bordo+ga*. (Izoh: Ayrim g'arb tillaridagi yumshoq talaffuz o'zbek tiliga o'tganda ham palatal uyg'unlik talab qiladi).

Sinxron tarjimada artikulyatsion qulaylikka erishish uchun **proteza** hodisasini ham bilish lozim, chunki ogʻzaki tarjima jarayonida mutaxassisning nutqi uzilib qolmasligi va til aʼzolari charchamasligi oʻta muhim. Ingliz yoki rus tillarida soʻz boshida 2-3 ta undosh yonma-yon keladi: *strategy, standard, stul*. Oʻzbek tilida esa bunday holat yoʻq. Tarjimon ogʻzaki nutqda singarmonizm qonuniyatiga boʻysunib, soʻz boshiga avtomatik ravishda unli qoʻshadi: *strategy – istrategy; standart – istandart; shkaf – ishkaif*. Agar tarjimon buni sunʼiy ravishda asliyatdek talaffuz qilishga urinsa, uning nutq tezligi pasayadi va tinglovchini charchatadi.

Assimilyatsiya turlari va ularning tarjima matnidagi oʻrni. Tovushlarning qaysi biri taʼsir koʻrsatayotganiga qarab, bu hodisa ikki asosiy turga boʻlinadi:

1. Regressiv assimilyatsiya – keyingi tovushning oldingisiga taʼsiridir. Ogʻzaki tarjima amaliyotida eng koʻp uchraydigan holat boʻlib, nutq tezligida keyingi kuchli tovush oʻzidan oldingi tovushni oʻziga oʻxshatib oladi: $n+b = m+b$: shan**ba** – shamb**a**, yon**bo**sh – yom**bo**sh; $z+s = s+s$: yoz**sa** – yoss**a**, tuz**siz** – tuss**iz**.

2. Progressiv assimilyatsiya – oldingi tovushning keyingisiga taʼsiridir. Bunda soʻz oʻzagining oxiridagi tovush unga qoʻshilayotgan qoʻshimchadagi tovushni oʻzgartiradi: $b+n = b+b$: kitob**ni** – kitob**bbi**, maktub**ni** – maktub**bbi**; $d+n = d+d$: omad**ni** – omad**ddi**.

Bugungi kunda Text-to-Speech (Matnni ovozga oʻtkazish) sunʼiy intellekt dasturlarining oʻzbek tilidagi kamchiliklardan biri ularning algoritmda assimilyatsiya modellarining yoʻqligidir. Google Translate kabi dasturlar yozuvni qanday koʻrsa, shunday oʻqiydi. Boʻlajak tilshunos-tarjimonlarning vazifalaridan biri oʻzbek tilining tabiiy assimilyatsiya qoidalarini neyrotarjima tizimlariga kiritish hisoblanadi.

💡 **Eslatma!** Mazkur mavzuni oʻtishda 4ta innovatsion yoʻnalishni aytish joiz:

1. **Fonosemantikada** tovushlarning muayyan maʼnoga egaligiga eʼtibor qaratiladi. 1929-yilda Volfgang Koʻhler tomonidan kashf etilgan “**Bouba/Kiki**” effektida yumaloq va silliq “Bouba” (B, M, L, O, U tovushlari) hamda qirrali va oʻtkir “Kiki” (K, T, Ch, I, E tovushlari) sanalgan. Bunda tarjimon reklama yoki badiiy asar tarjima qilayotgan boʻlsa, yumshoqlik, qulaylik, kenglikni ifodalash uchun B, M, L, D,

Z, O, U tovushlaridan foydalanishi (masalan: *bola, muloyim, dovul*). Tezlik, keskinlik, kichiklikni ifodalash uchun esa K, T, Ch, S, I, E tovushlarini qo‘llashi mumkin.

2. Kognitiv ravonlik (Cognitive Fluency). Insonlar talaffuzi oson va ohangdor (evfonik) gaplarni to‘g‘ri deb qabul qilishga moyil bo‘lishadi. Talaffuzi qiyin gaplar esa ular ongida “shubhali” yoki “xavfli” degan qarashni shakllantiradi.

Aforizm 1: “Woes unite foes” (Dard dushmani birlashtiradi) – Qofiyali.

Aforizm 2: “Woes unite enemies” – Qofiyasiz.

Natija shuki, ko‘pchilik 1-gap 2-gapga qaralganda “ma’noliroq va to‘g‘riroq” deb baholashadi. Siyosiy nutqlar, shiorlar va sarlavhalarni tarjima qilishda alliteratsiya (bir xil undosh bilan boshlash) va ichki qofiyadan foydalanish mumkin. Masalan:

asl jumla: “Build Back Better” (B-B-B alliteratsiyasi).

so‘zma-so‘z tarjima: “Qayta yaxshiroq qurish”.

sifatli tarjima: “Barqaror, barkamol, barhayot” (B-B-B effekti saqlandi).

3. Prosodik interferensiya bu tarjima qilinayotgan tilning ohang, ritm va urg‘u bilan bog‘liq qoidalar tarjima tiliga “bostirib kirishi” holatidir. Ingliz tilida urg‘u “tog‘li” (urg‘u baland-past bo‘ladi), o‘zbek tilida esa u “bir maromda, o‘zgaruvchan” (urg‘uli bo‘g‘in ko‘pincha so‘z oxirida keladi va so‘zga qo‘shimcha qo‘shish natijasida urg‘u o‘rni o‘zgarib boradi).

Prosodika (yunoncha prosodia – urg‘u, ohang) bu tilshunoslikning nutq ohangi, urg‘u, ritm va tezlikni o‘rganadigan bo‘limidir. Sodda qilib tushuntirganda, fonetika bu alohida tovushlar, harflar tizimi bo‘lsa, prosodika bu o‘sha g‘ishtlardan qurilgan binoning arxitekturasini va dizaynidir.

Demak, prosodikaning 3 ta asosiy ustuni bor:

1. Intonatsiya (ohang): ovozning ko‘tarilib, keyin pasayishi. Bu gapning asl maqsadi va hissiyotini belgilaydi.

Misol: *Keldi*. (past ohang, darak gap).

Misol: *Keldi?* (yuqori ohang, so‘roq gap).

Misol: *Keldi!* (kuchli hayajon: quvonch yoki g‘azab).

2. Urg‘u so‘z tarkibidagi qaysi bo‘g‘inning yoki gap tarkibidagi qaysi so‘zning kuchliroq aytilishi qarab ikki turga ega:

- 1) soʻz urgʻusi: soʻz tarkibidagi kuchli boʻgʻin (*hozir*).
- 2) mantiqiy urgʻu: gap ichidagi eng muhim soʻz (Men *kecha* keldim – bugun emas).

3. Ritm va temp (tezlik): nutqning tez yoki sekinligi, pauzalar (toʻxtamlar) oʻrni. Pauza maʼnoga bevosita taʼsir etadi: *Aziz ustoz boʻldi*

1-holat (Pauza “Aziz” soʻzidan keyin): *Aziz // ustoz boʻldi* jumlasining maʼnosi quyidagicha: Aziz ismli yigit ustozlik kasbini egallaganligi haqida xabar berilmoqda;

2-holat (toʻxtam “ustoz”dan keyin): *Aziz ustoz // boʻldi* gapida muayyan bir shaxsning hurmatga sazovor, aziz, moʻtabar ustoz ekanligi haqida maʼlumot berilmoqda.

Muammo shundaki, tarjimon ingliz tilidan oʻgʻirgan matnini oʻzbek tilida yozadi, lekin uni ichida inglizcha ohang bilan oʻqiydi, natijada “soxta ohang” (False Pathos) paydo boʻladi. Chet tilidagi Emphatic Stress (mantiqiy urgʻu)ni oʻzbek tiliga koʻchirishda ovoz tonidan emas, grammatik yuklamalardan foydalanish kerak.

English: *I DID do it!* (ovoz baland).

Oʻzbek tilida: *MEN buni qildim!* (soxta tarjima).

Oʻzbek tilida (meʼyor): *Buni axir oʻzim qildim-ku!* (-ku, axir, oʻzim birliklari intonatsiya vazifasini bajaradi).

4. Dublyaj va vizemalar (viseme) nazariyasi. Vizema (Viseme) bu fonemaning vizual koʻrinishi.

💡 **Eslatma!** Ekranda aktyorning lablari yopildimi (B, P, M tovushlari), oʻzbek tilidagi tarjima matnida ham lablar yopilishi shart. Aks holda ong “desinxronizatsiya”ni sezadi va ishonch yoʻqoladi.

english: “Mum...” (Lab yopildi).

oʻzbek: “Oyi...” (Lab ochiq – Vizual xato).

yechim: “Buvim...” yoki “Onam...” (Lab yopiladigan variant qidiriladi, garchi maʼno biroz oʻzgarsa ham).

Fonostilistik vositalar bu nutqning taʼsirchanligini, jozibadorligini va hissiyligini oshirish maqsadida tovushlar va ohangdan maxsus usulda foydalanishdir.

Sodda qilib aytganda, fonostilistika bu “nima deyilayotgani” emas, balki “qanday ovozda yangrayotgani” orqali ma’no kuchaytirishdir.

Fonostilistik vositalar tilshunoslikda asosan uchta katta guruhga bo‘linadi. Bu tasnif ularning tovushlar (segmental) yoki ohang (supersegmental) bilan bog‘liqligiga qarab ajratiladi.

1. Segmental fonostilistik vositalar. Bular quyidagicha:

Alliteratsiya (undoshlar takrori). Badiiy matnda, ayniqsa, she’riyatda bir xil undosh tovushlarning takrorlanishi bo‘lib, bu ohangdorlikni oshiradi va ma’lum bir ritm hosil qiladi. Misol: *“Qora qozon, qaynar qozon, qaynab turgan qonim bor...”* (Mirtemir). Bu yerda “q” tovushining takrori og‘irlik, qiyinchilik va keskinlik hissini beradi.

Assonans (unlilar takrori). Misralarda bir xil unli tovushlarning takrorlanib kelishi sanaladi. Misol: *“Ul kim, jon-u jahonim, bor-u yo‘g‘im, dilrabo...”* “O” va “I” unlilarining takrori g‘azalga nola, ohangdorlik manosi yuklaydi.

Taqlid so‘zlar (Onomatopoeia). Tabiatdagi, hayvonlardagi yoki buyumlardagi tovushlarga taqlid qilish orqali hosil bo‘lgan so‘zlar, bular o‘quvchi ko‘z o‘ngida va qulog‘ida jonli tasvirni yaratadi. Misol: *sharqiramoq, gurs-gurs, shig‘il-shig‘il, miltillamoq* (nur tovushi). Stilistik vazifasi shuki, *“Suv oqaypti”* degandan ko‘ra, *“Suv sharqirab oqaypti”* deyish kuchliroq fonostilistik bo‘yoqqa ega.

Geminatsiya (qavatlanish): Undosh tovushning ikkilantirilishi orqali ma’noni kuchaytirish demakdir Misol: *sip-silliq, toppa-to‘g‘ri, yam-yashil*.

2. Supersegmental fonostilistik vositalar (ohang va ritm). Bu vositalar alohida harfga emas, balki so‘z yoki gapning umumiy aytilish tarziga bog‘liq.

Intonatsiya (ohang). Bu og‘zaki nutqning eng kuchli quroli, yozma nutqda esa tinish belgilari va so‘z tartibi orqali ifodalanadi. Intonatsiya gapning mazmunini butunlay o‘zgartirib yuborishi mumkin. Misol: *“Aqlli ekan”* (Tasdiq) – *“Aqlli ekan-da...”* (Kinoya).

Pauza (to‘xtam). Hayajonni yoki kutilmagan burilishni bildirish uchun to‘xtash. Misol: *“U eshikni ochdi va... dahshatdan qotib qoldi”*.

Ritm. Bu nutqning bir maromda, o‘lchovli aytilishidir. U tovushlar, bo‘g‘inlar, so‘zlar yoki so‘z birikmalarining ma’lum vaqt oralig‘ida izchil takrorlanib kelishidan hosil bo‘ladi. Ritm nutqqa musiqiylik, ta’sirchanlik va hissiy bo‘yoq bag‘ishlaydi. Masalan, barmoq vazni misralardagi bo‘g‘inlar sonining tengligiga asoslanadi *Misol:* “O‘l-kam-da / bog‘-lar / qiyg‘os / gul-la-di” (11 bo‘g‘in).

3. Grafik fonostilistika. Bu zamonaviy tilshunoslikda, ingliz va o‘zbek badiiy adabiyotida alohida ajratiladigan turdir. U yozma nutqda **tovush, ohang va intonatsiyani** grafik vositalar: harflar, tinish belgilari yordamida ifodalash usullarini o‘rganadi.

Umuman olganda, bu “yozuvni eshitish” san’atidir. Yozuvchi matnni shunday yozadiki, siz uni o‘qiyotganda qahramonning baqirayotganini, duduqlanayotganini yoki tovushlarni cho‘zib aytayotganini his qilasiz. Misollar: “*Judaaaaa chiroyli!*” (Hayratni bildiradi). “*E-e-e, nimalaaar deyapsiiz?*”, “*Judaaaaaa zerikdim*” (Unlini ko‘paytirish orqali his-tuyg‘u berish).

Sheva: “Qattasan?” (Qayerdasan?), “Obke” (Olib kel).

Duduqlanish: “M-m-men b-b-bilmayman”.

Bolalar nutqi: “Nonni nanna deydi”.

Grafik fonostilistika, asosan, badiiy adabiyotda, xususan, dialoglarda qahramon xarakterini ochish uchun va internet yozishmalarida: telegram, instagramda hissiyotni yetkazish uchun keng qo‘llaniladi. U “quruq” matnga jon bag‘ishlaydi.

 **Eslatma!** Hurmatli talabalar! Fonetika bu ong nazorati (Mind Control). To‘g‘ri va jozibali talaffuz qilinmagan eng mukammal tarjima ham o‘z tinglovchisini topa olmaydi. Xorijiy so‘zlarni o‘zlashtirishdagi transliteratsiya (harfma-harf ko‘chirish) va transkripsiya (tovushma-tovush ko‘chirish) qoidalarini bilish sizni qo‘pol uslubiy xatolardan asraydi. Siz tovushlar orqali kitobxonni tinchlantirishingiz (Bouba), xavotirga solishingiz (Kiki) yoki unga o‘zingizni haq ekanligingizni uqtirishingiz (Kognitiv ravonlik) mumkin. Adabiy til me’yorlari sizga mana shu bilimlarni to‘g‘ri ishlatishni o‘rgatadi.

5.  Post-assessment (yakuniy baholash). [Slayd 7: “Dublyaj rejissyori” o‘yini]

Ma'ruzachi: Tasavvur qiling, siz kino dublyajidasiz. Aktyorning lab harakati yumshoq, vaziyat romantik. Lekin tarjimon quyidagi matnni berdi. Uni tahrir qiling.

Xom tarjima: “Qorong‘u qasrga qamalgan qizning qismati qiyin”.

Muammo: “Q” harfi haddan tashqari ko‘p (Kakofoniya). Romantikaga to‘g‘ri kelmaydi.

Vazifa: Ma‘noni saqlab, tovushlarni “silliqlang”.

(Talabalar variantlarini eshitasiz. Masalan: “Zulmatga burkangan saroydagi malikaning taqdiri ayanchli” – S, Z, L, M yumshoq undoshlari ishlatildi).

6. 🎓 **Summary (xulosa va uyga vazifa).** [Slayd 8: Xulosa]

Ma'ruzachi: Bugun nimani o‘rgandik?

Tarjimon bu bastakor. U so‘zlarni shunday terishi kerakki, o‘quvchi o‘qiganda tovush g‘alizligiga duch kelmasin.

💡 **Eslatma!** *Quloqqa yoqmagan tarjima yurakka yetib bormaydi.*

[Slayd 9: Uyga vazifa]

Sevimli qo‘shig‘ingiz yoki she‘ringizdan bir parcha oling.

Unda qaysi tovushlar ko‘p ishlatilganini (fonosemantika) va bu qanday hissiyot (yumshoq, qattiq, tez, sekin) berayotganini tahlil qiling.

Qishda kishmish pishmasmish, pishsa kishmish qishmasmish. (Sh, S, M tovushlari o‘yini).

G‘ani g‘ildirakni g‘izillatib g‘ildiratdi. (G‘, L, R tovushlari o‘yini).

Bu mashqlar tarjimon va suxandonlar uchun artikulyatsiyani, ya‘ni talaffuz aniqligini charxlash uchun juda foydali.

MANTIQIY TAFAKKUR BOSQICHI

1. **Ma‘no o‘yini.** Bitta tovush yoki urg‘u inson taqdirini o‘zgartirishi mumkinmi? (Misol: *atlas* (mato) va *atlas* (xarita); *hol* (ahvol) va *xol* (badandagi belgi)).

2. **Sheva va adabiy til.** Toshkentlik “votti-votti” deydi, buxorolik “raftam” deydi. Nega jurnalist va aktyorlar sahnada kitobiy tilda gapirishi shart? Tabiiylik yaxshi emasmi?

3. **Xorijiy talaffuz.** Chet elliklar “O‘zbekiston” so‘zini “Uzbekistan” deb aytadi. Biz ham “London”ni “Landon” deyishimiz shartmi yoki o‘zbekchasiga “London” deyaveraylikmi?

✂ **Mustaqil ta’lim uchun keys “Dublyaj aktyorining matni”**

Sizga xorijiy kinofilmdan olingan va o‘zbek tiliga o‘girilgan rasmiy yozma matn berildi. Ammo dublyaj aktyori uni tabiiy va tez o‘qishi uchun siz bu matnni orfoepik (og‘zaki talaffuz) qoidalari, xususan, assimilyatsiya hodisasi asosida transkripsiya qilib berishingiz kerak.

Asl yozma tarjima matni: *Ular kitobni olib, shoshilib chiqib ketishdi. Tun qorong‘i, osmon yulduzsiz edi. Faqatgina uzoqdan yuzta otliqning changi ko‘rinardi.*

Vazifa: yuqoridagi matnda ishtirok etgan qaysi so‘zlar va harakat fe‘llarida progressiv va regressiv assimilyatsiya yuz berishini aniqlang. Matnning “dublyajbop” fonetik talaffuz variantini yozing: ...*chiqib ketishdi* (...*chiqip-ketishti*).

Nazorat va muhokama savollari:

1. Orfografiya va orfoepiya tushunchalarining asosiy farqi nimada?
2. Nima uchun sinxron (og‘zaki) tarjimada fonetik me‘yorlarni bilish hal qiluvchi ahamiyatga ega?
3. O‘zbek tilidagi singarmonizm (ohangdoshlik) qonuniyati tarjima matnlarida qanday namoyon bo‘ladi?
4. Transliteratsiya va transkripsiya usullarining tarjimonlik amaliyotidagi farqini misollar bilan tushuntiring.
5. Chet tilidan kirgan so‘zlarda kuzatiladigan proteza, tovush ortishi hodisasi o‘zbek tilining qaysi ichki qonuniyati bilan izohlanadi?
6. Assimilyatsiya, ya’ni o‘xshashlik hodisasi nutqni ravonlashtirishda qanday vazifa bajaradi?
7. Sun‘iy intellekt (TTS va STT dasturlari) o‘zbek tilida to‘g‘ri talaffuz yaratishi uchun qanday lingvistik muammolar hal etilishi kerak?
8. “*Xalqaro so‘zlarning yozilishi asliyatga, talaffuzi esa o‘zbek tili qoidalariga bo‘ysunadi*” degan fikrni qanday izohlaysiz?

Glossariy (tayanch atamalar):

1. **Fonetika** – tilshunoslikning nutq tovushlari, ularning hosil bo‘lishi va xususiyatlarini o‘rganuvchi bo‘limi.
2. **Orfoepiya** – adabiy tilning barchaga majburiy bo‘lgan to‘g‘ri talaffuz me‘yorlari va qoidalari yig‘indisi.
3. **Orfografiya** – to‘g‘ri yozish qoidalari, adabiy tilning yozma shaklini belgilovchi me‘yorlar.
4. **Transkripsiya** – biror tildagi so‘zning aynan talaffuz qilinishi, ya‘ni tovush qobig‘ini boshqa tilning grafik vositalari orqali ifodalash.
5. **Transliteratsiya** – bir yozuvdagi harflarni boshqa yozuvdagi harflar bilan to‘g‘ridan to‘g‘ri almashtirish, harfma-harf ko‘chirish.
6. **Singarmonizm** – unlilar ohangdoshligi, so‘z o‘zagidagi unliga qarab qo‘shimchadagi unlining moslashuvi.
7. **Assimilyatsiya** – nutq jarayonida yonma-yon kelgan ikki tovushning artikulyatsion jihatdan bir-biriga o‘xshashi.
8. **Proteza** – so‘z boshida, asosan o‘zlashtirma so‘zlarda, talaffuzni yengillashtirish uchun unli tovushning orttirilishi.
9. **TTS (Text-to-Speech)** – yozma matnni avtomatik ravishda inson nutqiga (ovozga) aylantirib beruvchi sun‘iy intellekt texnologiyasi.
10. **STT (Speech-to-Text)** – insonning og‘zaki nutqini to‘g‘ridan to‘g‘ri yozma matnga aylantirib beruvchi nutqni aniqlash tizimi.

Mavzu yuzasidan mutolaa uchun manbalar:

1. Jamolxonov H. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent: 2005.
1. Mirtojiyev M. O‘zbek tili fonetikasi. – Toshkent: Fan, 2013.
2. Abuzalova M. Hozirgi o‘zbek adabiy tili (Fonetika, leksikologiya, morfologiya). – Buxoro, 2021.
3. Jurafsky D., Martin J.H. Speech and Language Processing (3rd ed.). – Stanford University, 2023.
4. Xamroyeva Sh.M. O‘zbek tili mualliflik korpusining lingvistik ta‘minoti va uni modellashtirish. Filol. fan. dok. (DSc) diss. – Toshkent, 2021.
5. O‘zbek tili milliy korpusi: www.uzbekcorpus.uz
6. Uzfonemayzer — O‘zbek tili orfoepik lug‘ati: <https://orfo.uz/>

3 - MA'RUZA: GRAFIKA. ORFOGRAFIK VA ORFOEPIK ME'YORLAR

1. 🏰 Bridge-in (qiziqtirish).

🎯 **Maqsad:** talabalar diqqatini jalb qilish va tarjimada imloviy xatoga yo'l qo'ymaslik uchun nimalar qilish kerakligini tushuntirish.

[SLAYD 1: Vizual dizayn]. **Tasvir:** Katta yo'l belgisi yoki rasmiy hujjatdagi kulgili xato.

Variant A: "...tuzsiz ekan" o'rniga "...tussiz ekan" (ma'no o'zgarishi).

Variant B: "sur'at" (tezlik) va "surat" (rasm).

Matn: "Bitta belgi – 1 million dollar zarar!"

O'qituvchi nutqi: Hurmatli talabalar, H.Jamolxonov o'z kitobida: "Yozuv – kishilar o'rtasidagi aloqa vositasidir", – deb yozadi, lekin tarjimon uchun yozuv bu shunchaki aloqa vositasi emas, bu yuridik javobgarlik. Tasavvur qiling, siz shartnomada "Ish sur'ati" (tezligi) so'zini tutuq belgisisiz "Ish surati" (rasmi) deb tarjima qildingiz. Natijada kompaniya ishni tezlatish o'rniga sizga ishning rasmini chizib jo'natdi.

2. 🎯 Objective (maqsadni belgilash).

Mavzu rejasi:

1. Grafika va transliteratsiya muammolari.
2. Yozuv tamoyillari va turlari.
3. Orfografik me'yor — tarjimonning yozma savodxonlik asosi.
4. O'zbek adabiy tilining talaffuz me'yorlari

[SLAYD 2: Infografika]

Grafika: xorijiy nomlarni to'g'ri transliteratsiya qilish.

Orfografiya: Jamolxonov ko'rsatgan 3 tamoyil: fonetik, morfologik, tarixiy tamoyillar asosida bexato yozish.

Orfoepiya: sinxron tarjimada o'zbek tilidagi shevaga xos talaffuzdan qutulish va adabiy talaffuz qilish.

3. 🧠 Pre-assessment (dastlabki baholash).

Maqsad: talabalarning joriy savodxonlik darajasini tekshirish.

[SLAYD 3: "Toping va tuzating"]

Fon: Qora doska ko‘rinishi.

 Diqqat, xato! Matn:

1. *Facebook* – Feysbuk / Facebuk?
2. *Sentabr* – Sentyabr / Sentabr?
3. *Hujjat* – Xujjat / Hujjat?
4. *New York* – Nyu-York / Nyu York?

Talabalar daftarlariga to‘g‘ri javobni yozadilar.

Javoblar tahlili: H.Jamolxonov kitobidagi morfologik va eshitilish (fonetik) tamoyillari asosida to‘g‘ri javoblar izohlanadi (*sentabr* shaklida yoziladi, chunki o‘zbek tilida “ya”lashish yo‘q; Feysbuk – fonetik tamoyil asosida yoziladi).

4.  Participatory learning (faol ta’lim). Bugungi kunda orfografik va orfoepik me’yorlar shunchaki savodxonlik mezoni emas, balki tabiiy tilni qayta ishlash (NLP - Natural Language Processing) jarayonlarining tayanch poydevori hisoblanadi. Ayni damda o‘zbek tilidagi so‘zlarni avtomatik tarzda fonetik transkripsiyaga aylantiruvchi ilmiy platforma Uzfonemayzer ishga tushirilgan va u orfoepik me’yorlar asosida yaratilgan.

Sun’iy intellekt va kompyuter dasturlari tilni to‘g‘ri tushunishi uchun biz me’yorlarni matematik aniqlikda modellashtirishimiz kerak. Xususan, o‘zbek tili uchun yaratilayotgan UzNLTK (Uzbek Natural Language Toolkit) kabi algoritmik vositalarni ishlab chiqishda:

1. Imlo tekshirgichlar (Spell-checkers) qat’iy orfografik qoidalar va korpus ma’lumotlariga tayanadi.
2. Matnni tovushga o‘girish (Text-to-Speech - TTS)da mashina yozilgan matnni o‘qiyotganda unlilar reduksiyasi, undoshlar assimilyatsiyasi kabi orfoepik qoidalarni algoritm asosida tahlil qilib, jonli inson nutqini modellashtiradi.
3. Semantik-sintaktik tahlilda noto‘g‘ri yozilgan bitta grafema kompyuter xotirasida butunlay boshqa semantik ma’noni keltirib chiqaradi.

1-modul. Grafika va alifbo.

H.Jamolxonov nazariyasi: Olim yozuvni “*kishilar o‘rtasidagi aloqa vositasi bo‘lib, u tovush tiliga nisbatan ikkilamchi xarakterga ega*” deb ta’riflaydi. Grafika

bo'limida u o'zbek yozuvining tarixiy bosqichlari va hozirgi lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosidagi grafema-fonema munosabatlarini tahlil qiladi. Shular ichidan tarjimon uchun o'rganilishi zarur sanalgan jihatlariga to'xtalib o'tish joiz:

1. Grafema va digraflar muammosi: Jamolxonov ta'kidlaganidek, o'zbek alifbosida bitta tovushni ifodalash uchun ikki harfning birikuvi *ng*, *ch*, *sh* dan foydalaniladi. Tarjimada bu kompyuter dasturlarida yoki notanish ismlarni o'girishda mazkur harfiy birikmalarni ajratib yuborish tufayli bir qator qiyinchiliklarga duch kelinadi. Masalan, "*Washington*" so'zi transliteratsiya qilinganda *sh* harfi *s* va *h* deb alohida o'qilmasligi kerak.

2. "J" harfining ikki xil tabiati: Jamolxonov darsligida *J* harfi ikki xil tovushni ifodalashi aytilgan:

- a) portlovchi *Jj* (*jo'ja*, *jahon*) – o'zbek va arab-fors so'zlarida;
- b) sirg'aluvchi *Jj* (*jurnal*, *jirafa*) – yevropa tillaridan o'zlashgan birliklarda.

Tarjimon ovozlashtirish (dublyaj)da bu farqni sezishi shart. Agar personaj "*jurnalist*" so'zini portlovchi "*j*" (jahondagi kabi) bilan talaffuz qilsa, bu fonetik interferensiyaga yo'l qo'ygan hisoblanadi.

3. O'zbek alifbosida "C", "W" "Th" harflarining yo'qligi (grafik lakuna): Tarjimon o'zbek lotin alifbosida mazkur harflar qatnashgan atoqli otlarning transliteratsiyasi jarayonida quyidagi qoidaga amal qilishi kerak:

W – V (*Washington - Vashington*) yoki *U* (*William - Uilyam*).

Th – T (*Thatcher - Tetcher*, *Theodore - Teodor*),

John Searle – Jon Seyrl

C – S (*City - Siti*) yoki *K* (*Club - Klub*).

2-modul. Orfografiya tamoyillari (Jamolxonov tasnifi)

H.Jamolxonov o'zbek tili imlosini 3 ta asosiy tamoyil asosida tushuntiradi. Tarjimon har bir so'zni yozayotganda, qaysi tamoyilga amal qilayotganini bilishi shart.

1. Fonetik tamoyil (eshitilishi asosida yozish). so'zning talaffuz qilinishi yozuvda aynan aks etadi: *sariq + ay = sarg'ay* (tovush o'zgarishi yozuvda aks etdi). (siz "sariqaydi" deb yozsangiz, bu xato). "*Facebook*" so'zi ham o'zbek tilida "*feysbuk*" deb aytilishi bo'yicha yoziladi. Aniqrog'i, so'z va affikslar qanday aytilsa, shunday

yoziladi: *yoz, o‘qi, lug‘at; senga, buloqqa; yosh-yasha, sana-sanoq* kabi. Fe‘l nisbati yasovchi qo‘shimchalar (*kuldir, o‘tkaz, ko‘rgaz, tutqaz, eshittir*), harakat tarzi shakllari (*ishlayver, keloladi*), jo‘nalish kelishigining “k” va “q” bilan tugagan so‘zlarga qo‘shilgan holatlari (*yurakka, qishloqqa*), -gan sifatdosh yasovchi affiksi va -gach, -guncha, -gudek, -gancha, -gani ravishdosh yasovchilarining “k” va “q” bilan tugagan fe‘llarga qo‘shilish holatlari (*ekkan, boqqach, tikkuncha*), egalik qo‘shimchasining ba’zi so‘zlarga qo‘shilgan holatlari (*o‘g‘il – o‘g‘lim, shahar – shahri, bilak – bilagi, o‘rtoq – o‘rtog‘i, parvo – parvoyim*), *ikki, olti, yetti* so‘zlaridan jamlovchi son yasalishi (*ikki – ikkov, olti – oltovlon, yetti – yettov*) kabilar shu tamoyil asosida yoziladi.

2. Morfologik tamoyil (o‘zak yoki affiksni saqlash). So‘z o‘zagi yoki affiksi talaffuzda o‘zgarsa ham, yozuvda asliyatga muvofiq, ya’ni qabul qilingan qoidalar asosida yoziladi: *tog‘ + ga = tog‘ga* (aytilishda “toqqa”); *ketdi* (aytilishda “ketti”); *aytipti* emas, *aytibdi*; *tussiz* emas, *tuzsiz* kabi.

3. Tarixiy-an’anaviy tamoyil (“asliyatiga sodiqlik”). So‘zlarning yozilishi tarixan qanday qabul qilingan bo‘lsa, shunday yoziladi. Masalan: *Germaniya– Olmoniya, Yevropa – Ovro‘pa*. Ba’zi so‘zlarning bir necha xil ko‘rinishda yozilishi ham shu yozuvga asoslanadi: *kaptar – kabutar, badtar – battar, masjid – machit, obro‘ – obro‘y, gado – gadoy, o‘tirish – o‘ltirish, podsho – podshoh, gazmol – gazlama, shosupa – shohsupa, odob – adab, berk – bekik, hayqirish – ayqirish, ajdar – ajdarho – ajdaho, shohi – shoyi* kabi.

Tamoyillar	Ta’rif	Misollar
Fonetik	Eshitilishi kabi yoziladi.	<i>sariq + ay = sarg‘ay</i> (q→g‘).
Morfologik	O‘zak o‘zgarmaydi.	<i>tog‘ + ga</i> so‘zi “toqqa” deb aytilsa ham, yozuvda “ tog‘ga ” deb yozamiz.
Tarixiy-an’anaviy	Qanday qabul qilingan bo‘lsa, shunday yoziladi	<i>borur</i> (<i>borar</i> emas); <i>hadya</i> (<i>xadya</i> emas)

O‘zbek tilida fonetik hodisalar ikki xil:

1. Pozitsion o‘zgarishlar (tovushlarning o‘rniga bog‘liq o‘zgarishlari). Bu tovushning so‘z boshida, o‘rtasida yoki oxirida kelishiga qarab o‘zgarishi sanaladi. So‘z oxiridagi **B, D, G, Z** harflari talaffuzda **P, T, K, S** bo‘lib eshitiladi: yozmada *kitob*,

talaffuzda esa *kitop* bu adabiy me'yor hisoblanadi. Urg'usiz bo'g'indagi unlilarning qisqa va noaniq aytilishi: *bilim – b'lim*.

2. Kombinator o'zgarishlar (tovushlarning yonma-yon kelish holatidagi o'zgarishi). Bu ikki tovushning bir-biriga ta'sir qilishi natijasida sodir bo'ladigan o'zgarishlar bo'lib, yozma tarjimonlar uchun muhim, chunki imlo xatolarining 80%i shu bilan bog'liq holda ro'y beradi. Bular ikki xil:

a) so'z va shakl yasash jarayonidagi yozuvda ham aks etadigan kombinator o'zgarishlar quyidagi jadvalda berilgan:

Tovush almashishi		Tovush tushishi		Tovush ortishi	
a→ o	Bo'ya+q=bo'yoq, sayra+qi=sayroqi, ishla+v=ishlov, qayna+q= qaynoq,	Unlilarda a,i,u	Shahar+im=shahr im	Isi+q=issiq	s
o→ a	Son+a=sana,ot+a=ata, ong+la+angla, yosh+a=yasha,		Bag'ir+im=bag'ri m, o'yin+a=o'yna, ayir+il=ayril,ikki +ala=ikkala,olti+ ovlon= oltovlon	Tib+iy=tibbiy	b
i→ u	O'qi+v= o'quv, quri+q=quruq, sovi+q=sovuq, gurs+illa=gursulla			Haq+i=haqqi	q
g→ k	Terak+ga=terakka, tik+gan=tikkan,tik+gach=t ikkach		Buyur+uq=buyru q, burun+ingiz=burn ingiz,ulug'+ay=ul g'ay	U,bu,shu+da,- ga, -dan,-im,-ing,- i(si),imiz,ingiz =unda,unga,un dan,unim,uning ,unisi,unimiz, uningiz	n
k→ g	Terak+im=teragim,bilak+i =bilagi,kerak+ing=keragin g			De,ye+il,- ish=deyildi	y
q→ g'	Qishloq+i=qishlog'i, quloq+im=qulog'im	Undoshlarda	Past,sust+ay=pasa y, susay;	Achi+q=achchi q	ch

r→t	Bir+ta=bitta		men+ni, -ning, - niki=meni,menin g, meniki	Mavqe,parvo,o bro'+im,- ing,imiz,ingiz= mavqeyim,parv oying,obro'yim iz	y
		-il	Qizil+ar=qizar		

b) soʻz va shakl yasash jarayonidagi faqat talaffuzda aks etadigan kombinator oʻzgarishlar quyidagi jadvalda berilgan:

Tovush almashishi	Tovush tushishi	Tovush ortishi
Okulist (akulist)	Doʻst (doʻs)	Soat (sogʻat), (sahat), Teatr (teyatr)
Tonna (toʻnna)	Samarqand (Samarqan)	Stol (ustol)
Tugʻilmoq (tugʻulmoq)	Artist (artis)	Bank (banka)

Jarangli undosh (z) bilan tugagan soʻzga jarangsiz (s) bilan boshlanuvchi qoʻshimcha qoʻshilganda *tuzsiz, yuzsiz, yozsa* soʻzlari *tussiz, yussiz, yossa* kabi aytilsa ham, asliga muvofiq yoziladi.

Burun tovushi *n* lab undoshlari (*b, m, p*) oldidan kelganda *m* ga aylanadi: *shamba* emas, *shanba*; *oʻrimbosar* emas, *oʻrinbosar*.

3-modul. Orfoepik meʼyorlar. Oʻzbek adabiy tilining talaffuz meʼyorlari

Adabiy talaffuzning baʼzi qoidalari:

1. *Aql, qism, ism, fikr, vaqt, ilm, hal, uzr, xalq, naql, naqd, nasl, hukm* kabi arabcha soʻzlarning barchasida urgʻu birinchi boʻgʻinga tushadi. Bu bilan orfografik xatoning ham oldi olinadi.

2. *Muhim, mudir, muqim, muhit, mumkin, munis* kabi arabcha soʻzlarning ikkinchi boʻgʻini urgʻu oladi hamda juda aniq talaffuz etiladi.

3. *Bahor, nahor, savol, savob, avval, shamol* kabi soʻzlarning birinchi boʻgʻinidagi *a* tovushi *o* tovushiga yaqin talaffuz qilinadi, lekin *a* yoziladi.

4. *Obr/a/z, trakt/o/r, direkt/o/r* kabi soʻzlarning urgʻusiz boʻgʻinidagi keyingi unli tovush deyarli talaffuz etilmaydi. Lekin yozuvda *a* va *o* harflari saqlanadi: *obraz*,

traktor, direktor va b. Bu xil soʻzlarda oʻnlisi urgʻu olsa oʻ tarzida, urgʻu olmasa, *a* kabi talaffuz qilinadi: *polk, tonna* va *dotsent, izotop*.

5. Urgʻuning oʻrnini oʻzgartirish soʻz maʼnosiga taʼsir qiladi: *bogʻlar — bogʻlar, surma — surma, atlas — atlas, mexanik — mexanik, fizik — fizik, olma — olma* kabi qatorlarda soʻzlarning maʼnosi faqat urgʻu yordamida ajratiladi.

 **Eslatma!** Talaffuz meʼyorlariga oid quyidagi qoidalarni bilib oling!

1. Oʻzbek tilida tutuq belgisi unli tovushdan soʻng kelsa, oʻsha unli choʻzib talaffuz qilinadi, undoshdan soʻng kelsa, ayirib oʻqiladi. Masalan: *aʻlo, Raʻno, taʻlim, masʼuliyat, qatʻiyat* kabi.

2. b, v, g, d, z tovushlari urgʻusiz boʻgʻinlarda, soʻz oxirida, jarangsiz undoshlar yonida jarangsizlashadi va shunday talaffuz qilinadi: *ketti, kitop, zavot, isnot* va b. Lekin yozuvda qoidaga amal qilinadi: *zavod, isnod, kitob, ketdi*.

3. *Bir* soʻziga -ta qoʻshimchasi qoʻshilganda, r tovushi t ga aylanadi va shunday oʻqiladi hamda yoziladi: *bitta*.

4. Qoʻsh undoshlar toʻliq talaffuz qilinadi: *muhabbat, takabbur, muqaddas, raddiya, izzat, muallim, tavallud, muammo, himmat, tamanno, tannoz, muyassar, qassob*.

5. f tovushi koʻp hollarda p tarzida aytiladi, lekin uni aniq talaffuz etish va yozish talab qilinadi: *pabrika* emas, *fabrika, shapqat* emas *shafqat*. Bu oʻrinda bir harf ikki tovushning maʼno ayirishdagi oʻziga xos xususiyatini ham nazarda tutish lozim: *sof — sop, tif — tip* va b.

6. x va h tovushlari ikkita mustaqil fonemadir; ularni juda aniq talaffuz qilishni oʻrganish lozim. Muhimi, har ikki tovush maʼno ayiradi: *xush — hush, xol — hol, xiyla — hiyla, shox — shoh, xam — ham, uxlamoq — uhlamogʻ* va b.

7. Qoʻshma feʼllarning qisqargan shakli talaffuz qilinsa ham, uning toʻliq shakli yoziladi: *opketti — olib ketdi, opqochti — olib qochdi* kabi.

8. Barcha yuklamalar urgʻusiz boʻladi: *siz-mi, siz-chi, meni-ya, siz-a, siz-da*.

Maʼlumki, oʻzbek tili xilma-xil shevalarga boy til va uchta dialektni: 1) qarluq, 2) qipchoq, 3) oʻgʻuzni oʻz ichiga oladi. Ularning har qaysisida yuzlab shevalar mavjud,

ular ayrim fonetik, leksik, morfologik belgilari bilan o‘zaro o‘xshash va noo‘xshash xususiyatlarga ega.

Demak, ulardagi barcha noo‘xshash belgilarni adabiy til uchun me‘yor qilib olib bo‘lmaydi. Shuning uchun adabiy tilning talaffuz me‘yorlari shu tilning tovush tizimi asosida yaratiladi. Tildagi tovush o‘zgarishlari bilan yuzaga keladigan hodisalar ma’lum bir tartibga keltiriladi.

4-modul. Muammoli vaziyatlar tahlili. Ma’ruzani mustahkamlash uchun talabalarga quyidagi “Grafik tuzoqlar”ni taqdim etiladi:

davo (cure) – *da’vo* (claim).

surat (picture) – *sur’at* (speed).

qala (pile) – *qal’a* (fortress).

Savol: *Sudga davo kiritdi* jumlasini nega mantiqsiz? (Javob: Chunki sud bu shifoxona emas, u yerga *davo* kiritilmaydi, shu sabab *da’vo* bo‘lishi kerak.).

Vaziyat 2: Bosh harflar (Capitalization).

Ingliz tilida: *I am Uzbek. It is Monday in July.* (millat, kun, oy – katta harf).

O‘zbek tilida: *Men o‘zbekman. Iyul oyining dushanba kuni.* (kichik harf).

Savol: Nega tarjimonlar “O‘zbek” so‘zini matn ichida katta harf bilan yozishga moyil? (Javob: Grafik interferensiya).

5. 📄 **Post-assessment (yakuniy baholash).**

🎯 **Maqsad:** O‘rganilganlarni mustahkamlash.

🔗 **Keys.** [SLAYD 5: Keys-stadi]

Topshiriq: Quyidagi inglizcha gapni o‘zbek tiliga barcha imlo va transliteratsiya qoidalariga amal qilgan holda o‘giring.

Source: “*In September, William visited the Tashkent City administration regarding the strict contract structure*”.

Kutilayotgan Javob:

“*Sentabr oyida Uilyam (yoki Vilyam) qat’iy shartnoma tuzilmasi yuzasidan “Tashkent City” (yoki “Toshkent-Siti”) majmuasiga tashrif buyurdi*”.

6. 🎓 **Summary (xulosa). Maqsad:** darsni yakunlash va uyga vazifa.

[SLAYD 6: Xulosa]

Grafika – bu sizning savodxonligingiz.

Orfografiya – bu sizning yuridik aniqligingiz.

Orfoepiya – bu sizning professional imijingiz.

Uyga vazifa. Topshiriq mavzusi: ***Orfografik me'yorlarning raqamli makon va mashina tarjimasidagi semantik ta'siri***

Topshiriq turi: Kichik amaliy tadqiqot va tahliliy maqola.

Talabalar uchun bajarish bosqichlari:

1. **Ma'lumotlar yig'ish.** Telegramdagi ommabop xabarlar, yangilik saytlari yoki ijtimoiy tarmoqlardagi turli matnlardan jami 50 ta gapni ajratib olish.

2. **Xatoliklarni tasniflash.** Yig'ilgan matnlarni lingvistik tahlil qilib, eng ko'p uchraydigan orfografik xatolar (masalan, *h/x* harflari, tutuq belgisi, qo'shib/ajratib yoziladigan so'zlar, qisqartma va akronimlarning noto'g'ri yozilishi)ni aniqlash. Xatolarni turlarga ajratib, ularning uchrash foizini hisoblab, oddiy jadval ko'rinishiga keltirish.

Mashina tarjimasi tahlili. Matndan eng qo'pol imlo xatosi bor 5ta gapni tanlab, ularni aynan xatosi bilan birga Google Translate, Yandex yoki boshqa sun'iy intellekt tarjimonlari orqali ingliz tiliga o'girib ko'rish. O'zbek tili mutaxassisi sifatida sun'iy intellekt o'zbek tilidagi orfografik xatoni tushunmay, uni qanday qilib mutlaqo boshqa ma'nodagi inglizcha jumlagi aylantirib qo'yganini isbotlab berish.

Tadqiqot xulosasi. Yuqoridagi tahlillar va to'plangan ma'lumotlar asosida "O'zbek tili orfografiyasining tarjima sifatiga ta'siri" mavzusida qisqa, 2-3 betlik ilmiy-ommabop maqola tayyorlash.

“O'YLA, IZLA, TOP!”

1. **Internet savodxonligi:** Telegramda “wunaqa” (shunaqa), “nime” (nimaga) deb yozish bu zamonaviy qulaylikmi yoki milliy fojia?

2. **Alifbo bahsi:** Nega bizda “X” va “H” harflari alohida? Ularni birlashtirib yuborsak, maktab o'quvchilarining hayoti osonlashmasmidi? Tilshunos sifatida bunga qarshimisiz yoki tarafdor?"

3. **Xato narxi:** Reklama banneridagi bitta imlo xato kompaniyaning savdosini tushirib yuborishi mumkinmi?

TALABALAR UCHUN “MUZYURAR” TOPSHIRIQ:

“Ko‘z bilan eshitish” mashqi. Ekranga quyidagi gapni yozing va talabalardan buni ovoz chiqarib, to‘g‘ri intonatsiya bilan o‘qishni so‘rang.

“Sizningcha, bu ishni qilsa bo‘ladimi?”

1-holat (oddiy so‘roq): *Sizningcha, bu ishni qilsa bo‘ladimi?* (maslahat so‘rash).

2-holat (kinoya/shubha): *Sizningcha...* (aniq siz shunday deb o‘ylaysizmi?), *bu ishni qilsa bo‘ladimi?* (ishonqiramay qarash).

3-holat (g‘azab): *Sizningcha, bu ishni qilsa bo‘ladimi?!* (mumkin emasligiga ishora).

Xulosa: Grafika (yozuv) bizga faqat “skelet”ni beradi, orfoepiya (talaffuz) esa unga “jon” va “hissiyot” bag‘ishlaydi.

Nazorat va muhokama savollari

1. Grafika va orfografiya o‘rtasidagi asosiy tafovut nimada?
2. Nima uchun “ng” tovushi yozuvda ikkita harf bilan ifodalanadi va bu qanday muammolarni keltirib chiqaradi?
3. Orfoepik me‘yorlarning buzilishi kommunikatsiya jarayoniga qanday salbiy ta‘sir ko‘rsatadi?
4. Qisqartmalar qanday hosil qilinadi va ularning imlosida qanday xatoliklarga ko‘p yo‘l qo‘yiladi?
5. Sun‘iy intellekt o‘zbek tilidagi matnni ovozlashtirishida (TTS) qaysi orfoepik qoidalarni bilishi shart deb hisoblaysiz?
6. Nima uchun o‘zbek tilini kompyuterda qayta ishlashda (NLP) qat‘iy orfografik me‘yorlar juda muhim?
7. Transliteratsiya jarayonida xorijiy ism va atamalarning yozilishida qanday tamoyillarga amal qilinishi kerak?
8. Bosh harflarning imlosiga oid qoidalarni misollar yordamida tushuntiring.

Glossariy

Assimilyatsiya — yonma-yon kelgan tovushlarning bir-biriga ta'sir qilib, o'xshashish hodisasi (masalan: *tuzsiz* -> *tussiz*).

Digraf — bitta fonemani ifodalash uchun qo'llaniladigan ikkita harf birikmasi (*sh, ch, ng*).

Korpus (lingvistik korpus) — tilshunoslik tadqiqotlari uchun maxsus yig'ilgan, elektron shakldagi va qidiruv tizimiga ega matnlar bazasi.

Reduksiya — urg'usiz bo'g'inda unli tovushlarning qisqa talaffuz etilishi yoki tushib qolishi.

Transliteratsiya — bir yozuv tizimidagi harflarni ikkinchi yozuv tizimi harflari bilan aynan almashtirib yozish.

Mavzu yuzasidan qo'shimcha mutolaa uchun manbalar:

1. Mahmudov N. (Tahriri ostida). O'zbek tilining katta imlo lug'ati. – Toshkent: Kafolat print company, 2023. – 648 b.
2. Jamolxonov H. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: Talqin, 2005. – 272 b.
3. Xolmanova Z.T. Kompyuter lingvistikasi. O'quv qo'llanma. – Toshkent, 2020. – 199 b.
4. Abuzalova M.Q. O'zbek tilining morfemikasi, morfologiyasi va sintaksisi masalalari. – Toshkent, 2021.
5. Balteiro I. A Contribution to the Study of Conversion in English. – Münster: Waxmann Verlag, 2007. – 152 b.
6. Uzfonemayzer – O'zbek tili orfoepik lug'ati: <https://orfo.uz/>

4-MA'RUZA MASHG'ULOTI: LEKSIKOLOGIYA. LEKSIK BIRLIKLAR SEMANTIKASI

 **Maqsad:** talabalarda soʻzlarning nafaqat lugʻaviy, balki kontekstual va konnotativ maʼnolarini ajratish koʻnikmasini shakllantirish.

1 Bridge-in (koʻrik / qiziqtirish).

[SLAYD 1: Vizual dizayn]

Tasvir: ekranda “HOT DOG” yozuvi va uning yonida “Issiq kuchuk” deb toʻgʻridan toʻgʻri tarjima qilingan kulgili rasm.

Savol: Nega sunʼiy intellekt (Google Translate) baʼzan shunday xato qiladi?

Maʼruzachi nutqi: Hurmatli talabalar, soʻzlar bu gʻishtlar emas, ular tirik organizmlar. Masalan, ingliz tilidagi *cheap* va *affordable* soʻzlarini olaylik, ikkalasining ham maʼnosi bir xil. Lekin:

He gave me a cheap gift desangiz, u **xasis** (salbiy).

He gave me an affordable gift desangiz, u **tejamkor** (ijobiy). Bugun biz siz bilan soʻzning ichki qatlamini (DNKsini) ochishni oʻrganamiz.

2. Objective (maqsadni belgilash).

Maqsad: darsdan kutilayotgan natijalarni eʼlon qilish.

[SLAYD 2: Dars maqsadi] Dars soʻngida siz:

1.  Denotativ (asosiy) va konnotativ (hissiy) maʼnolarni farqlay olasiz.
2.  Komponent tahlil (Componential Analysis) usuli orqali soʻzlarni semalarga (“atomlarga”) ajrata olasiz.
3.  **Semantik maydon** (Semantic Field) tushunchasi orqali tarjimada eng toʻgʻri, muqobil soʻzni tanlay olasiz.

3. Pre-assessment (dastlabki baholash).

 **Maqsad:** talabalarning soʻz sezgisini tekshirish.

 **Diqqat, xató!** [SLAYD 3: “Odd One Out” (Ortiqchasini top!) Quyidagi qatorlardan mantiqan “begona” soʻzni toping va sababini ayting:

Qator A: *chiroyli, goʻzal, dilbar, dahshatli.*

(javob: *dahshatli* birligi garchi bugungi kunda *dahshat chiroyli* deb ishlatilsa-da, semantik o'zagi salbiy).

Qator B: *uy, hovli (kulba), palace (saroy), residence (qarorgoh).*

(javob: *residence* – rasmiy, qolganlari yashaydigan makonni bildiradi).

4. ❀ Participatory learning (faol ta'lim).

Leksikologiya (yunoncha *lexis* – so'z, *logos* – ta'limot) quyidagi masalalarni ilmiy tadqiq etadi:

Semasiologiya: so'zning leksik (lug'aviy) ma'nosi va ma'no taraqqiyoti.

Etimologiya: so'zlarning kelib chiqishi va tarixiy shakllanishi.

Sistem munosabatlari: so'zlar o'rtasidagi shakl va ma'no munosabatlari (sinonimiya, antonimiya, omonimiya, paronimiya).

Uslubiy tabaqalanish: so'zlarning qo'llanish doirasi (umumiste'mol so'zlar, terminlar, dialektizmlar, arxaizmlar).

Leksik birliklar har bir tilning asosiy qurilish materialini hisoblanadi. Ular orqali inson fikri, hissiyoti va tafakkuri ifodalanadi. Tarjima jarayonida har bir leksik birlikning ma'nosini to'g'ri anglash tarjimondan katta mas'uliyat bilan yondashishni taqozo etadi. Tarjima jarayoni leksema, frazeologizm va atamalardan tashkil topuvchi leksik birliklarni nafaqat lisoniy, balki lingvomadaniy jihatdan chuqur idrok etishni talab qiladi. Turli tillarda mazkur birliklarning semantik ko'lami hamda uslubiy xususiyatlari o'zaro farqlanishi sababli bu faoliyat mutaxassisni mukammal akademik bilim egallashga va yuksak lisoniy sezgi bilan ishlashga undaydi.

A) semantik tuzilma: denotatsiya va konnotatsiya.

Denotatsiya: so'zning lug'atdagi to'g'ridan to'g'ri ma'nosi.

Konnotatsiya: so'zga qo'shilgan hissiy bo'yoq.

So'z (Lexeme)	Denotatsiya	Konnotatsiya (Hissiyot)	Tarjimon qachon ishlatadi?
<i>Spy –ayg'oqchi</i>	Sir to'plovchi shaxs	Salbiy (sotqin, dushman)	Dushman haqida yozganda
<i>Scout – razvedkachi</i>	Sir to'plovchi shaxs	Ijobiy (qahramon, vatanparvar)	O'z askarlari haqida yozganda.
<i>Politician – siyosatchi</i>	Siyosat bilan shug'ullanuvchi	Neytral yoki biroz salbiy (ayyor)	Tanqidiy maqolalarda
<i>Statesman - arbob</i>	Siyosat bilan shug'ullanuvchi	Ijobiy (dono, xalqparvar)	Madh etuvchi matnlarda

B) komponent tahlil (componential analysis)

Tushuncha: So'zlarni eng kichik ma'no bo'lak (**sema**)lariga ajratish. Bu xuddi kimyodagi atomlar tahliliga o'xshaydi.

[SLAYD 5: **Sema matritsasi**] Keling, "stul" leksemasini tahlil qilamiz.

Sema 1: o'tirish uchun (For sitting).

Sema 2: suyanchiq (Backrest).

Sema 3: qo'lqo'ygich (Armrest).

Sema 4: bir kishi uchun (For one person).

So'z	O'tirish uchun	Suyanchiq	Qo'lqo'ygich	Bir kishi uchun
Chair (stul)	+	+	-	+
Armchair (kreslo)	+	+	+	+
Stool (taburetka)	+	-	-	+
Sofa (divan)	+	+	+/-	- (ko'p kishi)

 **Eslatma! Ma'ruzachi:** Ko'rdingizmi? Tarjimada *He sat on a stool* jumlasini *U stulga o'tirdi* desangiz xato bo'ladi, chunki o'zbek kitobxoni ongida suyanchiq'i mavjud buyum nomi gavdalanadi. Shu sabab uni *U kursi* (suyanchiq'i yo'q o'rindiqlik yoki taburetkaga) *o'tirdi* deb tarjima qilinishi kerak.

POLISEMIYA (ko'pma'nolilik). So'zlar birlamchi, y'ani denotativ va ko'chma, metaforik ma'nolarga ega. Masalan: *ko'z* (a'zo) – *uzukning ko'zi* (metafora). Tarjimon so'zni lug'atdagi birinchi ma'nosiga qarab tarjima qilmaslik lozim.

 **Keys:** ingliz tilidagi *run* so'zining 600 dan ortiq ma'nosi bor.

 **Diqqat, xato:** "*My nose is running*" jumlasini "*Mening burnim yuguryapti*" deb emas, "*Burnim oqyapti*" deyish to'g'riroq bo'ladi.

 **Eslatma!** So'zni tarjima qilmang, balki kontekstni tarjima qiling.

Ma'no ko'chish usullari (troplar) quyidagilar:

1. **METAFORA** bu bir narsa-buyum yoki hodisa nomining boshqasiga o'xshashlik asosida ma'no ko'chirilishidir. Bu o'xshashlik shakl, rang, xususiyat yoki harakatda bo'lishi mumkin.

Misollar:

Shakl: *uzukning ko‘zi* (odam ko‘ziga o‘xshash).

Xususiyat: *temir iroda* (temirdek mustahkam).

Harakat: *shamol uvulladi* (bo‘ri kabi).

Metafora milliy xarakterga ega bo‘ladi. Uni so‘zma-so‘z tarjima qilib bo‘lmaydi.

Asl matn (EN): *He is the head of the family.*

So‘zma-so‘z tarjimasi: *U oila boshi.* (*oil*a *bosh*i metaforasi ko‘pgina tillarda, jumladan, o‘zbek tilida ham faol qo‘llanilganligi uchun g‘aliz emas).

Yana bir muqobil varianti: *U oila boshlig‘i* yoki *U oilaning ustuni* (tayanch metaforasi ishlatiladi).

Tarjimonlar uchun metaforalarni an‘anaviy tilshunoslik qolipi: ot metafora, sifat metafora asosida emas, balki tarjima jarayoni bilan bog‘liq o‘zbek tilining semantik xususiyatlari asosida tizimlashtirish eng samarali usuldir. Quyida tarjimon amaliyotda duch keladigan 4 asosiy metafora turi va ularni qanday tarjima qilish bo‘yicha “yo‘l xaritasi”ni taqdim etish joiz:

1. Lisoniy (nominativ) metaforalar (Dead Metaphors).

Xususiyati: hissiy bo‘yoq (konnotatsiya) **0%**. Bular shunday so‘zlarki, dastlab ko‘chma ma’noda ishlatilgan, lekin vaqt o‘tishi bilan haddan tashqari ko‘p qo‘llanilgani sababli o‘zining obrazlilikini, hissiy-bo‘yoqdorligini yo‘qotib, oddiy leksemaga aylanib qolgan birliklardir. Bu kabi birliklar lug‘atimizdagi odatiy nomlarga aylanib ulgurganligi tufayli nutq jarayonida ishlatilganda “ko‘chma” ekanligi sezilmaydi.

Professor M.Mirtojiyevning “O‘zbek tili semasiologiyasi”, “O‘zbek tili leksikologiyasi” kabi fundamental asarlarida “o‘lik metafora” tushunchasi chuqur tahlil qilingan. Olim g‘arb tilshunosligidagi “*Dead Metaphor*” (o‘lik metafora) terminini aynan shunday tarjima qilib ishlatishdan ko‘ra uning mohiyatini ochib beruvchi “Lisoniy metafora” yoki “Nominativ metafora” atamalarini qo‘llashni ma’qul ko‘radi.

M.Mirtojiyev bu kitobda “o‘lik metafora”ni tilning rivojlanishi, so‘z boyligining ortishi (polisemiya) uchun eng muhim manba deb hisoblaydi. Uning nazdida, “o‘lik” deyilishi uning keraksizligini emas, balki hissiy bo‘yog‘i o‘chib, aniq atamaga aylanganini bildiradi. Tilshunoslik va tarjima uchun bu juda muhim, chunki Mirtojiyev

lisoniy metaforalarni tarjima qilishda ularni “metafora” deb emas, balki “mustaqil ma’noli so‘z” deb qarash kerakligini uqtiradi.

Ushbu kitobda bu hodisa haqida quyidagi asosiy fikrlar ilgari surilgan:

Mirtojiyev metaforalarni funksiyasiga ko‘ra ikkiga ajratadi:

1) **nutqiy (badiiy) metafora:** bu hali “tirik”. U yozuvchi yoki so‘zlovchi tomonidan narsani chiroyli tasvirlash maqsadida o‘sha lahzada yaratiladi. Masalan: *Uning ko‘zlari — tubsiz ummon.*

2) **lisoniy (nominativ) metafora:** bu aynan “o‘lik metafora”. Mirtojiyevning fikricha, bu metaforalar endi tasvir vositasi emas, balki tilning lug‘at boyligidagi tayyor nomlardir.

Mirtojiyev tadqiqotida “o‘lik metafora”ning asosiy belgisi sifatida obrazlilik, ya’ni tasviriylilikning yo‘qolishi shunday tushuntiriladi: so‘z dastlab ko‘chma ma’noda ishlatilganda inson ongida qiyos, o‘xshatish bo‘ladi, lekin vaqt o‘tishi bilan bu so‘z shu narsaning doimiy nomiga aylanib qoladi, natijada so‘zlovchi ongida hech qanday obraz gavdalanmaydi. Masalan, Biz “*g‘isht qolipi*” deganimizda, endi “*qolip*” so‘zining asl ma’nosini o‘ylamaymiz, u shunchaki qurilish materialining bir turiga aylanib qolgan.

Mirtojiyevning ta’kidlashicha, o‘lik metaforalar til uchun juda zarur. Ular tildagi leksik yetishmovchiliklarni to‘ldiradi, ya’ni tilda yangi buyum paydo bo‘ladi. Masalan, choynakdan suyuqlik quyiladigan qismiga yangi so‘z o‘ylab topish o‘rniga tilda bor bo‘lgan “*burun*” so‘zi ko‘chirib qo‘yila qolgan: *choynakning burni*. Mirtojiyev buni “til tejamlorligi tamoyili” bilan bog‘laydi.

Kitobda semantik taraqqiyot bosqichlari, ya’ni so‘z ma’nosining o‘zgarishi shunday tushuntiriladi:

Individual qo‘llanish: kimdir birinchi marta “tog‘ bag‘ri” iborasini ishlatadi (badiiy metafora).

Ommalashish: Bu ibora xalq ongiga o‘rnashadi, natijada omma ishlay boshlaydi.

Leksikalizatsiya (lisoniylashuv): lisoniy birluk lug‘atga kiradi va o‘zining ko‘chma ma’no ekanligini tamoman di, natijada u “o‘lik metafora”ga aylanadi.

O‘zbek tilida inson tana a’zolarining nomlarini buyumlarga ko‘chirish orqali hosil bo‘lgan o‘lik metaforalar juda ko‘p:

Ko‘z: *ignaning ko‘zi, uzukning ko‘zi, buloqning ko‘zi* kabi birikmalarda “inson ko‘zi”ni tasavvur qilmaymiz, shunchaki teshik yoki qimmatbaho toshni tushunamiz).

Tish: *arraning tishi, taroqning tishi...*

Quloq: *qozonning qulog‘i.*

Burun: *choynakning burni.*

Bet: *suvning beti, kitobning beti.*

Mashina yuryapti (aslida odam yuradi, mashina g‘ildiraydi). Bunda tarjimon “obrazni tiklash”ga urinmasligi, ingliz tilidagi ekvivalentini (ko‘pincha so‘zma-so‘z tushadi) berishi lozim. Yoki bo‘lmasa, “*The leg of the table*” birligi “*stolning oyog‘i*” deb tarjima qilinishi, “*stolning tirgagi*” deb o‘zgartirilishiga ehtiyoj yo‘qligini kuzatish mumkin.

2. Turg‘un metaforalar (stock metaphors).

Xususiyati: hissiy bo‘yoq **50%**, madaniy xoslik kuchli. G‘arb tilshunosligidagi “Stock metaphor” tushunchasi o‘zbek tilshunosligida uning mohiyatiga to‘la mos keladigan “turg‘un metafora” mavjud. Bular shunday metaforalarki, ular “o‘lik metafora” kabi butunlay atamaga aylanib ketmagan, ya’ni obrazlilik saqlangan, lekin ular “yangi” yoki “mualliflik” metaforasi ham emas. Ular xalq ongida tayyor qolip sifatida turadi va nutqda tez-tez ishlatiladi.

Quyida o‘zbek tilidagi turg‘un metafora turlarini keltirish mumkin:

1) his-tuyg‘u va tabiat bilan bog‘liq metaforalar bu eng keng tarqalgan turi sanaladi. Bular o‘zbek she’riyati va nasrida asrlar davomida qo‘llanib kelinayotgan tayyor obrazlardir:

Oltin kuz (faslning sariqligi).

Umr bahori (yoshlik davri).

Hayot yo‘li (umrni safarga o‘xshatish).

Qalb jarohati (ruhiy og‘riqni jismoniy jarohatga o‘xshatish).

Fikirlar ummoni (ko‘p o‘ylash).

2) ta‘m va sezgi bilan bog‘liq, ya’ni sinestetik metaforalar

Bu turdagi metaforalar o‘zbek tilida juda faol hisoblanadi: *shirin so‘z / shirin orzular; achchiq haqiqat / achchiq qismat; sovuq munosabat / sovuq nigoh; iliq kutib olmoq*

3) modda nomlari orqali inson xarakterini tasvirlash uchun ishlatiladigan tayyor qolipli metaforalar:

Temir intizom (juda qattiq tartib).

Po‘lat iroda (mustahkam iroda).

tosh yurak (rahm-shafqatni bilmaydigan).

Oltin bosh (aqlli inson).

Turg‘un metaforalar (stock metaphors) ko‘pincha “ekvivalent” usuli bilan tarjima qilinadi. Ingliz tilidagi *Heart of gold* birligining o‘zbek tilidagi *oltin yurak* degan tarjimasidan ko‘ra ko‘proq “*ochiqko‘ngil*”, “*ko‘ngli ochiq*” degan metaforalarni ishlatish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Ingliz tilidagi *Iron Lady* esa o‘zbek tilidagi *temir xotin* to‘g‘ridan to‘g‘ri qabul qilingan xalqaro turg‘un metaforaga to‘g‘ri keladi.

3. Individual-mualliflik/okkazional metaforalari (creative/original metaphors).

Xususiyati: Hissiy bo‘yoq **80%**. Bular lug‘atda mavjud bo‘lmagan, xalq orasida qolipga tushmagan, aynan yozuvchi yoki so‘zlovchi tomonidan hozirning o‘zida, kutilmaganda yaratilgan metaforalardir. Ularning asosiy maqsadi o‘quvchini hayratda qoldirish, narsaga yangicha nigoh bilan qarashga majburiy undashdir. Bular quyidagicha:

1) zamonaviy (texnologik) metaforalar. Hozirgi kunda texnologiya atamalari orqali inson holatini tasvirlash urfga kirgan. Masalan, *Hayotimiz — katta supermarket, lekin kassada baribir hisob-kitob bor* (yangi falsafiy o‘xshatish).

2) badiiy (poetik) metaforalar. Shoirlar va yozuvchilar tomonidan yaratilgan, hali barqaror bo‘lib ulgurmagan tasvirlar: “*Yomg‘ir — osmonning simlari*” (Rauf Parfi, ijodiy metafora, yomg‘ir tomchilari cholg‘u simlariga o‘xshatilgan); “*Vaqt — qutirgan it*” (Shavkat Rahmon, vaqtning shafqatsizligi kutilmagan obraz orqali ifodalangan); “*Yolg‘izlik — devorlari oynadan qurilgan qamoqxona*” (Ulug‘bek Hamdam, shu yerda turib hamma seni ko‘radi, lekin sen undan chiqa olmaysan degan ma’noga ishora).

3) siyosiy va publitsistik uslubga xos metaforalar. Jurnalistlar va bloggerlar tomonidan qo'llaniladigan metaforalar: *mafkuraviy immunitet* (kasallikka emas, o'z fikrida qat'iy bo'lish, yot g'oyalarga ergashib ketmaslik).

4. Konseptual metaforalar. Bu alohida guruh bo'lib, u so'zni emas, balki fikrlash tarzini bildiradi. O'zbek tilidagi ba'zi konseptlar, ya'ni modellar milliy mentalitet va yashash tarzidan kelib chiqqan. Tarjimon buni bilmasa, milliy-madaniy xatoga yo'l qo'yadi.

Quyida o'zbek tilidagi eng mashhur konseptual metaforalar keltirilgan:

1) hayot — bu sayohat (life is a journey). Bu universal metafora bo'lib, o'zbek tilida faol ishlatiladi.

Konsept: *inson – yo'lovchi, tug'ilish – yo'lga chiqish, qiyinchiliklar – to'siqlar.*

Umr yo'ldosh (turmush o'rtog' – hamroh).

Hayot so'qmoqlari (qiyinchiliklar).

To'g'ri yo'ldan adashdi (gunoh qildi).

Oxirat safariga kuzatdik (vafot etdi).

Bu boshi berk ko'cha (yechimsiz vaziyat).

Umr karvoni to'xtamaydi (hayot davom etadi).

2) g'azab – bu olov (anger is fire). O'zbeklar g'azabni issiqlik, olov va portlash bilan bog'laydi.

G'azabi qaynadi (suyuqlik qaynashiga o'xshatilgan).

Jahl bilan yonib ketdi (olovga o'xshatilgan).

Tutab ketdim (tutun chiqishiga o'xshatilgan).

O'zini bosib oldi (qopqoqni yopish/sovutishga o'xshatilgan).

3) vaqt – bu oqar suv (time is flowing water). Inglizlarda “*Time is money*” (vaqt – pul) kuchli bo'lsa, o'zbeklarda vaqt ko'proq suvga o'xshatiladi: *vaqt oqar daryo, suvdek oqib o'tib ketdi, oqqan daryo oqmay qolmas* kabilar. Shuningdek, “vaqt = boylik” degan konsept ham bor: *vaqtni boy berdi, vaqt – g'animat*

4) fikr – bu ozuqa (ideas are food). Biz ma'lumotni qabul qilishni “ovqat yeyish”ga o'xshatamiz.

Gapni chaynamang (cho'zmang).

Masalaning mag‘zini chaqish (Mohiyatini tushunish).

Bu xomxayol (pishmagan fikr).

Gapingizni hazm qilolmadim (qabul qilolmadim).

Achchiq haqiqat (ta‘m).

5) o‘zbekona etnometaforalar. Shunday konseptlar borki, ular g‘arb ilmida yo‘q, faqat sharq ilmida bor, bu jarayonda tarjimon madaniy tafovutni farqlay olishi kerak.

A) **mehr/qarindoshlik bu jigar** (kindship is liver). Inglizlarda hissiyot markazi *heart* (*yurak*) bo‘lsa, o‘zbeklarda qadimdan *jigar* va *bag‘ir* hisoblangan.

Jigarim (My liver) – Ukam, eng yaqinim.

Bag‘rim qon bo‘ldi (My liver became blood) – Ezilib ketdim (Sadness).

Jigargo‘sham – Bolam.

Agar tarjimon *He is my liver* deb tarjima qilsa, inglizlar tushunmaydi. *He is my own flesh and blood* yoki *He is my heart* deb o‘girish kerak.

b) obro‘ bu yuz (status is face)

Xitoy va o‘zbek madaniyatida “yuz” bu insonning jamiyatdagi o‘rnini anglatadi.

Yuzi yorug‘ bo‘ldi (uyaltirib qo‘ymadi).

Yuzimni yerga qaratma (sharmanda qilma).

Yuzsizlik qildi (bezbetlik).

Ingliz tilida *save face* (obro‘ni saqlash) bor, lekin *black face* (yuzi qora) konsepti irqchilikni anglatadi. O‘zbekchada esa *yuzi shuvut/qora* – gunohkor degani.

Konsept	Metafora (Inglizchada)	Metafora (O‘zbekchada)	Farqi
qo‘rquv	cold (sovuqlik) <i>frozen with fear</i>	jon (ruh) <i>joni tovoniga tushib ketdi</i>	o‘zbek dunyoqarashida qo‘rquv “jon”ning joylashuvini o‘zgartiradi.
baxt	up (yuqori) <i>I'm feeling up</i>	bosh/ko‘k (head/sky)	ikkalasida ham “yuqori” konsepti bor.

Konsept	Metafora (Inglizchada)	Metafora (O‘zbekchada)	Farqi
		<i>boshi ko‘kka yetdi</i>	
xafalik	blue (rang) <i>feeling blue</i>	yemoq (eating) <i>ich-etini yemoq</i>	o‘zbek dunyoqarashida xafalik insonni ichidan yemiradi.

TARJIMON UCHUN “YO‘L XARITASI”

💡 **Eslatma!** Matnda metaforaga duch kelsangiz, quyidagi algoritm bo‘yicha ishleng:

1. **Bu lisoniy metaforami?** Ha. Terminni yozing
2. **Bu turg‘un metaforami?** O‘zbek tilida shunga o‘xshash muqobil ko‘chma ma’noli birlik, ibora yoki maqol toping (*Ignada o‘tirgandek*).
3. **Bu “muallifniki”mi?** Ha. Obrazni aynan ko‘chiring.
4. **Madaniyatga to‘g‘ri keladimi?** Yo‘q. Obrazni o‘zgartiring (*qush emas quyon*)

2. METONIMIYA (aloqadorlik asosida ko‘chish) bu kki narsa o‘rtasidagi aloqadorlik, bog‘liqlik asosida nomning ko‘chishidir. Bunda narsalar o‘xshash bo‘lmaydi, lekin bir-biri bilan yonma-yon yoki sabab-oqibat bog‘liqligida namoyon bo‘ladi.

Misollar:

Joy va inson: Auditoriya kuldi (auditoriyadagi talabalar).

Muallif va asar: Men Navoiyni o‘qidim (kitobini).

Idish va narsa: Bir piyola ichdi (choyni).

Metonimiya ko‘pincha siyosiy va rasmiy matnlarda uchraydi.

Asl jumla (EN): *The White House announced...*

Tarjima: *Oq uy e’lon qildi...* (Bu to‘g‘ri, chunki bu metonimiya xalqaro).

Lekin: *Downing Street refused to comment*

Xato: *Dauning ko‘chasi izoh berishdan bosh tortdi* (o‘zbek o‘quvchisi ko‘cha qanday gapirishini tushunmaydi).

To'g'ri (eksplikatsiya): *Britaniya hukumati (Dauning strit) rad etdi...*

3. SINEKDOXA (qism va butun munosabati). Bu metonimiyaning bir ko'rinishi bo'lib, unda butun narsa qism nomi bilan yoki aksincha ataladi (miqdoriy o'zgarish).

Misollar:

Qism o'rniga butun: *Besh qo'l barobar emas (barmoq nazarda tutilgan).*

Butun o'rniga qism: *Boqadigan og'zi (bola-chaqa) ko'p.*

Butun va qism yonma-yon keladi: *Odamning oyog'i yetmaydigan joy* (ma'noni kuchaytirib ifodalash uchun qo'llanilgan, muqobili *odam bormaydigan joy*).

Tana a'zolari bilan bog'liq sinekdoxalar turli tillarda farq qiladi.

Asl jumla (EN): *I need a hired hand.*

Xato: *Menga yollanma qo'l kerak.*

To'g'ri: *Menga yordamchi (yoki ishchi) kerak.*

Asl jumla (o'zbek tilida): *Uning qo'li egri.*

Tarjima: *He has a crooked hand* emas, *He is light-fingered* (o'g'ri).

4. Vazifadoshlik (funktional ko'chish). Bu narsalarning shakli emas, bajaradigan vazifasi bir xilligi asosida ko'chishdir. Masalan, *qanot* (qushda), *qanot* (samolyotda), *sichqoncha* (hayvon), (kompyuter qurilmasi).

Tarjima: Bu terminologiyada juda muhim. Yangi texnologiya kirib kelganda tarjimon aynan shu usuldan foydalanib yangi so'z yasaydi.

TALABALAR UCHUN AMALIY JADVAL (HANDOUT)

Ma'no ko'chish turi	Asosi	O'zbek tilida misollar	Tarjimon uchun qoida
Metafora	O'xshashlik	<i>oltin kuz, po'lat ot</i>	Obrazni tarjima qiling, so'zni emas.
Metonimiya	Bog'liqlik	<i>zalda o'tirganlar = zal</i>	Agar madaniyatga yot bo'lsa, izohlang.
Sinekdoxa	Miqdor	<i>tuyoq (qo'y), bosh (odam)</i>	Idiomaning to'g'ri toping

SEMANTIK MAYDON (SEMANTIC FIELD)

Semantik maydon bu umumiy ma’no (integral sema) asosida birlashgan, lekin xususiy ma’nolari (differensial semalar) bilan farqlanuvchi soʻzlar guruhidir.

Tasavvur qiling, bu bir “**Menyu**”.

Menyu bo‘limi: suyuq ovqatlar (bu – *arxisema* yoki maydonning boshi).

Taomlar: *sho‘rva, mastava, ugra* (bular – *giponimlar* yoki maydon a’zolari).

Sizdan mijoz suyuq ovqat so‘radi. Siz aynan qaysi birini (mastava yoki sho‘rva) berishni kontekstdan topishingiz kerak.

SEMANTIK MAYDON TUZILISHI

H.Ne’matov va R.Rasulov soʻzning ma’nosini **SEMA**larga (atomlarga) ajratishni taklif qiladi.

Misol: “**Harakatlanish**” (Movement) maydoni

Soʻz (leksema)	Umumiy sema (Nima qildi?)	farqlovchi sema (qanday/nima bilan?)	tarjimon qachon ishlatadi?
Yurmoq (walk)	Harakat qildi	Piyoda, o‘rtacha tezlikda	Neytral holatda.
Yugurmoq (run)	Harakat qildi	Tez, oyoqda, halloslab	Shoshilinch vaziyatda.
Sudralmoq (Crawl)	Harakat qildi	Qorni bilan, sekin	Xohish-istaksiz.
Jilmoq (Move/Shift)	Harakat qildi	Joyidan ozgina siljish	Og‘ir yuk yoki poyezd haqida.

⚠ **Diqqat, xato:** Ingliz tilidagi *He wandered in the city* gapini *U shaharda sayr qildi* deb tarjima qilish – axborotning 50% ini yo‘qotishdir. To‘g‘risi: *U shaharni kezdi* (sayohat/tomosha uzoq vaqtga ishora).

TARJIMONLAR ADASHADIGAN “ENG XAVFLI MAYDONLAR:

A) qarindoshlik maydoni (kinship terms). O‘zbek tilida bu maydon ingliz tiliga qaraganda ancha keng va aniq. Masalan, ingliz tilidagi qarindoshlik maydonida *brother* (aka yoki uka), *sister* (opa yoki singil), *uncle* (tog‘a yoki amaki).

Tarjima muammosi: “*My uncle said...*”

Yechim: matnni to‘liq o‘qib chiqing. Agar onasining akasi haqida gap ketsa, tog‘a, otasi tomondan bo‘lsa, amaki; agar matnda ishora bo‘lmasa, amaki (neytral variant) olinadi. Lekin hech qachon shunchaki “tog‘a-amaki” deb yozilmaydi.

B) “rang” maydoni (color spectrum). *Blue* o‘zbekchada ikkita maydonga bo‘linadi: ko‘k (blue) va moviy (light blue/cyan). O‘zbek tilida “qora” semantik maydoni faqat rangni emas, balki motam, uyatsizlik, yuzi qora ma’nolarini ham qamrab oladi.

C) “aytish” maydoni (verbs of speaking). Badiiy tarjimada eng muhim maydon.
said (dedi): neytral.

muttered (g‘udranmoq): norozi bo‘lib, past ovozda.

whispered (shivirlamoq): sirli yoki qo‘rquv bilan.

stammered (duduqlanmoq): hayajonlanib.

snapped (o‘shqirmoq): jahli chiqib, qisqa javob berish.

Talabalarga *He snapped at me* jumlasini *U menga dedi* deb emas, *U menga o‘shqirib berdi* deb tarjima qilinadi.

TARJIMON UCHUN “BO‘SH KATAKLAR” (LAKUNALAR)

Ba‘zan tillararo semantik maydonda bir tildagi leksema uchun ikkinchi tilda leksik lakuna, yani bo‘shliq mavjud bo‘lishi mumkin: *salla*, *chopon*, *mahsi*. (Bular kiyim maydonida).

Tarjima usuli: transliteratsiya + izoh (*chopon - a traditional Uzbek coat*).

Misol (inglizchada bor, o‘zbekchada aniq bitta so‘z yo‘q): *Sibling* (Aka-uka yoki opa-singilning umumiy nomi).

Tarjima: O‘zbek tilida “tug‘ishganlar” yoki “aka-ukalar” deb vaziyatga qarab o‘giriladi.

O'zbek tilidagi leksema	Semantik ko'lami	Ingliz tilidagi holati	Tarjima muammosi
<i>Qo'l</i>	Yelkaning barmoq uchigacha bo'lgan to'liq qismi.	Ingliz tilida ikkiga bo'linadi: <i>arm</i> (bilakkacha) va <i>hand</i> (panja).	O'zbek tilidagi "qo'lim og'riyapti" gapi tarjimada aynan qaysi qismiga ishora qilayotganini aniqlashtirishni talab etadi.
<i>Hashar</i>	Jamoa bo'lib, beg'araz yordam berish madaniyati.	Mutlaq ekvivalenti yo'q	"Mutual aid" yoki "Voluntary community work" deb izohli tarjima qilinadi.
<i>Non</i>	Yegulik, muqaddaslik, rizq-ro'z, qasamyod obyekti.	<i>Bread / brot</i> (faqat yegulik va moliyaviy ehtiyoj ma'nosida: <i>breadwinner</i>).	Konnotativ ma'no tarjimada tushib qoladi.

Leksik birliklar semantikasi bevosita sun'iy intellekt (AI) tizimlari va mashina tarjimalari faoliyati bilan bog'liq. O'zbek tili uchun maxsus ishlab chiqilayotgan UzNLTK (Uzbek Natural Language Toolkit) dasturiy majmuasini modellashtirish jarayonida eng katta qiyinchilik polisemiyaning tahlil qilish, ya'ni WSD (Word Sense Disambiguation - So'z ma'nosini matn ichida farqlash) bosqichida yuzaga keladi. Dastur so'zning to'g'ri sememasini tanlashi uchun leksik birliklarning semantik valentligini, ya'ni qaysi so'zlar bilan birikish qobiliyatini matematik algoritimga solish talab etiladi. Siz, tarjimonlar, kelajakda aynan shunday parallel korpuslarning semantik bazasini yaratuvchi asosiy mutaxassislar hisoblanasiz.

✂ AMALIYOT: "SO'Z TAROZISI"

 **Maqsad:** semantik maydondagi so'zlarning darajasini aniqlash: "yaxshi" (good) maydoni. So'zlarni ma'noviy darajalanish tartibida joylashtiring: *ajoyib, tuzuk, zo'r, yaxshi, qoniqarli, mukammal, favqulodda*.

To‘g‘ri zanjir (graduonimiya):

1. **Qoniqarli** (Satisfactory).
2. **Tuzuk** (Decent/Okay).
3. **Yaxshi** (Good).
4. **Ajoyib** (Great/Wonderful).
5. **Zo‘r** (Excellent).
6. **Favqulodda** (Outstanding).
7. **Mukammal** (Perfect).

Tarjimon “great job” ni “qoniqarli ish” deb tarjima qilsa, mijozni xafa qiladi, shu sababdan “ajoyib ish” deb tarjima qilishi shart. Semantik maydonni his qilish bu tarjimonning professional dididir.

Topshiriq: Talabalar guruhlariga bo‘linib, “qaramoq” (look) fe‘lining semantik maydoni (*stare, gaze, glare, peep*)ning o‘zbekcha muqobillari bilan tuzadilar.

5. **Post-assessment (yakuniy baholash)**

 **Maqsad:** olingan bilimlarni tekshirish.

 **Keys. [SLAYD 6: Keys-stadi]** Quyidagi gapdagi noto‘g‘ri tanlangan so‘zni semantik tahlil asosida tuzating:

Asl matn: “*The doctor **gazed** at the patient’s wound.*” Tarjima: “*Doktor bemorning yarasiga **hayrat bilan tikilib qoldi**”.*

Tahlil:

Gaze – hayrat yoki muhabbat bilan uzoq tikilish (romantika/hayrat).

Examine/inspect – tekshirish uchun qarash (professionalizm).

Matn muallifi *Gaze* so‘zini ishlatgan bo‘lsa, demak, bu yerda badiiy ma’no (balki dahshatdan qotib qolish) nazarda tutilgan. Tarjimon kontekstga qarab *ko‘z uzolmay qoldi* yoki *hayrat bilan tikilib qoldini* tanlashi kerak.

6. **Summary (xulosa)**

Maqsad: darsni yakunlash. [SLAYD 7: Oltin Qoida]

Lug‘at sizga so‘zning asosiy “manzili”, denotativ ma’nolarini beradi, semantika esa o‘sha uyning ichki muhiti (konnotatsiya)ni ochib beradi. Tarjimonning vazifasi

shunchaki “manzil”ni topish emas, balki muhitni yaratishdir. Soʻz semantikasini his qilmay turib qilingan tarjima, matnning nafaqat uslubiy qiymatini, balki butun lisoniy mantigʻini yoʻqqa chiqaradi.

Uyga vazifa: Oʻzingiz yoqtirgan biror siyosatchining nutqini oling va undagi “neytral” soʻzlarni “ijobiy” sinonimlar bilan almashtirib, nutq taʼsirini oʻzgartirib koʻring.

“MUZYURAR” JUMBOGʻI

1. Semantik assimetriya.

Savol: Ingliz tilidagi “uncle” soʻzini oʻzbek tiliga tarjima qilishda tarjimon qanday yoʻl tutishi kerak? Tasavvur qiling, asarda *“Uncle Ben gave me money”* deyilgan. Matnda uning onasining ukasimi yoki otasining ukasimi ekanligi haqida hech qanday izoh yoʻq. Siz tarjimon sifatida tavakkal qilib “Togʻa” deysizmi yoki “amaki” deysizmi? Bu kichik detal asar syujetini, masalan, meros masalasini oʻzgartirib yuborishi mumkin-ku?

2. “Konnotatsiya jangi”.

Savol: Aynan bir odamni ingliz matnida **“Spy”** (josus) deb ham, **“Scout”** (razvedkachi) deb ham atash mumkin.

“Josus” — salbiy (dushman).

“Razvedkachi” — ijobiy qahramon. Agar siz siyosiy maqolani tarjima qilayotgan boʻlsangiz va neytral soʻz ishlatilgan boʻlsa, oʻzbek tiliga oʻgirishda qaysi birini tanlaysiz? Tarjimon oʻz tanlovi bilan oʻquvchida nafrat yoki muhabbat uygʻotishga haqlimi?

3. Milliy konseptlar.

Savol: Oʻzbek tilidagi **“andisha”** soʻzini ingliz tiliga qanday tarjima qilasiz? Agar lugʻatdagi *“Shynes”* (uyatchanlik) yoki *“Cowardice”* (qoʻrqoqlik) soʻzlarini ishlatsangiz, oʻzbek yigiti “qoʻrqoq/lattachaynar” boʻlib qoladi. Vaholanki, andisha bu biz uchun fazilat. Xoʻsh, maʼnoni saqlash uchun yangi soʻz toʻqiysizmi, tushuntirish berasizmi yoki maʼnoni qurbon qilasizmi?

QIZIQARLI MA'LUMOTLAR

1. “Pedagog” tarixda aslida kim bo‘lgan?

Biz bugun “Pedagog” so‘zini eng hurmatli kasb egasi “o‘qituvchi, ustoz” ma’nolarida ishlatamiz.

Tarixiy fakt: Qadimgi Yunonistonda “*paidagogos*” (paid — bola, agogos — yetaklovchi) deb qullarga aytilgan.

Vazifasi: Bu qulning yagona ishi boyning bolasini qo‘lidan ushlab maktabga olib borish va olib kelish hamda ko‘chada bezorilik qilmasligini nazorat qilish bo‘lgan. U bolaga ilm o‘rgatmagan, ilm o‘rgatuvchi esa “*didaskalos*” deb atalgan.

Semantik o‘zgarish: Vaqt o‘tishi bilan “bolani yetaklovchi qul” so‘zi ma’no jihatidan yuksalib, “bolaga ta’lim-tarbiya beruvchi shaxs” darajasiga ko‘tarilgan.

2. Ranglar semantikasi: “Ko‘k” osmonmi yoki maysami?

Semantikada “Rang idroki” degan qiziq hodisa bor. Qadimgi turkiy tilda va ko‘plab qadimiy tillarda moviy (blue) va yashil (green) ranglari bitta so‘z bilan atalgan.

Biz hozirgacha o‘zbek tilidagi “ko‘k” so‘zini ikki xil ma’noda ishlatamiz:

1. Moviy: *Ko‘k osmon* (Blue sky).

2. Yashil: *Ko‘k choy* (Green tea), *Ko‘kat* (Greens), *Ko‘kalamzor* (Greenery).

Agar chet ellik o‘zbek tilini o‘rganayotib: “*Nega yashil choyni “Blue tea” (Ko‘k choy) deysizlar, u ko‘k rangda emas-ku?*” desa, bu leksik xato emas, balki tarixiy-semantik xotiradir.

3. Semantik torayish: “Dori” — poroxdan shifogacha.

Hozirgi o‘zbek tilida “dori” deganda faqat dorixonadagi tabletka yoki suyuqlikni tushunamiz.

Tarixiy fakt: Bobur zamonida va undan oldin “dori” so‘zi umumiy ma’noda “kimyoviy aralashma”ni, xususan, “porox” (o‘q-dori)ni anglatgan.

Misol: Tarixiy asarlarda “*To‘pning dorisini tayyorlamoq*” jumlasini uchraydi.

O‘zgarish: Dastlab “o‘ldiradigan modda” (porox) ham dori bo‘lgan, hozir esa faqat “davolaydigan modda” ma’nosida torayib qoldi. Lekin “o‘q-dori” juft so‘zida uning eski ma’nosi saqlanib qolgan.

DARS UCHUN “BLIS-O‘YIN” G‘OYASI

“Gugl nima deydi?” Talabalarga bitta gap bering: *“Uning yuzi qizarib ketdi”*.

1-holat: Uyatdan (Blush).

2-holat: G‘azabdan (Flush).

Xulosa: O‘zbek tilida bir jihatdan “qizarish” so‘zi bor, ingliz tilida esa sababiga ko‘ra ikki xil leksik birlik ishlatiladi. Tarjimon buni bilmasa, xato qiladimi?

GLOSSARIY

1. Adekvatlik – matnning asl nusxadagi barcha ma’no qirralari: hissiy, uslubiy, madaniy jihatlarini maqsadli tilda to‘laqonli, tabiiy va xatosiz qayta yaratish xususiyati.
2. Denotativ ma’no – so‘zning obyektiv borliqdagi narsa va hodisalarni to‘g‘ridan to‘g‘ri ataydigan, betaraf, birlamchi lug‘aviy ma’nosi.
3. Ekvivalentlik – asliyat va tarjima matnlarining lisoniy shakl hamda ma’no jihatidan o‘zaro teng kelishi, mutlaq muqobillik.
4. Konnotativ ma’no – so‘zning asosiy ma’nosiga qo‘shimcha ravishda yuklanadigan emotsional, ekspressiv va uslubiy baholash bo‘yog‘i
5. Kontekst – leksik birlikning aniq bir ma’nosini namoyon qiluvchi va uning semantik cheklovlarini belgilab beruvchi matniy qurshov.
6. Leksema – tilning lug‘aviy ma’no va grammatik shakl tashuvchi, atash vazifasini bajaruvchi mustaqil lisoniy birligi.
7. Leksik lakuna – bir tildagi muayyan kognitiv tushunchaning ikkinchi tilda aynan lisoniy ifodasi mavjud bo‘lmasligi hodisasi.
8. Polisemiya – bitta leksemaning tarixiy taraqqiyot natijasida o‘zaro mantiqan bog‘liq bo‘lgan bir nechta ma’nolarni ifodalay olish xususiyati.
9. Sema – so‘z ma’nosining o‘zidan boshqa mayda qismlarga bo‘linmaydigan eng kichik, elementar zarrasi
10. Semema – leksemaning muayyan bir aniq ma’nosi.
11. Tarjimonning soxta do‘stlari – ikki tilda shaklan yoxud talaffuz jihatidan o‘xshash, biroq semantik ko‘lami va ifodalaydigan ma’nosi butunlay farq qiladigan leksik birliklar.

12. Word Sense Disambiguation (WSD) — kompyuter lingvistikasi va sun'iy intellekt tarjima tizimlarida (NLP) ko'p ma'noli so'zning aniq bir matn ichidagi asl ma'nosini algoritmik usulda, avtomatik aniqlash jarayoni.

Muhokama savollari:

1. Leksik lakuna hodisasini badiiy tarjimada qanday usullar: transkripsiya, izohli tarjima, kalka bilan to'ldirish maqsadga muvofiq?
2. So'zning denotativ va konnotativ ma'nolari o'rtasidagi farq xorijiy tildan o'zbek tiliga qilingan ommabop matnlarda qanday aks etadi?
3. Nima uchun UzNLTK kabi algoritmik vositalar uchun o'zbek tilidagi sinonimlar va polisemantik so'zlar qatori murakkablik tug'diradi?

 Mavzu yuzasidan qo'shimcha mutolaa uchun manbalar:

1. Rahmatullayev Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: Universitet, 2006.
2. Mengliyev B. Hozirgi o'zbek tili. – Toshkent: Tafakkur bo'stoni, 2018. B.110–125.
3. Xolmanova Z.T. Kompyuter lingvistikasi. O'quv qo'llanma. – Toshkent, 2020. – 199 b.
4. Cruse D.A. Meaning in Language: An Introduction to Semantics and Pragmatics. 3rd ed. – Oxford: Oxford University Press, 2011. – 512 p.
5. Baker M. In Other Words: A Coursebook on Translation. 3rd Edition. – London/New York: Routledge, 2018. – 390 p.
6. Jurafsky D., Martin J.H. Speech and Language Processing (An Introduction to Natural Language Processing, Computational Linguistics, and Speech Recognition). 3rd ed. draft. – Stanford University, 2023.

5-MA'RUZA. TIL BIRLIKLARINING SHAKL VA MA'NO MUNOSABATIGA KO'RA TURLARI (OMONIM, SINONIM, ANTONIM, PARONIM).

 **Maqsad:** talabalarda o'zbek tilidagi shakldosh, ma'nodosh va o'xshash so'zlarni ingliz tiliga tarjima qilishda muqobillik, uslubiy bo'yoq va kontekstual aniqlikni ta'minlash ko'nikmasini shakllantirish.

1 Bridge-in (kirish/qiziqtirish)

Maqsad: mavzuga qiziqish uyg'otish va shakl aldovchi ekanligini izohlash.

[SLAYD 1: Vizual jumboq]

Tasvir: Ekranda katta qilib "O'T" so'zi yozilgan.

O'qituvchi savoli: Qadrli bo'lajak tarjimonlar, agar matnda faqat shu so'z kelsa, uni ingliz tiliga qanday tarjima qilasiz?

Talabalar javoblari: "*grass*" (o'simlik), "*fire*" (olov), "*pass*" (o'tmoq buyrug'i), "*gallbladder*" (o't pufagi).

2. Objective (maqsadni belgilash).

Maqsad: dars natijalarini e'lon qilish.

[SLAYD 2: Darsning 4 ustuni]

Dars so'ngida siz:

1.  **Omonimlar:** "Egizak" so'zlarni kontekst orqali ajratishni;
2.  **Sinonimlar:** Eng mos so'zni tanlashni;
3.  **Antonimlar:** Ziddiyatni to'g'ri ifodalashni;
4.  **Paronimlar:** Talaffuzi o'xshash so'zlarni farqlashni o'rganasiz.

3. Pre-assessment (dastlabki baholash).

[SLAYD 3: "Soxta do'stlar" testi] Talabalarga quyidagi so'z juftliklarining farqini tushuntirib berish va inglizcha muqobilini topish vazifasi beriladi:

1. *Asr* (century/epoch) — *asr* (afternoon prayer).
2. *Siyrat* (inner world/nature) — *surat* (picture/photo).

Muammo: Badiiy matnda *Uning surati go'zal, ammo siyrati xunuk* deyilsa, qanday o'giriladi?

3. *Chang (dust) — chang (musical instrument).*

Muammo: Omonimlik.

4. Participatory learning (faol ta'lim).

A) OMONIMLAR (SHAKLDOSHLAR). **Leksik omonimlar** – denotativ asosi, ya'ni anglatgan predmeti turlicha bo'lgan, biroq lisoniy ifodasi, shakli aynan bir xil leksemalardir. Turli nominativ ma'nolarni ifodalovchi bunday shakldosh birliklar tilshunoslikda omoleksemalar deb yuritiladi.

Masalan: Ko'k omoleksemasi uch xil denotatni ifodalaydi: 1) osmon; 2) rang; 3) ko'kat (o'simlik).

Omoleksemalarning hosil bo'lish manbalari:

Fonetik konvergeniya: Aslida talaffuzi turlicha bo'lgan so'zlarning tarixiy taraqqiyot natijasida bir xil shaklga kelib qolishi.

Misol: **O't** (tana a'zosi) va **o't** (o'simlik).

Semantik differentsiatsiya (polisemiyaning parchalanishi): Ko'p ma'noli so'z ma'nolari orasidagi semantik aloqaning uzilishi natijasida.

Misol: **Gap** (muloqot birligi) va **gap** (ziyofat).

O'zlashma so'zlar hisobiga: Boshqa tildan kirib kelgan so'zning mahalliy so'z bilan shakldosh bo'lib qolishi.

Misol: **Bog'** (daraxtzor – fors-tojikcha) va **bog'** (bog'lam, o'ram – turkiy).

[ Olov] <--- (Ma'no 1)

^

|

[O'T] (Shakl bitta)

|

v

[ Maysa] <--- (Ma'no 2)

Omograflar shakldoshlikning yozuvdagi ko'rinishi bo'lib, bunda so'zlarning grafik shakli bir xil, ammo talaffuzi, urg'usi yoki tovush tarkibi har xil bo'ladi.

Misol: **tom** (binoning ustki qismi) – **tom** (kitob jildi; talaffuzi: *to'm*).

Izoh: Omograflarni farqlash, ayniqsa, sinxron tarjimonlar va matnni ovozlashtiruvchilar uchun muhim ahamiyat kasb etadi; yozma tarjimada esa ma’no kontekst orqali aniqlanadi.

So‘z	Talaffuzda urg‘u oxirida	Talaffuzda urg‘u o‘rtada/boshida	Tarjima farqi
<i>Yangi</i>	yangí (ravish - newly)	yángi (sifat - new)	<i>Yangí keldi</i> (Just arrived). <i>Yángi bino</i> (New building).
<i>Olma</i>	olmá (mevalar qiroli)	ólma (inkor fe‘l)	<i>Apple. Don't take.</i>
<i>Hozir</i>	hozír (payt ravishi - now)	hózir (tayyor - ready)	<i>Hozir kelaman. Ovqat hozir.</i>
<i>Tok</i>	tók (elektr)	tok (uzum toki)	<i>Electricity. Grapevine.</i>

💡 **Eslatma!** Omonimni hech qachon alohida so‘z sifatida tarjima qilmang. Faqat so‘z birikmasi ichida ko‘ring.

Misol:

tut (daraxt) — mulberry.

tut (tutun) – smoke.

tut (ushla) – catch/hold.

Tarjimon matnni tez o‘qiganda, miya so‘zning eng birinchi, tanish ma’nosini qabul qiladi.

VIZUAL TAQQOSLASH: “Daraxt” va “Egizaklar”

Ko‘p ma’nolilik (polisemiya) va omonimiyani farqlash – talabalarning eng og‘riqli nuqtasi. Buni rasm orqali tushuntirish eng samarali yo‘l sanaladi.

Polisemiya (ko‘pma’nolilik) bu DARAXT.

Bitta ildiz, o‘zak ma’no bor, shoxlar, ya’ni ko‘chma ma’nolar undan tarqaladi.

Misol: **Ko‘z** (odamniki): Buloqning ko‘zi (shakl o‘xshashligi); uzukning ko‘zi. Hammasida “yumaloq, asosiy qism” degan umumiy *ildiz* bor.

Omonim – bu NOTANISH EGIZAKLAR.

Ular tasodifan bir xil kiyinib qolgan ikki xil odam. Ularning o'rtasida qon-qarindoshlik, ya'ni ma'no bog'liqligi yo'q. Masalan, *yoz (fasl)* va *yoz (harakat)*. Fasllar bilan yozishning nima aloqasi bor? Hech qanday. Demak, bu omonim.

B) SINONIMLAR (MA'NODOSHLAR) – “BO'YOQLAR JILOSI”. Shakli har xil, ma'nosi yaqin so'zlardir, ammo ular 100% bir xil emas! Sinonimik paradigma (qator) tarkibiga kiruvchi barcha lug'aviy birliklar yagona denotativ asosga ega bo'lishi bilan tavsiflanadi, ya'ni shaklan turlicha bo'lgan leksemalar obyektiv borliqning aynan bir narsa-buyumi, hodisasi va tushunchasini ifodalashga xizmat qiladi.

Ushbu qonuniyatni quyidagi misollar tahlilida ko'rish mumkin:

Denotat: “yashash makoni”. *uy – bino – kulba* leksemalari aynan shu umumiy semantik denotat atrofida birlashadi.

Denotat “nolisoniy (ekstralingvistik) obyekt”. *ko'k – osmon – fazo* sinonimik qatoridagi birliklar “yer sharini o'rab turgan makon” tushunchasini ifodalaydi.

Funksional umumiylik. *Ko'cha – yo'l* hamda *bosh – kalla* juftliklarida ham so'zlar anglatgan obyekt va uning funksiyasi bitta umumiy denotatga asoslangan.

Xulosa qilib aytganda, sinonimik qator a'zolari o'rtasidagi munosabat bir xil denotat va turlicha lisoniy shakl tamoyiliga quriladi.

Leksik sinonimiyaga asoslangan ma'nodosh muqobillarning iste'molida asosan uch jihat nazarda tutiladi:

- 1) ma'no jihati (ideografik sinonimlar);
- 2) uslubiy bo'yog'i (uslubiy sinonimlar);
- 3) nutqda ishlatilishi (nutqiy sinonimlar).

Ideografik sinonimlar umumiy ma'nosi bir xil bo'lsa-da, ma'no kuchliligi yoki nozik bo'yog'i bilan o'zaro farq qiluvchi so'zlardir. Misol: *kerak* va *shart*. Har ikkisi zaruratni bildiradi, lekin *shart* so'zi *kerak*ga nisbatan kuchliroq va qat'iyroq talabni anglatadi. “*O'qish shunchaki kerak emas, balki shart*” deyilganda, bu ishning o'ta muhimligi nazarda tutiladi.

Uslubiy sinonimlar ma'nosi bir xil bo'lsa-da, hissiy-uslubiy bo'yog'i bilan farq qiluvchi so'zlardir. Sinonimik qatorda odatda bitta **neytral** (betaraf) so'z bo'lib, qolganlari unga nisbatan ijobiy yoki salbiy bo'yoqqa ega bo'ladi.

Masalan, **hissiy bo'yog'iga ko'ra:**

Neytral: *yuz* (me'yoriy holat).

Ijobiy: *chehra* (yoqimli, chiroyli).

Salbiy: *bashara, turq* (salbiy).

Qo'llanish doirasiga ko'ra ayrim so'zlar asosan kitobiy uslubda ishlatiladi.

Masalan, **nur** — umumiy so'z, ammo **ziyo, yog'du, shu'la** — ko'proq badiiy va kitobiy so'zlardir.

So'z tanlashda uning nafaqat ma'nosiga, balki ijobiy yoki salbiy bahosiga ham qarash shart, aks holda nutq g'aliz chiqadi.

Sinonimik qator a'zolari nutqning qaysi vazifaviy uslubiga, funksional stilistikaga xoslanishiga ko'ra ham farqlanadi. Bu tasnif asosida nutqiy sinonimlar guruhi ajratiladi.

Masalan:

chiroyli – uslubiy betaraf, barcha uslublarda faol;

ko'hlik – asosan so'zlashuv uslubiga xos;

go'zal, zebo, barno – badiiy va poetik uslubga ixtisoslashgan.

Dominanta (bosh so'z). Sinonimik paradigma (qator) markazida barcha lisoniy imkoniyatlarni o'zida jamlagan tayanch birlik **dominanta** turadi. Dominanta quyidagi uch xususiyatga ega:

Semantik umumiylik: qatordagi boshqa so'zlar ma'nosini qamrab oladi.

Uslubiy betaraflik: hissiy-emotsional bo'yoqqa ega emas.

Cheklovsiz qo'llanish: nutqning barcha uslublarida erkin ishlatiladi.

Misol: *yuz, bet, aft, bashara, chehra* qatorida **yuz** leksemasi dominantadir.

Sinonimlarning valentligi (birikuvchanligi) Sinonimlar so'z qo'llash leksik valentlik doirasiga ko'ra ham farqlanadi. *Masalan:* *Mo'ysafid, oqsoqol, keksa* leksemalari faqat shaxsga nisbatan qo'llaniladi. *Qari* leksemasi esa universal bo'lib, ham shaxsga (ko'pincha salbiy bo'yoq bilan), ham hayvonlarga nisbatan ishlatilishi mumkin: *qari ot, qari sigir*.

Mutlaq sinonimlar (leksik dubletlar) – denotativ ma'nosi, uslubiy bo'yog'i va barcha funksional uslublardagi qo'llanish qiymati to'liq mos keluvchi leksemalardir.

Bunday sinonimik qatorlar odatda binar, ya'ni ikki a'zoli strukturaga ega bo'ladi. Misollar: *shakl – forma, g'oya – ideya, talaba – student, universitet – doriifunun*.

Dubletlarning tildagi o'rni va dinamikasi. Mutlaq sinonimiya til taraqqiyoti uchun barqaror hodisa emas. Tilning tejamkorlik tamoyiliga ko'ra, vaqt o'tishi bilan dubletlardan biri faol iste'molga kirib, ikkinchisini siqib chiqaradi.

Ekstralingvistik omillar. Dubletlar "raqobati"da qaysi so'zning faol bo'lishi ijtimoiy-siyosiy omillarga bog'liq. *Masalan:* sho'rolar davrida *oblast, rayon, injener* kabi internatsional o'zlashmalar faol bo'lgan bo'lsa, hozirgi kunda milliy muqobillar (*viloyat, tuman, muhandis*) ustuvorlik kasb etmoqda.

Lisoniy mohiyati. Mutlaq sinonimlar shakl va mazmun assimetriyasi (nomutanosibli)ning paradigmatic ko'rinishidir. Bunda shakliy birliklar miqdori (ikkita so'z) ma'noviy birlik miqdoriga (bitta tushuncha) nisbatan ortiqlik qiladi, bu esa til tizimida "ortiqchalik" sifatida baholanib, tarixiy jarayonda bartaraf etiladi.

C) OHANGDOSH BIRLIKLAR: OMOFON VA PARONIMLAR

Ohangdoshlik (fonetik o'xshashlik) asosida shakllanuvchi lug'aviy-mazmuniy birliklar ikki turga bo'linadi:

Omononlar (talaffuzdoshlar). Yozma shakli va fonetik tarkibi turlicha bo'lgan, biroq talaffuzi bir xil eshitiladigan so'zlardir. Shakl va mazmun to'liq farqlanadi, faqat akustik jihatdan o'xshash bo'ladi. Misollar: *sud* (mahkama) – *sut* (ichimlik); *yod* (xotira) – *yot* (begona); *bop* (mos) – *bob* (qism).

Paronimlar (yaqin so'zlar). Tovush tarkibi va talaffuzi jihatidan qisman o'xshash, ammo ma'nosi va qo'llanishi butunlay farq qiluvchi lug'aviy birliklardir. Misollar: *teri – tire, asr – asir, surat – sur'at, diplomat – diplomant*.

Paronimik paradigmalar tasnifi:

Miqdoriy tuzilishi: Asosan binar (ikki a'zoli: *azm – azim*), kam hollarda ternar (uch a'zoli: *etmoq – eltmok – yetmoq*) bo'ladi.

Etimologik asosi:

1. Sof o'zbekcha: *yonilg'i – yoqilg'i*.
2. O'zbekcha va o'zlashma: *to'n (kiyim) — ton (ohang)*
3. O'zlashma so'zlar doirasida: *ferma – firma*.

Farqlash (Differensiatsiya): Paronimlar dubletlardan tubdan farq qiladi:

Paronimlar turli denotativ (atash) ma'noga ega mustaqil so'zlar: *shuvoq* – o'simlik, *suvoq* – qurilish jarayoni. Dubletlar ayni bir denotativ ma'noni ifodalovchi so'zning fonetik variantlaridir: *kaptar* = *kabutar*, *arava* = *aroba*.

Paronimlar nutqda emotsional-ekspressiv vosita, ya'ni so'z o'yini sifatida xizmat qilishi mumkin, biroq ularni farqlamaslik uslubiy va mantiqiy xatolarga sabab bo'ladi.

D) ANTONIMLAR (ZID MA'NOLILAR)

Leksik antonimiya – nominativ ma'nolari o'zaro zid, mantiqiy jihatdan bir-birini inkor etuvchi va assotsiativ bog'langan leksemalar munosabatidir. Bunday munosabatga kirishuvchi birliklar antonimik paradigmani hosil qiladi: *katta* – *kichik*, *yaxshi* – *yomon*.

Antonimiyaning asosiy belgi va shartlari. Antonimik munosabat yuzaga kelishi uchun quyidagi lisoniy-mantiqiy shartlar talab etiladi:

Leksik mustaqillik. Ikkita har xil o'zakdan iborat mustaqil so'z bo'lishi, ya'ni fe'lning bo'lishli-bo'lishsiz shakllari, ya'ni *keldi-kelmadi* fe'llari leksik antonim hisoblanmaydi.

Mantiqiy inkor. Ma'nolar bir-birini istisno qilishi va yangi denotativ asosga ega bo'lishi shart.

Assotsiativlik: Ziddiyat inson ongida barqaror juftlik sifatida shakllangan bo'lishi lozim.

Antonim hisoblanmaydigan holatlar:

Grammatik inkor: *Yozdi* – *yozmadi* (bu fe'lning shakliy o'zgarishi, ma'noviy ziddiyat emas).

Kontekstual ziddiyat: *Aka* – *uka*, *opa* – *singil* kabi qarindoshlik atamaları yoki *oltin* – *mis* kabi so'zlar o'zaro mantiqiy inkorga ega bo'lmagani bois, leksik antonim sanalmaydi (ular ekvonimlar yoki konversivlardir).

[TUN ●] <-----|-----> [KUN ☀]
(Inkor) (Markaz) (Inkor)

Antonimlar tuzilishiga ko'ra:

Tub antonimlar: Turli o'zaklardan iborat (*kun* – *tun*, *og'ir* – *yengil*).

Yasama (o‘zakdosh) antonimlar: Bir o‘zakka zid ma’noli affikslar qo‘shilishi orqali yasaladi (*suvli – suvsiz, aqlsiz – aqlli*).

So‘z turkumiga ko‘ra:

Eng faol: **sifat** (*issiq – sovuq*) va **ravish** (*tez – sekin*).

Kamroq faol: **ot** (*urush – tinchlik*) va **fe‘l** (*kirmoq – chiqmoq*).

Izoh: Son, olmosh va modal so‘zlarda antonimiya mavjud emas.

Lisoniy ahamiyati: Antonimlar tilshunoslikda **graduonomiya** (ma’no darajalanishi) uchun zamin yaratadi hamda nutqda **oksyumoron** (zid ma’noli so‘zlarning birikib, yangi tasviriy ma’no hosil qilishi: *tirik murda, shirin azob*) kabi stilistik vositalarni yuzaga keltirishga xizmat qiladi.

Enantiosemiya – antonimiyaga yondosh hodisa bo‘lib, unda ayni bir lug‘aviy birlikning semantik tuzilishida o‘zaro zid, qarama-qarshi ikki ma’no vujudga keladi. Boshqacha aytganda, so‘z o‘z-o‘ziga antonim bo‘ladi.

Enantiosemik birliklar quyidagi turkumlarda namoyon bo‘ladi:

Sifatlarda enantiosemiya:

Yomon: Odatda “yaxshi” so‘zining antonimidir. Lekin jonli nutqda, ko‘tarinki urg‘u bilan aytilganda ijobiy ma’noni kuchaytirish, bo‘rttirish uchun xizmat qiladi. *Misol: “Kitob yomon (juda) qiziqarli yozilgan”.*

Bebaho: ikki xil zid semaga ega: 1) bahosi yo‘q (arzon, qiymatsiz); 2) baholab bo‘lmaydigan darajada qimmat (nodir). *Misol: “Boshlig‘imiz bebaho odam” (ijobiy ma’noda).*

Fe‘llarda enantiosemiya:

Yonmoq: “Yorug‘lik tarqatish” va uning aksi “so‘nish” ma’nosini bildiradi.

Misol A: Chiroq **yondi** (yorishdi).


Misol B: Lampochka **yonib ketdi** (kuyib qoldi, o‘chdi).

Chiqmoq: Bir vaqtning o‘zida jarayonning “boshlanishi” va “tugashi”ni anglatadi. *Misol: Ishga chiqdi* (boshladi) – Ishdan **chiqdi** (tugatdi/bo‘shadi).

Frazeologizmlarda enantiosemiya: *oyog‘ingni qo‘lingga ol* – mantiqan oyoqni qo‘lga olish harakatni to‘xtatishi kerak, ammo ibora sifatida bu “harakatning intensiv tezlashishi” (yugurish)ni anglatadi.

Lisoniy mohiyati: Enantiosemiya – bu nutqiy-pragmatik hodisadir. Bu jarayonda vujudga kelgan zid ma’nolar har doim ham izohli lug’atlarda qayd etilmaydi, balki nutq vaziyati (kontekst) va intonatsiya orqali aniqlanadi. Ushbu hodisa tilning leksik va frazeologik qatlamini boyitishga xizmat qiladi.

“YONMOQ” fe’lining enantiosemetik tabiati.



Sun’iy intellekt tizimlari tarjima jarayonida so‘zlar orasidagi shakl va ma’no munosabatlarini farqlashi uchun o‘zbek tilida WSD (Word Sense Disambiguation) dasturi yaratilishi lozim. Mazkur dastur omonimlarni farqlashi uchun unga minglab gaplar korpusi kiritiladi. Masalan, dastur *Qo‘y qochib ketdi* gapidagi *qo‘y* so‘zining yonida fe’l kelsa, uni hayvon, ya’ni ot so‘z turkumiga xos so‘z deb tushunishiga o‘rgatiladi.

Sun’iy intellekt tizimlari ingliz tilidagi matnni tarjima qilayotganda uslubni saqlash uchun WordNet kabi elektron sinonimlar lug’atidan foydalanadi. O‘zbek tili uchun bunday sinonimik qatorlarni matematik modellashtirish kelajak lingvist-tarjimonlarining eng asosiy vazifasidir.

5. 📄 Post-assessment (yakuniy baholash).

⚠️ **Diqqat, xató!** Quyidagi matndagi xatolarni toping va qaysi turga oidligini ayting:

a) *Qizning basharasi chiroyli edi.*

Ushbu gapda, *bashara* soʻzi salbiy boʻyoqdor soʻz boʻlganligi uchun gapga mos kelmagan.

b) *U suluvgina yigit ekan.*

Bu yerda esa *suluv* sifati qiz bolaga nisbatan qoʻllaniladi.

6. 🎓 Summary (xulosa).

Maqsad: darsni yakunlash.

[SLAYD 6: Xulosa]

Tarjimon – bu shunday zargarki:

omonimlar ichidan toʻgʻri “tosh”ni tanlaydi;

sinonimlar yordamida unga “jilo” beradi;

paronimlar nomli “soxta toshlar”dan ehtiyot boʻladi.

Uyga vazifa:

Dars oxirida talabalar uyda **“Soʻzlar xaritasi”ni** chizib kelish topshiriladi. Unda bitta soʻz markazda boʻlib, uning sinonimlari, antonimlari va iboralari tarmoq shaklida yoziladi.

MUSTAQIL TA'LIM: TALABALAR UCHUN INNOVATSION-AMALIY TOPSHIRIQ

Nazariy bilimlarni NLP va mashina tarjimasi muhitida sinab koʻramiz. “Paronimik tuzoq” (Error Analysis) topshirigʻi:

1. Oʻzbek tilidan 5 ta murakkab paronim juftligini toping.
2. Ularni ishtirok ettirib ikkitadan gap tuzing.
3. Gaplarni Google Translate va Yandex Translate orqali ingliz yoki nemis tiliga oʻgiring.

4. Sun'iy intellekt qaysi paronimda chalg'iganini, ya'ni xato tarjima qilganini aniqlang va uni insoniy, adekvat tarjima bilan to'g'rilab, izohli kichik maqola (esse) yozing.

“MUZYURAR” SAVOLLARI

1. Sinonimlar: (Ideologik tanlov)

Savol: Tasavvur qiling, bir guruh qurolli shaxslar hukumatga qarshi chiqdi. Xorijiy OAV ularni “Freedom Fighters” (Ozodlik kurashchilari) deb atadi. Mahalliy rasmiy OAV esa ularni “Terrorists” (Terrorchilar) yoki “Rebels” (Isyonchilar) deb yozdi. Muammo shundaki, aslida voqea bitta, shaxslar o'sha-o'sha. Lekin tanlangan sinonim (“Kurashchi” yoki “Terrorchi”) o'quvchining butun fikrini o'zgartirib yuboradi. Siz tarjimon sifatida neytrallikni saqlash uchun qaysi sinonimni tanlaysiz? Yoki buyurtmachining siyosatiga moslashasizmi?

2. Omonimlar. (Sintaktik tuzoq)

Savol: Matnda quyidagi gap keldi: “*Uning otishiga sabab bo'ldi*”. Bu gapni tarjima qilishda tarjimon qaysi “OT” omonimini tanlashi kerak?

Variant A: Ot (Hayvon) — Uning oti (tulpori) sabab bo'ldi.

Variant B: Otmoq (O'q uzmoq) — Uning o'q uzishi sabab bo'ldi.

Variant C: Otmoq (Tashlamoq) — Uning (narsani) irg'itishi sabab bo'ldi.

Topshiriq: Agar matnda oldingi gap bo'lmasa, bu omonimlikni qanday yecha olasiz? Google Translate bu yerda “Horse” deb tarjima qiladimi yoki “Shooting”?

3. PARONIMLAR: (Bir harf — bir olam)

Savol: Ko'p jurnalistlar va blogerlar “**Ahil**” va “**Ahl**” so'zlarini adashtiradi.

A) Mahalla **ahili** yig'ildi (To'g'rimi?)

B) Bu oila juda **ahl** (To'g'rimi?) Aslida **Ahl** — kishilar/xalq (mahalla ahli). **Ahil** — inoq/do'stona (ahil oila). **Kazus:** Agar xorijiy yuridik hujjatda “**Statut**” (Nizom) o'rniga “**Status**” (Maqom) deb yozib yuborsangiz, tashkilotning huquqiy shakli o'zgarib ketadimi? Bu shunchaki texnik xatomi yoki hujjatni soxtalashtirishmi?

Nazorat va muhokama savollari

1. Omonim va polisemantik soʻzlarning chegarasini tarjimada qanday aniqlash mumkin?
2. Nima uchun absolyut sinonimlar tilda uzoq yashay olmaydi va ularning tarjimadagi oʻrni qanday?
3. Antonimik tarjima usuli deganda nima tushuniladi?
4. Paronimlar keltirib chiqaradigan uslubiy xatoliklarni matn tahririda aniqlash uchun kompyuterga qanday algoritm kiritish kerak deb oʻylaysiz?
5. Tarjimada oʻzbek tilining sinonimik boyligi aslyat matn taʼsirchanligini qanday qilib oshirib yuborishi mumkin?
6. Oʻzbek tilida WSD (Soʻz maʼnosini matnda farqlash) modelini omonimlar asosida yaratishning qanday lisoniy muammolari mavjud?
7. UzNLTK loyihasi doirasida oʻzbek tilining sinonimlar bazasini (WordNet) yaratish boʻlajak tarjimonlarga qanday amaliy foyda beradi?
8. Kontekstning paronimlarni farqlashdagi ishtirokini aniq misollar bilan tushuntirib bering.

Glossariy

Absolyut sinonimlar — maʼno koʻlami, uslubiy boʻyogʻi va qoʻllanish doirasi jihatidan toʻliq mos keladigan soʻzlar.

Antonimik tarjima — matndagi biror soʻzni oʻz muqobili bilan emas, balki uning antonimi yordamida adekvat oʻgirish usuli.

Ideografik sinonimlar — ifodalayotgan maʼno qirrasini va darajasi bilan bir-biridan farq qiladigan soʻzlar.

Omonim — talaffuzi va yozilishi bir xil, lekin lugʻaviy maʼnolari oʻrtasida hech qanday mantiqiy bogʻliqlik boʻlmagan soʻzlar.

Paronim — aytilishi va yozilishi bir-biriga yaqin, lekin maʼnolari butunlay farq qiladigan, aksariyat hollarda imlo xatoligini keltirib chiqaruvchi soʻzlar.

Sinset (sinonimlar to‘plami) — kompyuter lingvistikasida muayyan bir tushunchani ifodalovchi ma’nodosh so‘zlarning mashina o‘qiy oladigan elektron klasteri.

 Mavzu yuzasidan qo‘shimcha mutolaa uchun manbalar:

1. Mengliyev B. Hozirgi o‘zbek tili. Darslik. – Toshkent: Tafakkur bo‘stoni, 2018. – 416 b.
2. Baker M. In Other Words: A Coursebook on Translation. 3rd Edition. – London: Routledge, 2018. – 390 p.
3. Jurafsky D., Martin J.H. Speech and Language Processing. 3rd ed. draft. – Stanford University, 2023.
4. Rahimov A. Kompyuter lingvistikasi asoslari. O‘zR Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi, Andijon davlat universitet - T.: Akademnashr, 2011. - 160 b.
5. Abuzalova M.Q. O‘zbek tili ontologiyasi: yaratish texnologiyasi va konsepsiyasi. Monografiya. – Toshkent: Nodirabegim, 2021. – 216 b.
6. Xudjaeva R. O‘zbek va ingliz tillaridagi omonimlarning chog‘ishtirma tadqiqi. Monografiya. – Toshkent: Osiya tur, 2024. – 176 bet.
7. Raxmatullayev Sh. Omonimlarning izohli lug‘ati. – Toshkent: O‘qituvchi, 1984. – 214 b.
8. N.Mahmudov va b. O‘zbek tili sinonimlarining izohli lug‘ati: / N.Mahmudov tahriri ostida. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2023. – 512 bet.
9. Одилов Ё. Ўзбек тилида энантиосемия. Филол. фан ...докторлик дисс. – Т., 2016. –101 б.
10. <https://uzschoolcorpara.uz/#home>

6-MA'RUZA: SEMANTIK MAYDON. LEKSIK-SEMANTIK MUNOSABAT TURLARI (giponimiya, meronimiya, graduonimiya)

 **Maqsad:** talabalarda tilning tizimli qurilishini anglash, soʻzlarni guruhlash tamoyillarini oʻrganish va tarjimada “boʻshliqlar” (lakuna)ni toʻldirish koʻnikmasini shakllantirish.

1 Bridge-in (kirish). [SLAYD 1: Supermarket]

Oʻqituvchi: Tasavvur qiling, siz supermarketga kirdingiz. Non boʻlimidan kir yuvish kukunini, goʻsht boʻlimidan esa shokoladni qidirasizmi? Yoʻq, chunki hamma narsa maxsus boʻlinmalarga ajratilgan. Tilda ham xuddi shunday: soʻzlar miyamizda sochilib yotmaydi, ular semantik maydonlarda joylashgan boʻladi.

2. **Objective (maqsad).** Ushbu mashgʻulot soʻngida siz:

bilim (nazariya)da:

tilshunoslikdagi “semantik maydon” tushunchasining mohiyatini tushunasiz;
giponimiya (tur-jins), meronimiya (butun-boʻlak) va graduonimiya (darajalanish) tushunchalarining aniq farqini bilib olasiz.

koʻnikma (tahlil)da:

matn ichidagi soʻzlarni shunchaki maʼnodosh (sinonim) deb emas, balki pogʻonaviy (iyerarxik) bogʻliqlikda tahlil qila olasiz;

qaysi soʻz umumiy va qaysi biri xususiy ekanligini ajrata olasizʻ

malaka (amaliyot/tarjima)da:

tarjima jarayonida umumiylashtirish (xususiy soʻzni umumiy soʻz bilan almashtirish) va aniqlashtirish (umumiy soʻzni xususiysi bilan almashtirish) strategiyalarini toʻgʻri qoʻllashni oʻrganasiz: ingliz tilidagi “thumb” (bosh barmoq) soʻzini oʻzbekchaga shunchaki “barmoq” (giperonim) yoki “bosh barmoq” (giponim) deb oʻgʻirishdagi farqni tahlil qilasiz.

3. **Pre-assessment (dastlabki baholash).**

(Talabanning hozirgi bilimini tekshirish)

2-topshiriq. “Ortiqchasini top” (mantiqiy test).

Quyidagi qatorlardan qaysi biri **giponimiya** (umumiylik va xususiylik) qonuniyatiga bo'ysunmaydi?

- a) kiyim – ko'ylak – yeng.
- b) o'simlik – daraxt – chinor.
- c) mebel – stol – parta.

To'g'ri javob: A variant.

Sababi: kiyim – ko'ylak (bu tur-jins/giponimiya), lekin ko'ylak – yeng (bu butun-bo'lak/meronimiya). mantiqiy zanjir buzildi.

B varianti giponimiya jihatidan to'g'ri: o'simlik (jins) – daraxt (tur) – chinor (turosti), shu sabab bu giponimik zanjir sanaladi.

4. ❀ Participatory learning (faol ta'lim).

Semantik maydon tushunchasi. Semantik maydon bu umumiy ma'no (integral sema) asosida birlashgan, lekin xususiy ma'no (differensial sema)lari bilan farqlanuvchi so'zlar guruhidir.

Semantik maydon strukturasi quyidagicha:

Semantik yadro (arxisema): maydonning nomi bu umumiy so'z.

Markaz: Eng faol ishlatiladigan so'zlar.

Qurshov (periferiya): Kam qo'llaniladigan, eskirgan yoki tor ma'noli so'zlar.

Misol: harakatlanish (movement) maydoni:

Arxisema: *harakat qilmoq (to move).*

Markaz: *yurmoq, yugurmoq, ketmoq.*

Qurshov (periferiya): *sudralmoq, o'rmalamoq, jilmoq, tuyog'ini shiqillatmoq.*

3. Leksik-semantik munosabat turlari. Semantik maydon ichidagi so'zlar bir-biri bilan shunchaki qo'shni emas, ular qat'iy iyerarxik (pog'onali) munosabatda bo'ladi.

A) GIPONIMIYA (jins-tur munosabati) leksik-semantik iyerarxiyada **jins** (umumiy) va **tur** (xususiy) tushunchalarini ifodalovchi birliklar o'rtasidagi tobelik munosabatidir. Ushbu munosabat ikki asosiy unsurdan tashkil topadi:

Giperonim (jins) ma'no ko'lamiga keng, mavhum va umumlashtiruvchi xususiyatga ega bo'lgan hukmron so'z. U semantik maydonning dominantasi hisoblanadi.

Giponim (tur) giperonimga semantik jihatdan tobe bo'lgan, aniq denotativ ma'nosiga ega bo'lgan so'z.

Giponimik paradigma. Bir giperonim atrofida birlashgan barcha giponimlar giponimik paradigmani hosil qiladi va ular o'zaro giponimdoslar (kogiponimlar) lotincha “*co-*” (birgalikda, ham-) + “*hyponym*” (tobe so'z) deb yuritiladi.

Lisoniy xususiyati. Giperonim va giponim o'rtasida ajralmas dialektik bog'liqlik mavjud: jins tushunchasiz turni, tur tushunchasiz jinsni tasavvur qilib bo'lmaydi.

Formula: “A — bu B ning bir turi”. (Type of).

Giperonim (Hypernym): Jins nomi (umumiy so'z). Masalan: *gul*.

Giponim (Hyponym): Tur nomi (xususiy so'z). Masalan: *atirgul, lola, boychechak*.

Misollar tahlili:

1-paradigma (buyumlar):

Giperonim: mebel (umumiy tushuncha).

Giponimlar: stol, stul, shkaf, divan (aniq turlar).

2-paradigma (hayvonot):

Giperonim: qoramol (jins).

Giponimlar: sigir, buqa, ho'kiz, buzoq (yoshi va jinsiga ko'ra aniq turlar).

Troponim (yunoncha tropos – “usul, tarz”) bu fe'llarga xos bo'lgan giperonim-giponim (tur-jins) munosabatidir. Sodda qilib aytganda, troponim harakatning qanday bajarilishini bir so'z bilan ifodalashdir. Tarjimonlar uchun bu nima uchun kerakligini quyidagi 3 sabab bilan isbotlash mumkin:

“FE'L + RAVISH” konstruksiyasidan qochish uchun. Tarjimonlarning eng katta “kasalligi” shuki, tarjimada aniq fe'lni topa olmay, umumiy fe'lga sifat yoki ravish qo'shib qo'ya qolishidir. Bu matn mazmuniga salbiy ta'sir etadi. Masalan, ingliz tilida *He gobbled the burger* jumlasini *U burgerni tez yedi* (Eat + Fast) deb xato tarjima

qilsihadi. Bunda tarjimon aslida *tez yedi* birikmasi o‘rniga *yemoq* fe’lining troponimini keltirishi kerak: *U burgerni paqqos tushirdi.*

Fe’larda giponim va troponim munosabati

Giperonim (umumiy fe’l)	Troponim (aniq fe’l)	Tarjima
Gapirmoq (Speak)	Shivirlamoq (Whisper) Ming‘irlamoq (Mumble) Bo‘kirmoq (Yell)	“Past ovozda gapirdi” deyish o‘rniga bitta so‘z bilan aniq tasvir beriladi.
Yurmoq (Walk)	Sudralmoq (Drag/Crawl) Oqsoqlanmoq (Limp) Sanqimoq (Wander)	“Oyog‘i og‘rib yurdi” deyish shart emas, “oqsoqlandi” deyish yetarli.
Kulmoq (Laugh)	Hiringlamoq (Giggle) Iljaymoq (Smirk) Qah-qah urmoq (Guffaw)	Personajning xarakterini ochib beradi.

Ingliz va o‘zbek tili tabiatidagi farq. Ingliz tili troponimlarga juda boy til Bitta fe’ning ichida ham harakat, ham usul yashiringan bo‘ladi. O‘zbek tilida esa bunday holat ko‘pincha analitik (fe’l + ravishdosh) tuzilishga ega. Tarjimon bu farqni bilmasa, inglizcha troponimning mazmun-mohiyatini o‘zbekchaga to‘liq olib o‘tolmaydi.


Inglizcha: *He marched into the room.*

Agar *U xonaga kirdi* (He entered) desangiz, “*March*” (harbiycha yurish) ma’nosi yo‘qoladi.

O‘zbek tilida troponimni ko‘pincha ibora yoki qo‘shma fe’l orqali berishga to‘g‘ri keladi: *U xonaga shaxdam qadamlar bilan kirdi.*

Badiiy tasvir va uslub (stylistics). Badiiy asar tarjimasida troponim bu rassomning mo‘yqalamidir. Agar yozuvchi *The door slammed shut* deb yozsa, tarjimonlar shunchaki *eshik yopildi* (*The door closed*) desa xato tarjima hisoblanadi, *Eshik qarsillab yopildi* yoki *Eshik zarb bilan yopildi* jumlasini to‘g‘ri tarjima sanaladi. Bu yerda *slam – close* ning troponimidir.

Troponim-gipernim munosabatlari iyerarxik, ya'ni vertikal shakldadir. Shuning uchun bu iyerarxiyaning eng yuqorida gipernimlar va quyisida shunga mos keladigan troponimlar joylashadi, tarmoq yanada kengaytiriladi, natijada yuqoridagi sinsetlar bilan ulkan fe'l to'ri yaratiladi. Eng quyi qismida joylashgan, fe'l sinseti yuqoridagilarga qaraganda aniq tushunchani ifodalaydi. Buni quyidagi jadvalda ko'rish mumkin:



Topshiriq: quyidagi inglizcha gaplardagi troponimlarni o'zbek tilidagi eng mos variantga o'giring.

*She **sipped** the tea.*

a) choyni ichdi. (xato tarjima, chunki umumiy).

b) choyni **ho'pladi**. (to'g'ri tarjima, troponim).

*He **glared** at me.*

a) menga qaradi. (xato tarjima, chunki umumiy).

b) menga **o'qraydi**. (to'g'ri tarjima, troponim).

*The thief **snatched** the bag.*

a) o'g'ri sumkani oldi. (xato tarjima, chunki umumiy).

b) o'g'ri sumkani **yulqib oldi**. (to'g'ri tarjima, troponim).

Agar tarjimada ot so'z turkumiga xos muayyan aniq bir so'z (giponim) esga kelmasa, umumiy so'z (giperonim)dan foydalanish mumkin. Ammo buni fe'llar troponimiyasida qo'llab bo'lmaydi.

Asl matndan: *He bought a Ferrari*

Tarjimadan: *U mashina (sportkar) sotib oldi* (lekin teskarisi mumkin emas!).

Inglizcha: *She mumbled the answer.*

Aniq tarjima: *U javobni g'o'ldirab (to'ng'illab) aytdi.*

Umumlashtirilgan tarjima: *U javobni aytdi*. Bunda *mumble* so'zida insonning ikkilanishi, qo'rquvi, noroziligi yashiringan Uni shunchaki *aytdi* deb tarjima qilsak, qahramon javobni dadil aytganmi yoki qo'rqibmi, buni bilib bo'lmaydi.

B) MERONIMIYA / PARTONIMIYA (butun-qism munosabati) obyektiv borliqdagi butun va uning qismlari o'rtasidagi munosabatning lisoniy ifodasidir. Ushbu leksik-semantik paradigma ikki asosiy unsurdan tashkil topadi:

Xolonim (butun nomi). Obyektning yaxlit nomini bildiruvchi so'z. *Misol: odam, uy, daraxt.*

Meronim (qism nomi). Shu butunlikni tashkil etuvchi tarkibiy qismlar nomi. *Misol: bosh, qo'l* (odamga nisbatan); *eshik, tom* (uyga nisbatan); *ildiz, barg* (daraxtga nisbatan).

Iyerarxik (silsilaviy) tuzilishi. Partonimik munosabatlar iyerarxik xususiyatga ega bo'lib, "tizim ichidagi tizim" tamoyili asosida quriladi. Bunda bir so'z bir vaqtning o'zida ham meronim, ham xolonim bo'lishi mumkin.

1-bosqich: odam (xolonim) → qo'l (meronim).

2-bosqich: qo'l (xolonim) → barmoq (meronim).

3-bosqich: barmoq (xolonim) → tirnoq (meronim).

Aloqa turlari:

Bevosita aloqa: bir-biriga tutash qismlar munosabati (*shox va butoq*).

Bilvosita aloqa: bitta butunlik tarkibida bo'lsa-da, o'zaro tutashmagan qismlar (*ildiz va barg*).

Formula: "A – bu B ning qismi". (Part of). Talabalar ko'pincha buni giponimiya bilan adashtiradilar.

Xolonim (Holonym): butun narsa. Masalan: *daraxt*.

Meronim (Meronym): qismlar. Masalan: *ildiz, tana, shox, barg*.

Farqlash testi:

Atirgul bu guldir. (Giponimiya).

Barg bu daraxtdir. (Mantiqsiz). Barg bu daraxtning *qismi*. (Meronimiya).

C) GRADUONIMIYA (darajalanish) lug'aviy birliklar semantik tarkibidagi belgi, xususiyat yoki harakat-holatning "oz – me'yor – ortiq" (yoki aksincha) darajasi asosida hosil bo'luvchi paradigmatic munosabatdir. Bunday qatorlar graduonimik zanjir, uning a'zolari esa graduonimlar deb ataladi. *Misol: go'dak – bolakay – o'spirin – yigit – chol*.

Harakat bosqichiga ko'ra darajalanish qatorini quyidagicha tartiblash mumkin:
otlanmoq → qo'zg'almoq → yo'lga chiqmoq (yo'l olmoq) → yo'lga tushmoq → yo'l yurmoq → yetib bormoq (yetib kelmoq).

Sinonimiyadan farqi. Sinonimlar asosan denotativ (atash) ma'nosi bir xil bo'lgan so'zlarni birlashtirsa, graduonimlar ayni bir denotat doirasidagi intensivlik (kuch) farqini ko'rsatadi.

Sinonim: hamma = barcha = bari (miqdoriy farq yo'q).

Graduonim: shamol – bo'ron (kuch jihatidan keskin farq bor).

Turlari:

Denotativ (obyektiv) graduonimiya: tabiiy va obyektiv darajalanish: *yomg'ir – qor – do'l*.

Konnotativ (hissiy-ta'sirchan) graduonimiya: so'zlovchining munosabati kuchayib borishi: *ayyor, mug'ombir, makkor, yaramas*.

Formula: $A > B > C$ (ma'novi o'sish yoki pasayish tartibi). Bu munosabatda so'zlar bir xil ma'noga ega, lekin darajasi bilan farq qiladi. **Misol:** *muzdek* → *sovuq* → *iliq* → *issiq* → *qaynoq*.

Tarjima muammosi. Ingliz tilidagi *warm* (iliq) va *hot* (issiq) orasidagi chegara bilan o'zbek tilidagi chegara farq qilishi mumkin. *I'm hot* degani *Men qaynoqman* emas, "*Menga issiq*" deganidir.

Tezaurus tipidagi lug'atlar til birliklarining o'zaro leksik-semantik aloqalari: sinonimiya, antonimiya, giponimiya (jins-tur munosabati) hamda partonimiya (butun va bo'lak) bog'liqliklari asosida tizimlashtirilgan mukammal leksikografik manbadir. Tarjima amaliyotida matnning uslubiy ravonligini ta'minlash, semantik aniqlikka erishish va eng maqbul muqobil birlikni tanlashda bunday lug'atlardan unumli foydalaniladi. Tezauruslarning an'anaviy izohli yoki tarjima lug'atlaridan asosiy farqi shundaki, ular "so'zdan ma'noga" emas, balki "ma'nodan (tushunchadan) so'zga" tamoyili asosida tuziladi. Bu esa tarjimon uchun quyidagi imkoniyatlarni yaratadi:

Tarjimon matn mazmuniga eng mos tushuvchi so'zni tanlashda tezaurusga murojaat qiladi. Masalan, "*katta*" tushunchasini ifodalash uchun tezaurus bir qator sinonimik qatorni taklif etadi: *ulkan, bahaybat, yirik, azamat, gigant*. Agar matnda gap bino haqida ketsa, *mahobatli*; tog' haqida ketsa, *ulkan*; inson haqida ketsa, *gavdali* so'zlarini tanlash imkonini beradi. Bunda stilistik g'alizlik va takrorlar (tavtologiya) ning oldi olinadi.

Tezaurus nafaqat sinonimlarni, balki shu tushunchaga aloqador boshqa so'zlarni ham qamrab oladi. Masalan, "*Teatr*" konsepti ostida *sahna, parda, aktyor, rejissor, dekoratsiya, pyesa* kabi so'zlar jamlanadi. Bu tarjimonga matnning leksik fonini yaratishda yordam beradi.

Ikki tildagi so'zlar hamma vaqt ham to'liq mos kelmaydi. Tezaurus so'zning denotativ (asl) va konnotativ (hissiy) ma'nolarini farqlashga xizmat qiladi. Masalan, ingliz tilidagi "*famous*" (mashhur) va "*notorious*" (yomon oti chiqqan) so'zlarini to'g'ri ajratish uchun tezaurusdagi ijobiy va salbiy bo'yoqdorlik belgilari qo'l keladi. Xuddi shunday, ikki yuzdan ortiq tillardagi leksik birliklar o'rtasidagi ma'noviy aloqalarni qamrab oluvchi yirik leksik ma'lumotlar bazasi **WordNet**da so'zlar

o‘rtasidagi quyidagi asosiy semantik munosabatlar qayd etiladi:

Table 3
Semantic relations in WordNet.

Semantic Relation	Syntactic Category	Examples
Synonymy (similar)	Noun Verb Adj Adv	pipe, tube rise, ascend sad, unhappy rapidly, speedily
Antonymy (opposite)	Adj Adv Noun Verb	wet, dry rapidly, slowly top, bottom rise, fall
Hyponymy (subordinate)	Noun	sugar maple, maple maple, tree tree, plant
Meronymy (part)	Noun	brim, hat gin, martini ship, fleet
Troponymy (manner)	Verb	march, walk whisper, speak
Entailment	Verb	drive, ride divorce, marry
Derivation	Adj Adv	magnetic, magnetism simply, simple

WordNetdagi ushbu semantik tarmoqlar nafaqat tilshunoslikda, balki sun’iy intellekt, mashina tarjimasini va axborot qidiruv tizimlarida matn mazmunini chuqur tahlil qilish uchun asosiy manba bo‘lib xizmat qiladi.

5. ✂️ Post-assessment (yakuniy baholash)

✂️ **Amaliyot: lakunalar (bo‘sh kataklar).** Ba’zan bir tildagi semantik maydonda so‘z bor, ikkinchi tilda esa o‘sha katak bo‘sh bo‘lishi mumkin.

Topshiriq: Quyidagi semantik maydonlardagi bo‘shliqni qanday to‘ldirasiz?

Qarindoshlik maydoni:

Ingliz tilida: **Sibling** (Aka-uka yoki opa-singilning umumiy nomi).

O‘zbek tilida: Bitta so‘z yo‘q. Biz “tug‘ishganlar” yoki “aka-ukalar” deb vaziyatga qarab tarjima qilamiz.

Barmoqlar maydoni:

O‘zbek tilida: bosh barmoq, ko‘rsatkich barmoq, o‘rta barmoq... (hammasiga “barmoq” so‘zi qo‘shiladi).

Ingliz tilida: **thumb** (bosh barmoq), **toe** (oyoq barmog‘i).

Savol: “He hurt his **toe**”.

Tarjima: “U oyog‘ini (?) og‘ritib oldi” emas, “Oyoq barmog‘ini”. (Inglizlarda qo‘l va oyoq barmog‘i ikki xil semantik maydonda).

6. 🎓 **Summary (xulosa):**

Giponimiya: turi (olma – meva).

Meronimiya: qismi (eshik – uy).

Graduonimiya: darajasi (iliq – issiq).

Uyga vazifa: O‘zingiz qiziqqan bir soha (masalan, “kiyimlar”, “kompyuter”, “oshxona” so‘zlaridan biri)ni tanlang va uning semantik maydon xaritasini chizing:

1. Arxisemani toping.
2. Giponimlarini (turlarini) yozing.
3. Meronimlarini (qismlarini) ajrating.

MUSTAQIL TA’LIM: WORDNET IYERARXIYASINI YARATISH

TOPSHIRIG‘I:

1. Ingliz tilidagi bitta keng qamrovli konsept, ya’ni semantik maydonni tanlang. Masalan: *vehicles* (transport vositalari) yoki *emotions* (hissiyotlar).
2. Ushbu konseptning o‘zbekcha giperonim-giponim (kamida 3 ta pog‘onali) hamda xolonim-meronim shoxobchalarini chizing (A3 formatida klaster).
3. Tanlagan maydoningiz bo‘yicha ingliz va o‘zbek tillaridagi leksik bo‘shliqlarni (bir tilda bor, ikkinchisida yo‘q bo‘lgan tur yoki qismlarni) tahlil qilib, kichik hisobot tayyorlang.

“MANTIQUIY FIKRLASH” MAYDONI

1. **Mantiqiy jumboq: pomidor** – bu meva, sabzavot, poliz ekini. Fan nima deydi-yu, bozor nima deydi? Tarjimon qaysi biriga quloq solishi kerak?

2. **Kategoriya: stol, stul, divan, shkaf** – bularni bitta so‘z bilan “mebel” deymiz. Xo‘sh, *muhabbat, nafrat, g‘azab, quvonchni* bitta so‘z bilan nima deymiz?

Giperonim: Agar matnda *U qurol bilan o‘ldirildi* deyilsa, tarjimada *pichoq* yoki *to‘pponcha* deb aniqlashtirish mumkinmi?

Nazorat va muhokama savollari

1. Semantik maydon va leksik-semantik maydon atamaları o‘rtasida qanday farq bor?
2. Giperonim va giponim o‘rtasidagi farqni badiiy asar tarjimasida qo‘llaniladigan umumiylashtirish usuli orqali tushuntirib bering.
3. Nima uchun *qo‘l* (xolonim) va *barmoq* (meronim) munosabati o‘zbek va ingliz tillarida har doim ham mos tushavermaydi?
4. Badiiy asar tarjimasida graduonimik (darajalangan) qatorni to‘g‘ri tanlamaslik qanday uslubiy yo‘qotishlarga olib keladi? Misollar keltiring.
5. Ontologiya va elektron tezauruslar (masalan, WordNet) zamonaviy CAT (Computer-Assisted Translation) dasturlarining ishlash tezligiga qanday ta‘sir o‘tkazadi?

GLOSSARIY

Umumlashtirish — asliyat matnidagi tor, xususiy ma‘noli so‘zni (giponimni) maqsadli tilda keng, umumiyroq ma‘noli so‘z (giperonim) bilan almashtirib tarjima qilish usuli.

Giponimiya — so‘zlar o‘rtasidagi jins-tur munosabati bo‘lib, iyerarxiyaning pastki, xususiyoq bosqichi (masalan, daraxt so‘ziga nisbatan *tol, terak* so‘zlari).

Giperonim — iyerarxik munosabatda keng qamrovli, umumlashtiruvchi yuqori tushuncha (tur tushunchasi).

Graduonimiya — miqdor, belgi yoki xususiyatning ma‘lum bir tartibda o‘sib yoki pasayib borishiga asoslangan leksik munosabat (darajalanish).

Xususiylashtirish — tarjimada umumiy tushunchani bildiruvchi so‘zni (giperonimni) o‘zbek tiliga aniq, xususiy ma‘noli so‘z (giponim) bilan o‘girish.

Meronomiya — tildagi butun va uning qismlari o‘rtasidagi munosabat. Butunga nisbatan qism *meronim*, qismga nisbatan butun esa *xolonim* deyiladi.

WordNet — kompyuter lingvistikasida so‘zlar orasidagi mantiqiy-semantik (giperonimik, sinonimik, meronimik) munosabatlarni o‘zida aks ettiruvchi ulkan raqamli kognitiv baza.

 Mavzu yuzasidan qo‘shimcha mutolaa uchun manbalar:

1. Искандарова Ш. Лексикани мазмуний майдон асосида ўрганиш муаммолари. – Тошкент: Фан, 1988. -98 б.
2. Сафарова Р. Лексик-семантик муносабат турлари. Т.: Ўқитувчи, 1996. – 48 б.
3. Искандарова Ш. Ўзбек тили лексикасини мазмуний майдон сифатида ўрганиш (шахс микромайдони): Филол.фан.д-ри...дисс. – Т., 1999. -259 б.
4. Собиров А. Ўзбек тилининг лексик сатҳини система сифатида тадқиқ этиш. Филол. фанлари докт. ...дис. автореф. – Тошкент, 2005.
5. Қўчқортоев И. Сўз маъноси ва унинг валентлиги (ўзбек тилидаги нутқ феъллари материали асосида). – Тошкент: Фан, 1977. - 168 б.
6. Sayfullayeva R. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent: 2009. (Leksik sath tahlili).
7. Qahharova S. Harakat usulini ifodalovchi fe’llarda troponim-gipernim munosabati // “O‘zbek tili taraqqiyoti va xalqaro hamkorlik masalalari” mavzusidagi Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Toshkent , 2023, 19-oktabr. – B. 210-212.
8. Ҳакимова М. Ўзбек тилида абстракт номлар семантикаси. Филол. Фан.докт. (DSc) дисс. – Т., 2019. – 230

7-MA'RUZA: O'ZBEK TILI LEKSIKASIDA O'Z VA O'ZLASHGAN QATLAM. FAOL VA NOFAOL LEKSIKA.

1. Participatory learning (kirish/qiziqtirish).

 **Maqsad:** talabalarda matnning janri va tarixiy davriga mos ravishda leksik qatlam, ya'ni o'z va o'zlashgan qatlam, faol va nafaol leksikaga xos birliklarni farqlash hamda ularni nutqda to'g'ri qo'llash ko'nikmasini shakllantirish.

[SLAYD 1: Oq xalatli inson tasviri] Ekranda shifokor rasmi. Ostida uchta so'z:

Tabib (arabcha asos – tarixiy/an'anaviy)

Vrach (rus-internatsional – sovet davri)

Shifokor (o'zbekcha neologizm – mustaqillik davri)

O'qituvchi nutqi: Hurmatli bo'lajak tarjimonlar, tasavvur qiling, sizga ingliz tilidagi *doctor* so'zini o'zbek tiliga tarjima qilish topshirildi, shunda qaysi birini tanlaysiz?

Agar siz 1920-yillarda yozilgan ingliz adabiyotiga mansub asardagi “*The doctor arrived*” jumlasini o'zbek tiliga o'girayotgan bo'lsangiz, “*Vrach keldi*” desangiz, butun tarixiy muhitni yo'qqa chiqarasiz. U davr uslubiga faqat “doktor” (yoki matn sharqona bo'lsa “tabib”) so'zi mos tushishi mumkin.

Agar siz 1980-yillarda yozilgan ingliz realistik asarni, xususan, Artur Xeyli yoki Stiven King romanlarini tarjima qilayotgan bo'lsangiz, “*tabib*” deyish mantiqsiz, “*shifokor*” deyish esa matnga sun'iylik mavjud bo'ladi. 80-yillar kitobxoni ruhiyatiga, garchi asar xorijiy bo'lsa ham, singib ketgan va o'sha davr uchun tabiiy jaranglaydigan variant “*vrach*” yoki “*doktor*”dir.

Agar siz bugungi kunda **BBC** yoki **CNN** telekanalining tibbiy yangiligini o'zbek tiliga o'girayotgan bo'lsangiz, “*vrach*” deyish uslubiy xato. Zamonaviy o'zbek adabiy tili va media standarti bo'yicha yagona to'g'ri variant “*shifokor*”dir.

2. Objective (maqsadni belgilash).

Maqsad: talabalar dars yakunida erishadigan amaliy natijalarni e'lon qilish.

[SLAYD 2: Tarjimonning “yo'l xaritasi”]. Bugungi dars yakunida siz:

matndagi so'zning o'z yoki o'zlashma ekanligini aniqlab, uslubga mosini tanlashni;

arxaik birliklar va tarixiy soʻzlar tushunchalarini farqlash orqali xatolardan qochishni;

yangi kirib kelayotgan atamalarni qachon tarjima qilish va qachon aslicha qoldirish, yaʼni oʻzlashtirish qoidasini oʻrganasiz.

3. 🧠 Pre-assessment (dastlabki baholash).

[SLAYD 3: “Qaysi biri oʻzimizniki?”]

Topshiriq: Quyidagi kundalik soʻzlarning kelib chiqishini aniqlang. Ehtiyot boʻling, sezgi sizni aldashi mumkin!

1. 🍷 Goʻsht...
2. 🏠 Deraza...
3. Oʻz Vatan...
4. 🦷 Suyak...

GOʻSHT fors-tojikcha, koʻpchilik buni sof oʻzbekcha deb oʻylaydi. Aslida sof turkiy varianti “*et*”. (qozoqlar “*et*”, turklar “*et*” deydi). Bizda “*et*” soʻzi faqat *et-beti*, *ich-etini yemoq* kabi iboralarda qolgan.

DERAZA fors-tojikcha, oʻzbekchasi “*tuynuk*” (hozirda kam qoʻllaniladi)

VATAN arabcha, oʻzbekchasi *yurt* yoki *el*.

SUYAK sof oʻzbekcha, *soʻngak* arxaik birlik.

4. 🌱 Participatory learning (faol taʼlim).

Oʻzbek tili leksikasi shakllanishida lingvistik va ekstralingvistik omillar ishtirok etgan. Shu asosda leksika ikki yirik qatlamga ajratiladi: 1) oʻz qatlam; 2) oʻzlashgan qatlam.

I Oʻz qatlam tavsifi. Bu qatlam tilning genetik asosi boʻlib, u oʻz navbatida ikki tarixiy bosqichni oʻz ichiga oladi:

1. Umumturkiy soʻzlar barcha turkiy xalqlar uchun mushtarak boʻlgan, ijtimoiy hayotning eng zaruriy tushunchalarini ifodalovchi leksemalardir:

Qarindoshlik: *ota, ona, oʻgʻil, qiz*.

Tana aʼzolari: *bosh, koʻz, qoʻl, oyoq*.

Tabiat va hayvonlar: *suv, tosh, ot, qoʻy, boʻri*.

Sanoq sonlar: *bir, ikki, o'n, yuz*.

Asosiy fe'llar: *kel, ket, yoz, o'qi*.

Mazkur lisoniy xususiyatni so'zlarning mavzuviy (tematik) guruhleri misolida ham yaqqol kuzatish mumkin. Xususan, ot turkumiga mansub umumturkiy leksik birliklar semantik-mavzuviy jihatdan quyidagi asosiy guruhlarga tasniflanadi:

1) qarindoshlik va yaqinlik ma'nolarini bildiradi: *ota, ona, bola, o'g'il, qiz, og'a, ini, er, kelin, quda, xotin, qaynota, uka, opa, singil* va b.;

2) odam gavdasi a'zolari: *bosh, ko'z, quloq, tish, til, og'iz, burun, qo'l, oyoq, soch, yelka, bel, tiz, bo'g'iz, tirsak, barmoq, tirnoq, qosh, bo'y, yuz, bo'yin* va b.;

3) hayvon, parranda va mayda mavjudotlar: *ot, tuya, qo'y, echki, sigir, buzoq, buqa, ho'kiz, kiyik, xachir, ayiq, bo'ri, it, tulki, qush, 96 tovuq, qarg'a, quzg'un, g'oz, o'rdak, lochin, turna, ari, chumoli, baqa, ilon, qumursqa, qurbaqa, toshbaqa* va b.;

4) dehqonchilik va bog'dorchilikka oid so'zlar: *bug'doy, arpa, tariq, tarvuz, uzum, o'rik, olma, tol, yong'oq, terak* va b.;

5) yerosti boyliklarini bildiruvchi so'zlar: *temir, oltin, kumush, olmos, cho'yan, qalay, qo'rg'oshin* va b.;

6) uy-ro'zg'or buyumlari nomi: *o'roq, bolta, qozon, tovoq, qoshiq, cho'mich, pichoq* va b.

2. Sof o'zbekcha so'zlar o'zbek elati alohida etnos sifatida ajralib chiqqanidan so'ng tilning ichki derivatsion qonuniyatlari asosida yasalgan so'zlardir.

Yasalish usullari:

Affiksatsiya (morfologik): *terimchi, chidam, o'lcham, bog'bon*.

Kompozitsiya (sintaktik): *oshqozon, belbog', toshbaqa*.

O'z va o'zlashma elementlar sintezi (Gibridizatsiya): (*zamondosh* – arab+o'zbek; *gulbozor* – fors+o'zbek).

Bir til leksik birliklarining ikkinchi bir til tizimi tomonidan qabul qilinishi leksik o'zlashish deb ataladi. Bu jarayon asosan ikki usulda amalga oshiriladi:

1. **Leksik o'zlashma** (so'zni moddiy jihatdan o'zlashtirish / o'zicha olish).
2. **Kalkalash** (semantik yoki so'z yasalishi nusxasini olish).

Leksik o'zlashma. Bu usulda donor tildagi so'z retsipyent (qabul qiluvchi) tilga o'zining fonetik va morfologik qiyofasini to'liq yoki qisman saqlagan holda o'tadi. O'zbek tilida bu qatlam quyidagi guruhlariga bo'linadi:

Arabcha so'zlar: *davlat, hukumat, vazir, zulm, iste'fo, majlis, falsafa, faylasuf.*

Fors-tojikcha so'zlar: *devor, paxta, darvoza, shisha, pul, gavhar, vijdon, sarmoya.*

Rus-baynalmilal so'zlar: *diktatura, ekonomika, reforma, gazeta, bank, parta.*

Bevosita va bilvosita o'zlashish. So'zning kirib kelish manbasiga ko'ra o'zlashtirish jarayoni ikki shaklda kechadi:

A) bevosita o'zlashish. Donor tildan so'zning hech qanday vositachisiz, to'g'ridan to'g'ri qabul qilinishi.

B) bilvosita o'zlashish. So'zning asli manbadan emas, balki uchinchi bir vositachi til orqali o'zlashtirilishi. Bunda so'z vositachi tilning o'zlashgan qatlamiga mansub bo'ladi. O'zbek tilida bilvosita o'zlashishning ikkita yirik tarixiy modeli mavjud:

Fors-tojik tili vositasida tarixiy arabcha so'zlarning katta qismi o'zbek tiliga fors tili fonetik qolipi orqali kirib kelgan.

Rus tili vositasida yevropa tillariga oid termin va leksemalar o'zbek tiliga asosan rus tili orqali o'zlashgan.

Rus tili orqali kirgan yevropa so'zlari tasnifi

Asl manba tili	Misollar
Grekl (yunon)	<i>dialekt, kafedra, logika, grammatika, fonetika</i>
Lotin	<i>avtor, ekzamen, student, auditoriya, rektor, dekan</i>
Polyak	<i>polkovnik, rota, metrika</i>
Nemis	<i>vaxta, soldat, ofitser, shtab</i>

Asl manba tili	Misollar
Fransuz	<i>drap, triko, kabinet, avans, repertuar</i>
Ingliz	<i>vokzal, tramvay, klub, futbol, boks</i>
Italyan	<i>balerina, opera, karnaval, balkon</i>

Kalkalash soʻz oʻzlashtirishning shunday usuliki, unda chet tilidagi soʻzning fonetik qobigʻi (tovushlari) emas, balki uning ichki qurilishi yoki maʼnosi tarjima qilinadi. Bu jarayon ikki xil tasnif asosida amalga oshiriladi:

1. Tuzilishiga koʻra chet soʻzining qismlari (oʻzak va qoʻshimchalar) qay darajada tarjima qilinishiga qarab ikki turga boʻlinadi:

kalka turi	taʼrifi	asli ruscha → oʻzbekcha kalka
toʻliq kalka	soʻzning barcha qismlari (morfemalari) toʻliq tarjima qilinadi.	<i>jeleznaya doroga</i> – temir yoʻl <i>zarobotnaya plata</i> – ish haqi <i>subbotnik</i> – shanbalik <i>udareniye</i> – urgʻu
qisman kalka	soʻzning bir qismi tarjima qilinadi, ikkinchi qismi aslicha qoladi.	<i>televizionnoye predstavleniye</i> – telekoʻrsatuv <i>zapravshik</i> – zapravkachi <i>fotoplyonka</i> – fotolavha <i>sokursnik</i> – kursdosh

2. Mazmuniga koʻra tasnif (lisoniy sath)

Kalkalash natijasida tilda nima paydo boʻlishiga koʻra farqlanadi:

A) leksik (lugʻaviy) kalkada chet tilidagi soʻz yasash andozasi koʻchiriladi, natijada tilda shaklan yangi leksema paydo boʻladi. Masalan, *koʻnikma* (navik), *oʻsimlik* (rasteniye).

B) semantik (maʼnoviy) kalkada soʻzning shakli emas, faqat maʼnosi koʻchiriladi, natijada tilda mavjud boʻlgan eski soʻzga yangi maʼno yuklanadi. Masalan, *yulduz* (osmon jismi) — *yulduz* (mashhur sanʼatkor, inglizcha “star” taʼsirida).

Kalkalash (lisoniy nusxa) tilning lugʻat tarkibini boyitishning samarali usullaridan biri boʻlib, oʻzga til birligining strukturaviy-semantik andozasi asosida,

qabul qiluvchi tilning ichki imkoniyatlari yordamida yangi lisoniy birlik hosil qilish jarayonidir.

Tarjimonning professional kompetensiyasi nafaqat mavjud soʻzlarni bilishda, balki tilda muqobili boʻlmagan tushunchalar uchun yangi terminlarni “yasash” (neologizm yaratish) mahoratida namoyon boʻladi. Kalka bu shunchaki asliyatdan olingan mexanik nusxa emas, balki ongli terminologik ijodkorlikdir. Bunda tarjimon chet tilidagi soʻzning ichki shaklini, mantiqiy qurilishini saqlab qolgan holda ona tilidagi mavjud morfemalar yordamida uning aniq muqobilini shakllantiradi.

Misol: *inglizcha*: skyscraper (sky + scraper) – osmonoʻpar (osmon + oʻpar); *self-service* – oʻz-oʻziga xizmat; *waterproof* – suv oʻtkazmaydigan.

Semantik kalka bu soʻzning asosiy maʼnosini emas, balki ramziy maʼnosini berishdir. Misol: *He is a star* jumlasidagi *star* bu yulduz (osmondagi), ingliz tili taʼsirida oʻzbek tilidagi *yulduz* soʻziga ham “*mashhur sanʼatkor*” maʼnosi yuklangan. Shu sababdan tarjimada *U yulduz* deyish toʻgʻri.

💡 **Eslatma! Purizm** (lotincha purus – “toza”, “sof”) bu tilni chet soʻzlardan, yangi kirib kelgan ajnabiy atamalardan va “buzilishlardan” saqlash, uni sunʼiy ravishda “tozalash” uchun olib boriladigan harakatdir.

1. Ijobiy purizm. Bu tilning “tabiiy immuniteti”. Agar chetdan oʻzlashgan soʻzlar muqobili til va uning lugʻat tarkibiga singishib, til jamoasining har bir aʼzosi uchun mushtarak tarzda tushunarli boʻlib, ommalashsa, bu jarayon ijobiy purizm hisoblanadi. Bundan maqsad shuki, ona tilining boyligini saqlab qolish va uning yoʻqolib ketishining oldini olishdir. Misollar:

rayon (rus) – tuman (qabul qilingan).

svet (rus) – chiroq / elektr chiroq (qabul qilingan).

ostanovka (rus) – bekat (toʻliq singdi).

skver (rus) – xiyobon (toʻliq singdi).

Tarjimonlar ham tilning sofliğiga eʼtibor qaratishi lozim. Matnda *Razmeri toʻgʻri kelmadi* deyish oʻrniga *Oʻlchami toʻgʻri kelmadi* deyish toʻgʻridir.

ruscha/inglizcha (ko‘cha tili, jargon)	yomon tarjima (varvarizm)	purist tarjima (to‘g‘ri)
uje (already)	<i>uje borganman.</i>	<i>allaqachon borganman.</i>
pechat (print)	<i>faylni pechat qildim.</i>	<i>faylni chop etdim.</i>
otkritka (card)	<i>otkritka yozdim.</i>	<i>tabriknoma yozdim.</i>
srochna (urgent)	<i>srochna bajarish kerak.</i>	<i>zudlik bilan bajarish kerak.</i>
submit (topshirish)	<i>arizani submit qildim.</i>	<i>arizani topshirdim / jo‘natdim.</i>

2. **Salbiy purizm** tilda allaqachon o‘rnashib qolgan yoki xalqaro miqyosda yagona standartga aylangan birliklarni sun’iy ravishda, zo‘rma-zo‘raki tarjima qilishga urinishdir. Bu harakat tilni tabiiylikdan mahrum qilib, uni xalqaro muloqot uchun noqulay tizimga aylantiradi.

Mustaqillikning ilk yillarida tilni “tozalash” maqsadida taklif qilingan ko‘plab sun’iy atamalar vaqt sinovidan o‘ta olmadi. Mazkur jarayonda tilshunos-olimlar quyidagi variantlarni rad etib, barqaror baynalmilal so‘zlarni saqlab qolishdi:

tayyoragoh emas, aeroport;

ovoznigor emas, radio;

durovoz emas, telefon;

ko‘pkursi emas, avtobus;

uchoq emas, samolyot.

Xalqaro hujjatlarda purist bo‘lish kasbiy xatodir. Agar xalqaro shartnomada “Kompyuter” so‘zi “Hisoblash mashinasi” deb o‘girilsa, matnning yuridik aniqligiga putur yetkazilgan bo‘ladi. Terminologiyada milliy g‘urur emas, aniqlik birinchi o‘rinda turadi.

Hozirgi kunda eng faol qatlam IT va internet sohasida ijobiy purizmga alohida e’tibor qaratilgan.

Chet tili (asli)	O‘zbekcha (rasmiy qabul qilingan)	Izoh (tarjimon uchun)
settings / nastroyka	sozlamalar	telefonda va dasturlarda 100% shunday olinadi.
application / prilojeniye	ilova	“prilojeniya” deyish og‘zaki nutq uchun, yozmada “ilova” shart.
notification / uvedomleniye	bildirishnoma	ba‘zan “xabarnoma” ham deyiladi.
update / obnovleniye	yangilanish	“obnovit qilish” — varvarizm.
download / skachat	yuklab olish	“ko‘chirib olish” ham ishlatiladi.
account	hisob (yoki profil)	kontekstga qarab bankda “hisob”, ijtimoiy tarmoqda “profil/sahifa”.
user / polzovatel	foydalanuvchi	
search / poisk	qidiruv	“izlash” ham to‘g‘ri.
social network	ijtimoiy tarmoq	ijobiy kalka.
link / ssilka	havola	ilmiy va rasmiy matnda faqat “havola” deyiladi.

Ijtimoiy-siyosiy va rasmiy sohada ruscha so‘zlar deyarli to‘liq siqib chiqarilgan.

Ruscha (eski)	O‘zbekcha (hozirgi standart)	Eslatma
grajdanin	fuqaro	pasportda va qonunda faqat “fuqaro”.
rayon	tuman	toshkentdagi “chilonzor rayoni” emas, “chilonzor tumani”.
oblast	viloyat	
glava (kitobda)	bob	“1-glava” emas, “1-bob”.
sponsor	homiyl	“sponsorlik qildi” emas, “homiylilik qildi”.
gimn	madhiya	
otkritka	tabriknoma	
spravka	ma’lumotnoma	kasalxonadan yoki ish joyidan olinadigan qog‘oz.
zayavleniye	ariza	

Tibbiyot va maishiy sohada adabiy tilda o‘zbekcha variant ko‘proq qo‘llaniladi.

Varvarizm	Adabiy tarjima
Gradusnik	Harorat o'lchagich (Termometr - xalqaro)
davleniya	qon bosimi
saxar (kasallik)	qandli diabet
serdse	yurak xuruji
ochered	navbat
srochna	zudlik bilan / shoshilinch

Jamiyatdagi siyosiy tuzum va ijtimoiy muhit o'zgarishi bilan so'zlarning ba'zilar faol qo'llaniladi, ba'zilar esa iste'moldan chiqib ketadi. Shu xususiyatiga ko'ra leksika ikki katta guruhga ajraladi:

I Zamonaviy qatlam (faol leksika). Hozirgi kunda barcha uchun tushunarli bo'lgan, nutqda faol ishlatiladigan va eng muhimi eskilik yoki yangilik bo'yog'iga ega bo'lmagan so'zlar faol leksika sanaladi. Zamonaviy qatlamning tarjimonlar uchun quyidagi muhim xususiyatlari mavjud:

mazkur so'zlar ishlatilganda izoh berilmaydi: *osh, non, suv, tog', kelmoq, ketmoq, yaxshi, yomon;*

muayyan darajada chegaralanganligi to'siq bo'lolmaydi;

zamonaviy qatlam faqat oddiy so'zlarni emas, balki tor doiradagi atamalarni ham o'z ichiga oladi: *affiksatsiya, menejment* so'zlari oddiy xalqqa tushunarsiz bo'lishi mumkin, lekin ular tilshunos yoki iqtisodchi uchun bugungi kunning faol so'zidir.

II Zamondosh qatlam (nafaol leksika). Bu qatlamdagi so'zlar yo o'tmishga (tarixga) yoki kelajakka (yangi davrga) tegishli bo'ladi. Ular kundalik nutqda kam qo'llaniladi va maxsus uslubiy maqsadlarda ishlatiladi. Uch guruhga bo'linadi:

1. Eskirgan so'zlar (arxaizmlar). Tushunchasi hozir ham bor, lekin u boshqa zamonaviy nom bilan ataladi. Uning vazifasi shuki, matnga tarixiy ruh yoki badiiy bo'yoq berishdir. Misollar: *oraz – yuz, bitik – kitob/yozuv, muarrix – tarixchi, jumhuriyat – respublika.*

2. Tarixiy so'zlar (istorizmlar). O'tmishda bo'lgan, lekin hozir qo'llanilmaydigan leksik birliklar nomi. Ularning bugungi kunda tilda sinonimi yo'q.

Bunday birliklar o'tmish voqeligini aniq tasvirlash vazifasini bajaradi: *yasovul*, *mingboshi* (lavozimlar), *choriq*, *omoch* (eski buyumlar), *tangacha*, *chaqa* (eski pullar).

3. Yangi so'zlar (neologizmlar). Jamiyat taraqqiyoti bilan kirib kelgan yangi tushunchalar. Ular hali tilga to'liq singib ketmagan bo'ladi: *startup*, *kouching*, *gender tenglik*, *ijtimoiy tarmoq*.

Tilimizda ilgari qo'llanilib, keyin iste'moldan chiqib ketgan so'zlardan yangi tushunchalarni ifodalash uchun ham foydalaniladi: *vazir*, *hokim*, *viloyat*, *shirkat*, *noib*, *tuman* kabi.



💡 TARJIMON UCHUN YAKUNIY JADVAL

Matnni tarjima qilishda so'zning qaysi qatlamda ekanligini quyidagi jadval asosida tekshiring:

Vaziyat	Qatlam	Tarjimon harakati
<i>Zamonaviy yangiliklar, darslik, hujjatlar</i>	<i>Faol (zamonaviy)</i>	Eng keng tarqalgan, hamma tushunadigan variantni tanlang (<i>yuz</i> , <i>kitob</i> , <i>respublika</i>).
<i>Tarixiy roman (Xiva xonligi davri)</i>	<i>Nofaol (arxaizm)</i>	Zamonaviy so'zni emas, eskisini tanlang (<i>Yuz</i> emas <i>Ruxsor</i> , <i>Xat</i> emas <i>Maktub</i>).
<i>Ilmiy maqola (tor soha)</i>	<i>Faol (Professionalizm)</i>	Garchi xalq tushunmasa ham, shu soha terminini ishlatang (<i>substantivatsiya</i> , <i>inflyatsiya</i>).

Vaziyat	Qatlam	Tarjimon harakati
<i>Kelajak haqida matn / IT</i>	<i>Nofaol (Neologizm)</i>	Yangi kirib kelgan soʻzlarni qoʻrqmasdan ishlatish (<i>sunʼiy intellekt, kiberxavfsizlik</i>).

[SLAYD: Uslubiy tarozi]

sof oʻzbekcha (neytral / samimiy)	arab-forscha (rasmiy / kitobiy / badiiy)	 tarjimon/muharrir tanlovi (qoʻllanish oʻrni)
yuz	chehra / ruxsor	sheʼriyatda: chehra (badiiylik uchun) hujjatda: yuz (aniqlik uchun)
kechirish	afv etish	rasmiy hujjatda: afv etish (prezident farmoni) jonli tilda: kechirish (kundalik muloqot)
oʻqituvchi	muallim / ustoz	statistikada: oʻqituvchi (kasb nomi) ehtiram bilan: ustoz (maqom va hurmat)

Agar matnda tarixiy soʻzlar yoki mutlaqo yangi neologizmlar ishtirok etsa, mashina tarjimasi tizimi (Google Translate) bunga qiynalishi mumkin. Chunki bu kabi soʻzlar oʻrgatilgan korpusning faol leksika chastotasida yoʻq. Agar oʻzbek tili korpusiga soʻzlarning qaysi tildan kirib kelganligi maxsus teglar, xususan, [Turkic], [Arabic], [Russian]) kabilar bilan kiritilsagina, mazkur holat kompyuterga matnning badiiy yoki rasmiy ekanligini anglashga yordam beradi.

5. Post-assessment (yakuniy baholash).

Maqsad: oʻtilgan mavzuni mustahkamlash.

[SLAYD 5: Uslubiy tahrir]

Quyidagi matn parchasi zamonaviy IT kompaniya haqida, lekin unda uslubiy xatolar bor. Ularni tuzating:

Bizning korxonamiz (istorizm?) ulusga (arxaizm?) yangi tayyorlarni (arabcha/eskirgan?) taqdim etadi. Bosh yasovul (istorizm?) buyrugʻiga koʻra, bitiklar (arxaizm?) elektron shaklga oʻtkazildi.

Toʻgʻri variant:

Bizning kompaniyamiz xalqqa/mijozlarga yangi samolyotlarni/dronlarni taqdim etadi. Bosh direktor buyrug‘iga ko‘ra, hujjatlar elektron shaklga o‘tkazildi.

6. 🎓 Summary (xulosa).

Maqsad: darsni yakunlash.

[SLAYD 6: Tarjimon lug‘ati.

Istorizmni tarjima qilmang – tushuntiring.

Arxaizmdan faqat tarixiy kolorit berish uchun foydalaning.

Arab-fors so‘zlari “balandparvoz” nutq uchun.

Sof o‘zbek so‘zlari “yurakka yetib borish” uchun.

Uyga vazifa:

Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” asaridan 5ta istorizm va 5ta arxaizm topib, ularning inglizcha/nemischa tarjima variantini izlab ko‘ring.

MUSTAQIL TA’LIM: AMALIY-KOGNITIV TOPSHIRIQ

“Neologizmlar va xalqaro so‘zlar tarjimasi” topshirig‘i:

1. Oxirgi 3 yil ichida (IT, tibbiyot yoki biznes sohasida) ingliz tilida paydo bo‘lgan va o‘zbek tiliga o‘zlashayotgan 10ta neologizmni toping. Masalan, *podcast, influencer, startup, bullying*.

2. O‘zbekistondagi OAV va ijtimoiy tarmoqlarda ushbu so‘zlar o‘zbekchalashtirib tarjima qilinmoqdam yoki shundayligicha qo‘llanyaptimi? Tahlil qiling.

3. Tarjimon sifatida ushbu 10ta so‘zning sof o‘zbekcha muqobilini (neologizm) yarating va nima uchun aynan shu variantni taklif qilayotganingizni lingvistik asoslab bering.

“MUZYURAR” JUMBOG‘I

“Tarjima qilishmi yoki taslim bo‘lishmi?” (Neologizmlar taqdiri)

(Yangi kirib kelayotgan atamalar xususida)

Savol: Texnika rivojlangani sari tilga minglab yangi so‘zlar kirib kelmoqda: *blokcheyn, keshbek, outsorsing, frilanser*.

Bizda ikki yo‘l bor:

A yo‘l: Hammasini o‘zbekchaga majburlab tarjima qilish (*frilanser –yollanma ishchi; keshbek – pul qaytishi*).

Lekin bu tarjima har doim ham o‘zini oqlamaydi.

B yo‘l: Xalqaro termin sifatida qabul qilish va tilga singdirish.

Siz qaysi yo‘lni tanlaysiz? *Kompyuterni hisoblash mashinasi* deb o‘zgartira olmadik, lekin *morojniyni muzqaymoq* deyishni o‘rgandik. Nega birida yutdik, ikkinchisida yutqazdik?

NAZORAT VA MUHOKAMA SAVOLLARI

1. Tarjimada internatsional so‘zlardan ortiqcha foydalanish matnning milliy ruhiga qanday ta’sir ko‘rsatadi?
2. Badiiy asar (masalan, “O‘tkan kunlar”) ning ingliz tiliga tarjimasida *tarixiy so‘z* va *arxaizmlarni* o‘g‘irishning qanday usullari qo‘llaniladi?
3. O‘zbek tilidagi qadimgi turkiy qatlamga oid so‘zlarning (masalan, tana a’zolari) ingliz tiliga tarjimasida nima uchun asosan oson kechadi?
4. Sun’iy intellekt tarjima tizimlari nima uchun neologizmlar bilan ishlashda inson tarjimoniga yutqazadi?
5. Ingliz tilidan o‘zbek tiliga tarjima qilish jarayonida kompyuter terminlarini o‘zlashtirish va yangidan yasash borasidagi hozirgi tendensiyalarga munosabatingiz qanday?

GLOSSARIY

Arxaizm — tilda muqobili (sinonimi) paydo bo‘lganligi sababli iste’moldan chiqqan, eskirgan so‘zlar.

Tarixiy so‘zlar — jamiyat taraqqiyoti tufayli narsa-buyumning o‘zi yo‘qolib ketganligi sababli nafaol qatlamga o‘tgan so‘zlar.

Balnalmilal so‘zlar — dunyoning ko‘plab tillarida bir xil yoki juda o‘xshash shakl va ma’noda qo‘llaniladigan xalqaro so‘zlar.

Neologizm — tilda yangi paydo bo‘lgan, hali lug‘atlarga to‘liq kiritilmagan va ommaviy faol leksikaga aylanib ulgurmagan so‘zlar.

Out-Of-Vocabulary (OOV) — kompyuter lingvistikasida mashina tarjimalari tizimi tanimaydigan, korpus xotirasida mavjud bo‘lmagan yangi so‘z.

 Mavzu yuzasidan qo‘shimcha mutolaa uchun manbalar:

1. Jamolxonov H . Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – ToshkentToshkent: Talqin, 2005. – 272 b.
2. Shoabdurahmonov Sh., Asqarova M., Hojiyev A., Rasulov I., Doniyorov X. Hozirgi o‘zbek adabiy tili, 1-qism. ToshkentToshkent: ”O‘qituvchi”, 1980. –450 b.
3. Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o‘zbek tili. – Toshkent: Universitet, 2006. – 464b.
4. Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilining etimologik lug‘ati (turkiy so‘zlar). Toshkent: 2000. – 250 b.
5. Baker M. In Other Words: A Coursebook on Translation. – Routledge, 2018.
6. Жомонов Р. Сўз ўзлаштиришдаги асосий лисоний омиллар // Ўзбек тили ва адабиёти, 2014. – № 5.
7. Эшонкулов Б. Ҳозирги ўзбек адабий тилида арабча луғавий ўзлашмаларнинг парадигматик ассимметрияга муносабати. Филол. фан. номз. дисс... автроеф. – Тошкент, 1996.
8. Абдуллаев Ф.А. Тил қандай ривожланади? – Тошкент: Фан, 1972.

8-MA'RUZA: O'ZBEK TILI LEKSIKASINING FUNKSIONAL VA EMOTSIONAL-EKSPRESSIV XUSUSIYATLARI. LEKSIK EKVIVALENTLIK VA TARJIMA STRATEGIYALARI.

1. 🏰 **Bridge-in (kirish qismi).** Maqsad: talabalar diqqatini tortish va mavzuga qiziqtirish.

O'qituvchi: Assalomu alaykum, bo'lajak tarjimonlar! Keling, darsni oddiy bir savol bilan boshlaymiz. Tasavvur qiling, siz tarjimonsiz va matnda qahramon vafot etdi. Ayting-chi, o'zbek tilida bu holatni ifodalash uchun nechta lug'aviy birlik mavjud?

(Talabalar javoblari: *o'ldi, vafot etdi, qazo qildi, olamdan o'tdi, jon berdi, u dunyoga ketdi, bandalikni bajo keltirdi, omonatini topshirdi, gumdon bo'ldi va h.k.*)

O'qituvchi: Juda to'g'ri. O'nlab va undan ko'p ham variantlar bor. Lekin nega biz rasmiy matnlarda "*Falonchi gumdon bo'ldi*" demaymiz? Yoki ko'cha bezorisi sherigiga "*Otam bandalikni bajo keltirdilar*" deb aytmaydi? Sababi har bir so'zning ishlatiladigan o'рни bor. Biz bugun ana shularni, ya'ni so'zlarning uslubiy va hissiy bo'yoqlarini tahlil qilamiz.

2. 🎯 **Objective (maqsad)**

(Maqsad: darsdan kutilayotgan natijani e'lon qilish)

O'qituvchi: Ushbu ma'ruza yakunida siz:

1. O'zbek tili leksikasining funksional qatlam (badiiy, so'zlashuv, rasmiy) larini aniq ajrata olasiz.
2. So'zlarning emotsional-ekspressiv bo'yoqdorligini tahlil qila olasiz.
3. Taqdim etilgan matnlar (Said Ahmad, Erkin Vohidov, Tog'ay Murod asarlari) misolida so'zlarni tahlil qilib, ularning tarjimadagi ekvivalentini topishni mashq qilamiz.

3. 🧠 **Pre-assessment (boshlang'ich baholash).**

(Maqsad: talabalarning mavjud bilimini tekshirish)

O'qituvchi: Keling, kichik "leksik test" o'tkazamiz. Ekranda 3 ta so'z turibdi. Ularning ma'nosi bir xil, lekin qo'llanish o'рни turlicha. Qaysi biri qayerda qo'llanilishini aniqlang: *bosh, kalla, sar.*

1. Zulfiya she'riyatida: "*Egib buni ta'zim aylagum.*"

2. Tibbiy ma'lumotnomada: “..... miya chayqalishi”

3. Bozorda qassob nutqida: “Ikki kilo go'shti bering”

(Talabalar bilan qisqa muhokama qilinadi. Javob: 1-sar, 2-bosh, 3-kalla).

4. ❀ Participatory learning (asosiy qism / faol ta'lim)

(Maqsad: nazariy bilim va amaliy ko'nikmani shakllantirish)



Tildagi soʻzlarning kattagina qismi maʼlum bir nutqiy vaziyatga moslashgan boʻladi. Bu hodisa uslubiy boʻyoq deyiladi. Uslubiy boʻyoqdor birliklar ikki turga boʻlinadi: funksional va emotsional-ekspressiv boʻyoqdor birliklar. Baʼzi soʻzlar faqat maʼlum bir nutq uslubining (masalan, rasmiy yoki badiiy) oʻziga xos birligiga aylangan boʻladi. Tarjimon asl nusxadagi uslubiy boʻyoqni tarjimada saqlab qolishi kerak. Funksional boʻyoqdor birliklar bu soʻzning qaysi uslubga yoki qaysi sohaga tegishli ekanligini bildiradi. Masalan,

“pul” soʻzi neytral birlik, lekin uni “mullajiring” desak, bu soʻzlashuv uslubiga xos. Shu sababdan tarjimada buni *money* emas, balki *dough* yoki *bucks* deb oʻgirish toʻgʻriroq boʻladi;

“inson” soʻzi ham neytral birlik, “bashar” soʻzi esa badiiy-poetik uslubga, koʻtarinki ruhga xos. “Men bashar farzandiman”(E. Vohidov) mistasini tarjimada “I am a child of *mankind*” deyish orqali badiiy uslubni saqlash mumkin.

Slayd namoyishi:

Rasmiy-idoraviy uslubga xos birliklar: *hujjat, qaror, ijro etilsin, taraflar.* (qisqa, aniq).

Ilmiy uslubga xos birliklar: *gipoteza, formula, morfema, reaksiyaga kirishmoq.* (mantiqiy, terminlarga boy).

Publitsistik uslubga xos birliklar: *zahmatkashlar, bunyodkorlik, dolzarb, keng ko‘lamli.* (targ‘ibot ruhidagi, ko‘tarinki).

Badiiy uslubga xos birliklar: *ruxsor, ohu, firoq, bo‘y cho‘zmoq.* (obrazli).

So‘zlashuv uslubiga xos birliklar: *daydi, g‘irt, obor, ketaver.* (erkin, ba‘zan qoidalarga bo‘ysunmaydi).

Tarjimon asl matnning uslubini saqlab qolishi shart. Agar rasmiy matndagi “*The suspect was apprehended*” jumlasini “*Gumonlanuvchi ushlandi*” deb tarjima qilish kerak, “*Gumonlanuvchi qo‘lga tushdi*” deb tarjima qilinsa, uslub buziladi.

Lug‘aviy birliklarning emotsional-ekspressiv xususiyatlariga ko‘ra tasnifi. Nutq jarayonida so‘zlovchi (subyekt) borliqni nomlar ekan, ko‘pincha u yoki bu tushunchaga nisbatan o‘zining ijobiy, salbiy yoki betaraf munosabatini ham ifodalaydi. Shu asosda lug‘aviy birliklar ikki katta guruhga ajratiladi:

1. Emotsional-ekspressiv jihatdan betaraf so‘zlar.
2. Emotsional-ekspressiv bo‘yoqdor so‘zlar.

1. Emotsional-ekspressiv jihatdan betaraf so‘zlar. Bu turdagi so‘zlar umumxalq tilining faol qatlamiga mansub bo‘lib, ularda so‘zlovchining subyektiv (pragmatik) munosabati qo‘shimcha tarzda ifodalanmaydi. So‘z faqat o‘zining denotativ (atash) ma‘nosi bilangina ishlatiladi. Shu bois ular nutqning barcha uslublarida erkin qo‘llanilaveradi. Bunday so‘zlar odatda sinonimik qatorning dominantasi (bosh so‘zi) hisoblanadi. Misollar: *ish, osh, kiyim, qush, odam, daraxt, katta, kichik, qattiq, olmoq, bormoq.*

2. Emotsional-ekspressiv bo‘yoqdor so‘zlar. Bu guruhdagi so‘zlarda atash (nominativ) ma‘nosidan tashqari unga ustama tarzda yuklangan qo‘shimcha uslubiy ma‘no mavjud bo‘ladi. Bu ma‘no so‘zlovchining munosabatiga ko‘ra ijobiy yoki salbiy bo‘lishi mumkin.

Emotsional-ekspressiv bo‘yoq asosan uch xil usul yordamida hosil qilinadi:

A) lugʻaviy (leksik) usul. Bunda soʻzning oʻzagi, tabiatan ijobiy yoki salbiy boʻyoqqa ega boʻladi. Bunday soʻzlar bir umumiy maʼnoga ega boʻlgan sinonimik qatorlarni hosil qiladi:

Yuz – uslubiy betaraf, boʻyoqsiz soʻz.

Bet – uslubiy boʻyogʻi mavjud. Masalan, “*betingni yuv*” birikmasi kattaning kichikka buyrugʻi yoki mensimaslikni ifodalashi mumkin.

Aft, bashara, turq, nusxa – kuchli salbiy boʻyoqqa ega. Bu soʻzlar soʻzlovchi tomonidan kamsitilayotgan, gʻazab yoki nafrat obyekti boʻlgan shaxslarga nisbatan qoʻllanadi (*aftingni yuv, basharang qursin*).

B) affiksial (morfologik) usul. Soʻz negiziga shaxsning ijobiy (erkalash, hurmat) yoki salbiy (kichraytirish, kamsitish) munosabatini ifodalovchi qoʻshimchalar qoʻshish orqali hosil qilinadi.

Qoʻshimchalar: -gina, -jon, -xon, -cha, -chak, -choq.

Misollar: *bolagina, singilgina, opajon, akajon, oʻrtoqjon, otaxon, yigitcha, kelinchak, qoʻzichoq*.

Qiyos: *Qush* (betaraf) – *Qushcha* (lugʻaviy maʼnoga qoʻshimcha ijobiy/kichraytirish maʼnosi yuklangan).

C) matniy (kontekstual) usul. Baʼzi soʻzlar nutq vaziyatidan kelib chiqib, koʻchma maʼnoda yoki kinoya bilan ishlatilganda emotsional boʻyoq kasb etadi (okkazional qoʻllanish).

Kinoya va piching: uylanmagan yigitga “*kuyov*”, ilmiy salohiyati yoʻq odamga “*olim*” deb murojaat qilish orqali masxaralash ifodalanadi: *Bizning bu “olim”imiz hamma ishni rasvo qildi*.

Soʻzning denotativ (atash) maʼnosidan chekinib, oʻziga xos boʻlmagan obyektga nisbatan qoʻllanilishi nutqda kuchli emotsional-ekspressiv boʻyoq hosil qiladi. Bu jarayonni “bosh” va “kalla” somatik soʻzlari misolida yaqqol kuzatish mumkin. *Bosh* (insonga xos) va *kalla* (hayvonga xos) soʻzlarining oʻrni almashganda boʻyoq paydo boʻladi: *Kalla deb oshqovoqni koʻtarib yuribsanmi* jumlasidagi *kalla* soʻzi insonga nisbatan ishlatilib, salbiy boʻyoq (qoʻpollik) kasb etgan. Tarjimon yoki yozuvchi matnda qaysi soʻzni tanlash orqali personajning madaniy saviyasini koʻrsatib beradi:

Ziyoli personaj nutqi: “Boshingiz og‘riyaptimi?” (hurmat, neytral).

Salbiy yoki jahl ustidagi personaj nutqi:”Kallang ishlaydimi o‘zi?” (qo‘pollik, salbiy bo‘yoq).

Agar *kalla* so‘zi hayvonga, *bosh* so‘zi insonga nisbatan o‘z o‘rnida ishlatilsa, ular emotsional bo‘yoqsiz, betaraf so‘z hisoblanadi.

neytral so‘z	ijobiy munosabat	salbiy munosabat	tarjima strategiyasi
<i>yuz/ko‘rinish</i>	jamol (ijobiy) suluvgina (erkalash)	bashara (salbiy), turq (salbiy)	<i>jamol</i> –visage/beauty <i>bashara</i> –mug/ugly face
<i>odam (bo‘y-bast)</i>	maydagina (kichraytirish/erkalash)	shopday, naynov (kamsitish); qiltiriq (haqorat)	<i>naynov</i> –lanky/beanpole <i>qiltiriq</i> –scrawny/skinny
<i>harakat/holat</i>	bamaylixotir suhbat qurmoq (hurmat/xotirjamlik)	hiringlagani hiringlagan (yoqimsiz kulgi), qiyshanglab (yoqimsiz noz)	<i>hiringlash</i> – neighing/giggling annoyingly

Bo‘yoqdor so‘zlar hurmat, erkalash, xushmuomalalik, ko‘tarinki kayfiyat kabi qo‘shimcha ma’nolarni ifodalasa, ijobiy bo‘yoqdor so‘z sanaladi: *ukajon, kenjatoy, dilbar, dono, fusunkor, orombaxsh, jilmaymoq* kabi.

Hissiy-ta’siriy munosabat nafratlanish, mensimaslik, kinoya, qarg‘ash, hurmatsizlik ma’nolariga ega bo‘lgan *surbet, baloxo‘r, nonko‘r, ahmoq, imonsiz, mijg‘ov, tirjaymoq* kabi so‘zlar orqali ifodalansa, bunday so‘zlar salbiy bo‘yoqdor so‘zlar sanaladi.

LISONIY ETIKET: TABU VA EVFEMIZMLAR

Har qanday tilda aytilishi taqiqlangan yoki noqulay hisoblangan so‘zlar va ularning o‘rnini bosuvchi “yumshoq” variantlar mavjud.

TABU (polineziyacha *tapu* — “muqaddas”, “taqiqlangan”) — jamiyatdagi axloqiy, diniy yoki irim-sirimlarga ko‘ra aytilishi man etilgan, qo‘pol hisoblangan so‘zlar.

EVFEMIZM (yunoncha *eu* — “yaxshi”, *phemi* — “gapiraman”) — tabu soʻzlarning oʻrnini bosuvchi, tinglovchiga xush yoquvchi, madaniy pardalangan soʻz yoki iboralar. Masalan: *koʻr* oʻrniga *koʻzi ojiz*; *oʻldi* oʻrniga *olamdan oʻtdi*. Evfemizmlar tarjimada madaniy chegaralarni saqlash uchun juda muhimdir.

Mantiqiy zanjir: Tabu — bu sabab (taqiq), Evfemizm — bu oqibat (yechim).

Tabu va evfemizmlarning paydo boʻlishi asosan uchta sababga koʻra yuzaga keladi:

Sabab	Izoh	Tabu (Qoʻpol/Taqiq)	Evfemizm (Yumshoq)
1. Mistik va diniy	Yovuz kuchlar yoki yirtqich hayvon nomini aytish ularni chaqiradi deb ishonish.	<i>boʻri, ilon</i>	<i>jonivor, uzun</i>
2. Axloqiy va ijtimoiy	Oʻlim, jinsiy hayot, fiziologik jarayonlar haqida gapirish uyat hisoblanadi.	<i>oʻldi, tugʻdi; hojatxona</i>	<i>olamdan oʻtdi, koʻzi yoridi; yuz-qoʻl yuvadigan joy</i>
3. Siyosiy va diplomatik	Haqiqatni yumshatish va aholini vahimaga solmaslik.	<i>narxlar oshdi, urush, qamoqxona</i>	<i>narxlar erkinlashdi, ziddiyat, jazoni ijro etish muassasasi</i>

Oʻzbek tilida evfemizmlar koʻpincha quyidagi usullar orqali hosil qilinadi:

metafora (koʻchma maʼno): *mast boʻlib qoldi* – *yengil tortib qoldi*.

chetdan soʻz olish (terminlash): *sil kasalligi* (qoʻrqinchli) – *tuberkulez* (neytral).

umumlashtirish: *tualetga ketdi* – *chiqib keldi*.

imo-ishora: homilador ayolga nisbatan *ogʻiroyoq* – *boʻyida bor*.

Tarjima jarayonida tabu va evfemizmlar madaniy toʻsiq hisoblanadi. Bir tilda oddiy sanalgan soʻz, boshqa tilda tabu boʻlishi mumkin.

Muammo: ingliz tilida *He died of cancer* (U saratondan oʻldi) deyish oddiy hol.

Yechim: Oʻzbek tilida bu juda ogʻir eshitiladi. Tarjimon *U yomon kasallikdan vafot etdi* yoki *Ogʻir dard uni olib ketdi* deb yumshatishi kerak.

⚠ **Diqqat, xatô!** Evfemizmni tushunmay toʻgʻridan toʻgʻri tarjima qilish uslubiy gʻalizlikka olib keladi.

Asl matn: “She is expecting”

Xato tarjima: “U kutyapti”

To‘g‘ri tarjima: “U farzand kutyapti”, “U homilador” (yoki “Uning bo‘yida bor”).

Talabalar bilishi kerak bo‘lgan yana bir tushuncha bu **disfemizm**. Bu so‘zning neytral variantini ataylab qo‘pol variantga almashtirishdir. Bu asosan so‘zlashuv uslubida yoki salbiy bo‘yoq berishda ishlatiladi:

yuz (neytral) – *turq/bashara* (disfemizm).

vafot etdi (evfemizm) – *o‘ldi* (neytral) – *o‘lib ketdi* (disfemizm).

💡 **“BILASIZMI?” (Qiziqarli ma’lumot!)**


Qadimgi turkiy xalqlar ovga chiqqanda o‘ljani (ayiq, bo‘ri) o‘z nomi bilan atamagan. Agar ayiqni “Ayiq” desa, u eshitib qoladi va ovchiga hujum qiladi deb o‘ylashgan. Shuning uchun uni “Polvon”, “Momoy”, “O‘rmon egasi” deb atashgan. Bu bugungi kundagi ko‘p evfemizmlarning tarixiy ildizidir.

✂ **Amaliy topshiriq** (talabalar uchun)

Quyidagi qo‘pol (tabu) iboralarni evfemizmlarga aylantiring:

1. Uning eri o‘ldi. (.....)
2. Ular ajrashib ketishdi. (.....)
3. U qarib qoldi. (.....)
4. Burnini arttdi. (.....)
5. U yolg‘on gapirdi. (.....)

(Javoblar: 1. vafot etdi/bandalik ekan; 2. kelisholmay qolishdi/yo‘llari ayro tushdi; 3. yoshi bir joyga borib qoldi/nuroniylilik payti keldi; 4. burnini tozalamoq; 5. mubolag‘a qildi/to‘g‘ri kelmaydigan gap aytdi).



Amaliy mashg'ulot. Gaplarni o'qing, hissiy-ta'siriy jihatdan betaraf va bo'yoqdor so'zlarni topib, farqini ayting.

1. So'yla gulim. Yashirmagil nedirsa darding, Yaralanmishyurak, nechun qizarding? (Fitrat) 2. Uch qadamcha narida Umar aka jiyronni jilovidan tutib turardi (O'.H.). 3. Bashirjonning xumkallasi, ko'ksiga solingan kichik, ensiz bag'baqasi ikki buklanib, osilib turardi.(N. A.) 4. E, akillayberasan-da, Safar! — dedi bo'qoq. — Biz nima deyapmiz-u, sen nima deyapsan! (A. Qod.) 5. Rasadxona zimiston bo'lsa ham, Ali Qushchining o'tkir ko'zlari darrov ko'rdi: poygakda bir kimsa gavdasi bilan eshikni to'sib, qaqqayib turardi. (O.Y.) 6. Qo'shiqning oxiri olqishlarga ko'milib ketdi. (N. A.) 7. Ustaning chehrasidagi mahzunlik, ovozidagi dard Qalandarning yuragiga nashtardek sanchildi. (O. Y.)

Tarjima strategiyalari va ekvivalentlik. Turli tillardagi lug'aviy birliklar o'rtasida to'liq ekvivalentlik kamdan kam uchraydi. Tarjimonlar bu holatda quyidagi strategiyalarni qo'llashi kerak:

Dominant sinonimni topish: matnning umumiy ruhiga mos so'zni tanlash.

Uslubiy transformatsiya: agar o'zbek tilida aynan o'sha so'z bo'lmasa, uslubni saqlagan holda boshqa ibora ishlatish. Masalan, *Kick the bucket* bu ingliz tilidagi juda mashhur **idioma** (slang) bo'lib, o'zbek tiliga to'g'ridan to'g'ri *paqirni tepmoq* deb tarjima qilinmaydi. Quyida uning to'liq izohini keltiramiz: bu ibora *vafot etmoq, o'lmoq*

degan ma'noni bildiradi, norasmiy va ko'pincha hazilomuz yoki oddiy so'zlashuv uslubida ishlatiladi.

Eslatma: Bu iborani janozada yoki rasmiy hamdardlik bildirishda ishlatib bo'lmaydi.

Tarjima qilishda kontekstga qarab quyidagi *oyoqni uzatmoq (eng yaqin muqobili), narigi dunyoga ketmoq, jon taslim qilmoq, bandalikni bajo keltirmoq* (sal jiddiyoq, lekin ma'no yaqin) birliklarni ishlatish mumkin:

Bu iboraning kelib chiqishi haqida turli taxminlar bor: Qadimda o'z joniga qasd qilmoqchi bo'lgan, osilgan odam bo'yniga arqon solib, oyog'i ostidagi paqir, ya'ni chelakni tepib yuborgan. Shu orqali "*paqirni tepish*" o'lim bilan bog'lanib qolgan.

Inglizcha: "The old man kicked the bucket last night".

O'zbekcha tarjima: "Chol kecha oyog'ini uzatdi (vafot etdi)".

Mashhur "The Bucket List" filmi ham shundan olingan bo'lib, "O'limdan oldin qilinadigan ishlar ro'yxati" degan ma'noni bildiradi.

Kontekstual ma'no: So'zning lug'aviy ma'nosidan voz kechib, matndagi vazifasiga ko'ra tarjima qilish.



5. 📄 Post-assessment (yakuniy baholash)

(Maqsad: olingan bilimni mustahkamlash)

Topshiriq: Ekranda berilgan matn parchasini tahlil qiling va qavs ichidagi soʻzlardan eng mosini tanlang.

Matn (Sud zalidan reportaj): Kecha shahar sudida oʻgʻrilikda ayblangan shaxsga hukm oʻqildi. Sudlanuvchi oʻz qilmishidan (*pushaymon boʻldi / afsuslandi / attang qildi*). U sudyadan (*kechirim soʻradi / shafqat soʻradi / uzr soʻradi*). Sudya unga 5 yil (*qamoq / ozodlikdan mahrum etish / oʻtirish*) jazosini tayinladi.

(Kutilgan javoblar: *pushaymon boʻldi (rasmiyroq), shafqat soʻradi (yuridik kontekst), ozodlikdan mahrum etish (yuridik termin).*)

NLPda sentiment tahlil. Sunʼiy intellekt tarjima tizimlari matnning rasmiy yoki soʻzlashuv uslubida ekanligini osongina ajrata oladi, ammo emotsional-ekspressiv qatlam (kinoya, piching, evfemizmlar) kompyuter uchun hanuzgacha ulkan muammo boʻlib qolmoqda.

UzNLTK (Uzbek Natural Language Toolkit) doirasida oʻzbek tilining emotsional leksikasi ustida amaliy ishlar olib borilishi zarur. Kompyuter lingvistikasida bu jarayon “sentiment analysis” (matn hissiyotini tahlil qilish) deb ataladi. Mashina matnni oʻqiganda har bir soʻzning emotsional bahosini raqamlashtiradi: ijobiy soʻzlarga (+1), salbiy soʻzlarga (-1), betaraf soʻzlarga (0) qiymat beradi. Siz tarjimon sifatida tahrir jarayonida mashina koʻrmagan oʻsha hissiyotni (masalan, yashirin sarkazmni) ilgʻab olib, insoniy adekvatlikni tiklashingiz zarur.

6. 🎓 Summary (xulosa va uyga vazifa).

(Maqsad: darsni yakunlash va keyingi qadamni belgilash)

Demak, aziz talabalar, bugun oʻrgandikki:

soʻzlar betaraf yoki uslubiy yoki hissiy boʻyoqdor boʻlishi mumkin;

tarjimonning mahorati lugʻat boyligida emas, balki “tarozining nozik pallasini” his qila olishidadir;

rasmiy matnga “koʻcha gapi”ni, badiiy asarga “quruq termin”ni aralashtirmaslik kerak.

Uyga vazifa: Abdulla Qahhorning “Bemor” hikoyasidan bir abzasli matnni oling. Uni:

rasmiy militsiya bayonoti uslubiga o‘giring;

zamonaviy “yoshlar” telekanali yangiligi uslubiga o‘giring;

farqni yozma ravishda izohlang.

MUSTAQIL TA’LIM: AMALIY-TAHLILIIY TOPSHIRIQ

Nazariy bilimlarni mustahkamlash uchun evfemizmlar va siyosiy tarjima topshirig‘i:

1. Xalqaro media (masalan, *BBC*, *CNN* yoki *Al Jazeera*)ning ingliz tilidagi siyosiy yoki harbiy mojarolarga oid bitta maqolasini tanlang.

2. Matn ichidan kamida 5ta siyosiy evfemizmnini toping. Masalan: *Collateral damage*, *friendly fire*, *ethnic cleansing*, *peacekeeping*.

3. Ushbu gaplarni *Google Translate* va *DeepL* orqali o‘zbek tiliga tarjima qiling. Mashina asl matnning diplomatik silliqqligini (evfemizmnini) saqlay oldimi yoki uni qo‘pol denotativ ma’noda tarjima qildimi?

4. Inson-tarjimon sifatida ushbu siyosiy evfemizmlarning o‘zbek tilidagi adekvat, silliq muqobillarini yozing va qiyosiy esse ko‘rinishida taqdim eting.

“MUZYURAR” SAVOLLARI

1. “Robot muhabbati” (uslubiy nomutanosiblik)

(*Funksional uslublar jangi: rasmiy va badiiy*)

Savol: Tasavvur qiling, yigit qizga sevgi izhor qilmoqda, lekin rasmiy-idoraviy uslubda gapirdi:

Men, quyida imzo chekuvchi Eshmatov Toshmat, fuqaro Guli Asalovaga nisbatan barqaror ijobiy hissiyotlar mavjudligini hamda kelajakda oila kodeksiga muvofiq qonuniy nikoh tuzish niyatim borligini ma’lum qilaman.

Reaksiya: Qiz nima qiladi? Kulib yuboradi yoki qochib ketadi.

Muammo: Mazmun to‘g‘ri (sevadi), grammatika to‘g‘ri. Xo‘sh, xato qayerda? Nega biz advokat tilida she‘r yozolmaymiz?

 **Maqsad:** har bir vaziyatning ifoda uslubi borligini ko'rsatish.

2. “Senzura va haqiqat” (Emotsional bo‘yoq va tabu leksika)

(Kino tarjimasidagi strategik dilemma)

Savol: Siz Gollivudning jangari filmini milliy telekanal uchun tarjima qilyapsiz. Asl nusxada bosh qahramon haqoratomuz so‘zlar bilan so‘kindi. Bu uning g‘azabini ko‘rsatuvchi muhim emotsional nuqta. Siz nima qilasiz?

- a) aslidagidek tarjima qilasiz (efirga uzatish mumkin emas).
- b) “la’nati” yoki “ahmoq” deb yumshatasiz (qahramon obrazi soxta bo‘lib qoladi).
- c) umuman tarjima qilmaysiz (ma’no yo‘qoladi).

Tarjimon kim: madaniyat posbonimi yoki asliyat ko‘zgusimi?

3. “Axborot urushi” (ekspressivlik orqali manipulyatsiya)

(So‘zning neytral va bo‘yoqdor variantlari)

Savol: Nega yangiliklarda *Dushman askarlari o‘ldi* deb emas, *Dushman kuchlari yo‘q qilindi* deb aytiladi? Yoki nega narxlar oshganda *Narxlar qimmatladi* demasdan, *Narxlar optimallashtirildi* deyiladi?

Tahlil: Voqea bitta, lekin tanlangan so‘zning hissiy bo‘yog‘i (yoki uning yo‘qligi) orqali insonlarni tinchlantirish yoki g‘azablantirish mumkin. Siz tarjimon sifatida bu “siyosiy niqob”ni yo‘q qilib tashlaysizmi yoki saqlab qolasizmi?

 Dars uchun “**Rolli o‘yin**” (metodik tavsiya):

“Uslubni almashtir” (Style Switch) Talabalarga bitta oddiy xabarni bering: *Ertaga dars bo‘lmaydi*. Buni 3 xil uslubda yozib berishlarini so‘rang:

- 1. **Rasmiy (Dekanat nomidan):** *O‘quv bo‘limining buyrug‘iga binoan...*
- 2. **So‘zlashuv (Talaba do‘stiga):** *O‘rtoq, ertaga mazza, domla kelmasakan...*
- 3. **Badiiy (Shoir uslubida):** *Ertangi tong bizni ilm maskanida kutmas, zero ustozimiz...*

Bu mashq leksikaning funksional xususiyatini nazariyadan amaliyotga ko‘chiradi.

“USLUBIY TAHRIRCHI”

Quyidagi gaplarda uslubiy jihatdan noto‘g‘ri qo‘llanilgan so‘zni toping va uni mos sinonimga almashtiring.

No	G'aliz gap (Xato variant)	Qaysi so'z xato?	To'g'ri variant (Sinonim)
1	Kecha vazir zavod ishchilari bilan gaplashib o'tirdi.	<i>gaplashib o'tirdi</i> (maishiy)	muloqot qildi / suhbatlashdi (rasmiy)
2	Uning ko'zlaridan namlik ajralib chiqdi.	<i>namlik ajralib chiqdi</i> (biologik termin)	yosh oqdi / yosh to'kdi (badiiy)
3	Navoiy o'z asarlarida chuqur informatsiya bergan.	<i>informatsiya</i> (publitsistik/texnik)	ma'no / mazmun / g'oya (adabiy)
4	Ariza yozish uchun menga oq qog'oz bering.	<i>qog'oz</i> (so'zlashuv)	varaq (rasmiyroq)

 **Izoh:** Bu mashq orqali talaba so'zning ma'nosi to'g'ri bo'lsa ham, agar u vaziyatga (kontekstga) tushmasa, u uslubiy xato hisoblanishini tushunib yetadi.

NAZORAT VA MUHOKAMA SAVOLLARI

1. Badiiy asar tarjimasida qahramonning ijtimoiy kelib chiqishi va xarakterini ochib berishda emotsional-ekspressiv so'zlarning o'rni qanday?
2. Evfemizm va disfemizmlar asosan qanday uslublardagi matnlarda uchraydi va ularni o'g'irishda xorijiy madaniyatning o'rni nimada?
3. Kanselyarizm nima va u qaysi o'rinlarda tarjimadagi uslubiy xato sanaladi?
4. Nima uchun sun'iy intellekt kinoya, sarkazm yoki disfemizmlarni to'g'ri o'g'ira olmaydi?
5. Leksik ekvivalentlik va uslubiy adekvatlik tushunchalarining farqini bitta misol orqali tushuntirib bering.

GLOSSARIY

Adekvatlik — matnning hissiy, uslubiy va funksional ruhini boshqa tilda tabiiy holda, asliyat maqsadiga to'la moslab qayta yaratish.

Disfemizm — nutq obyektni atayin qo'pollashtirib, uning nuqsonini bo'rttirib ko'rsatish maqsadida qo'llaniladigan leksik birlik.

Evfemizm — nutq odobi yoki diplomatik talablarga ko'ra, xunuk va sovuq tushunchalarni yengillashtirib, silliq va yoqimli so'zlar bilan ifodalash.

Kanselyarizm — rasmiy-idoraviy uslubga xos boʻlgan, qoliplashgan, emotsionallikdan mutlaqo xoli boʻlgan quruq soʻz va iboralar.

Sentiment analysis— kompyuter lingvistikasi (NLP)da matnning hissiy boʻyogʻini (ijobiy, salbiy, neytral ekanligini) algoritmik tahlil qilish va baholash jarayoni.

 Mavzu yuzasidan qoʻshimcha mutolaa uchun manblar:

1. Berdialiyev A., Ermatov I. Hozirgi oʻzbek adabiy tili (Leksikologiya, frazeologiya, leksikografiya) Darslik. – Toshkent: Turon-iqbol, 2021. – 204 b.
2. Abdullaev A. Oʻzbek tilida ekspressivlikning ifodalanishi. – Toshkent: Fan, 1983.
3. Рамазанова Д.А., Хасбулатова Х.М., Курбанова З.Г. Экспрессивность в художественном тексте и способы ее выражения. Известия Дагестанского государственного педагогического университета. Общественные и гуманитарные науки. Т. 11. – № 3. – С. 86-91.
4. Шарова В.В. Средства выражения экспрессивности в сатирическом художественном тексте: На материале романов И. Ильфа и Е. Петрова “Двенадцать стульев” и “Золотой теленок” автореферат по ВАК РФ 10.02.01, кандидат филологических наук. СанктПетербург, 2003.
5. Xudoyberganova D. Matnning antropotsentrik tadqiqi. Filologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi. – Toshkent: Fan, 2015.

9-MA'RUZA: BARQAROR BIRIKMALAR VA ULARNI TARJIMA QILISHDAGI MUAMMOLAR.

Ma'ruza rejasi:

1. Kirish. Barqaror birikmalar tushunchasi va ularning tildagi o'zni.
2. Barqaror birikmalarning turlari: frazeologik birliklar (idiomalar), maqollar va matallar.
3. Tarjimadagi asosiy muammo: milliy kolorit va obrazlilik.
4. Amaliy tahlil: ingliz va o'zbek tillaridagi o'ziga xos misollar.

1. 🌉 Bridge-in (kirish qismi).

(Maqsad: talabalar diqqatini jalb qilish va mavzuga qiziqtirish)

O'qituvchi: Darsimizni kichik bir lingvistik kazus bilan boshlaymiz. Tasavvur qiling, katta teatrda premyera bo'lmoqda. Sahnaga chiqib ketayotgan mashhur ingliz aktyoriga hamkasbi *"Break a leg!"* deb baqirdi. Agar siz tarjimon sifatida buni sahnada turib *"Boring-u, oyog'ingizni sindiring!"* deb tarjima qilsangiz, nima sodir bo'ladi? *(Talabalar kulgisi va javobi kutiladi).*

O'qituvchi: To'g'ri, aktyor sizdan xafa bo'ladi, janjal chiqishi ham mumkin. Vaholanki, ingliz madaniyatida bu ibora teatr ahlining eng samimiy tilagi *"Omadigingizni bersin!"* degan ma'noni anglatadi. Ko'ryapsizmi, oddiy iborani bilmaslik do'stni dushmanga aylantirishi mumkin. Mashhur tilshunos A.V.Kunin aytganidek, *Frazeologiya – bu tilning xazinasini, lekin tarjimon uchun eng katta boshog'riqdir.* Bugun biz ana shu "boshog'riq"ni qanday qilib professional yutuqqa aylantirishni o'rganamiz.

2. 🎯 Objective (maqsad).

(Maqsad: darsdan kutilayotgan natijalarni e'lon qilish)

O'qituvchi: Ushbu mashg'ulot yakunida siz:

barqaror birikmalar va ularning turlarini farqlay olasiz;

tarjima jarayonida milliy kolorit va realiyalar bilan ishlash muammolarini tushunasiz;

frazeologizmlarni tarjima qilishning 4ta oltin qoidasini amalda qo'llay olasiz.

3. 🧠 Pre-assessment (dastlabki baholash).

(Maqsad: talabalarning mavjud bilimni tekshirish)

O‘qituvchi: Keling, hozirgi bilimingizni sinab ko‘ramiz. Men sizga ikkita gap aytaman, qaysi birida barqaror birikma borligini toping:

1. “*Kuzda bog‘bon yerni haydadi*”
2. “*Yer haydasang kuz hayda, kuz haydamasang yuz hayda*”

(*Talabalar javobi va tahlili*)

O‘qituvchi: Ikkinchi gapda xalqimiz tomonidan yaratilgan, tayyor qolipdagi birlik ishlatilgan. Barqaror birikmaning asosiy belgisi shundaki, u nutq jarayonida yasalmaydi, balki xotiradan tayyor holda nutqqa olib kiriladi.

4. ❀ Participatory learning (asosiy qism / faol ta’lim).

BARQAROR BIRIKMALAR (PAREMIOLOGIYA)

Nutqiy jarayonda fikrimizni bayon qilish uchun so‘zlar yordamidagina emas, balki bir necha so‘zlarning barqaror bog‘lanishidan hosil bo‘lgan birikmalardan ham foydalanamiz. Masalan, *Toshkentdagi istiqlol davrida qurilgan inshootlarni ko‘rib, og‘zim ochilib qoldi*. Bu gapda *og‘zim ochilib qoldi* birikmasi so‘zlovchi tomonidan nutqqa tayyor holda olib kirilgan. *Og‘zi ochilib qolmoq* birikmasi nutq jarayoniga qadar ham tayyor holda barqaror birikma sifatida mavjud va mazmunan bir leksema *hayron bo‘lmoq* leksemasi ifodalagan ma’noga teng keladi. Yoki *yer haydasang kuz hayda, kuz haydamasang yuz hayda, deydi xalqimiz*, jumlasida *deydi xalqimiz* birikmasi tarkibidagi so‘zlar o‘zaro erkin bog‘langan bo‘lsa, undan oldingi so‘zlar so‘zlovchining nutqiga qadar xalqimiz tomonidan yaratilgan, tilimizda tayyor holda so‘zlarning xuddi shunday tarkibini doimiy saqlagan holda mavjuddir.

Barqaror birikmalar ikki va undan ortiq so‘zlarning o‘zaro mustahkam sintaktik va semantik aloqasi asosida shakllangan, nutq jarayonida yangidan yasalmay, balki til egalari xotirasidan tayyor holda (reproduktiv tarzda) olib kiriluvchi lisoniy birliklardir. Ular tilning lug‘at boyligining ajralmas qismi bo‘lib, ko‘pincha yaxlit bir tushunchani yoki hukmni ifodalash uchun xizmat qiladi.

Barqaror birikmalarning asosiy lisoniy belgilari. Ushbu birliklarni erkin so‘z birikmalaridan farqlovchi eng muhim xususiyatlar quyidagilardir:

Lisoniy tayyorlik (Reproduktivlik). Barqaror birikmalar erkin birikmalar kabi nutq jarayonida soʻzlovchi tomonidan grammatik qoidalar asosida yangidan tuzilmaydi, balki xotirada saqlanib qolgan tayyor qolip sifatida nutqqa olib kiriladi.

Masalan, *tarvuzi qoʻltigʻidan tushdi* iborasi nutq vaziyatida yasalmaydi, u “boʻshashdi” maʼnosining tayyor ekvivalenti sifatida ishlatiladi.

Semantik butunlik va koʻchma maʼno. Birikma tarkibidagi soʻzlar birlamchi (denotativ) maʼnolarini qisman yoki toʻliq yoʻqotadi va umumiy yagona maʼnoga ega boʻladi. Birikmaning umumiy maʼnosi uni tashkil etuvchi soʻzlar maʼnosining oddiy yigʻindisiga teng boʻlmaydi. Masalan, *yulduzni benarvon uradigan* (uddaburon, ayyor) birligida na “yulduz”, na “narvon” oʻz maʼnosida kelgan.

Tuzilish va tarkibiy barqarorlik. Barqaror birikmalar tarkibidagi komponentlarni (soʻzlarni) erkin almashtirish yoki tushirib qoldirish mumkin emas. Ular qatʼiy (konservativ) tuzilishga ega. Masalan, *qoʻy ogʻzidan choʻp olmagan* iboraning maʼnosi “oʻta yuvosh, muloyim, birovga zarracha ozori tegmaydigan, kamtarin” insonlarga nisbatan ishlatiladi. Bu iborani *echki ogʻzidan choʻp olmagan* desak xato boʻladi. Chunki xalqimizda “echki – shoʻxlik va qaysarlik ramzi, yuvoshlik ramzi esa qoʻydir”. Yoki *qoʻy ogʻzidan oʻt (yemish) olmagan* desak ham taʼsir kuchini yoʻqotadi. Chunki “choʻp” – bu eng arzimas, keraksiz narsa. Ibora zamirida “shu arzimas narsani inson tugul hayvondan ham tortib olishga botinmaydigan darajada beozor” degan chuqur maʼno yotadi.

Bu birliklar nutqqa hissiy boʻyoq, tasviriylilik va joziba bagʻishlaydi. Ular voqelikni shunchaki nomlabgina qolmay, unga soʻzlovchining munosabatini (bahosini) ham ifodalaydi.

Barqaror birikmalardan oʻrinli foydalanish nutq goʻzalligini taʼminlaydi, shuning uchun ular nutqimiz koʻrki hisoblanadi.

Barqaror birikmalarni oʻrganuvchi tilshunoslik boʻlimi paremiologiya (lot. *parema* — barqaror, *logos* — taʼlimot), barqaror birikmalar lugʻatini tuzish muammolarini oʻrganuvchi boʻlim esa paremiografiya (lot. *parema* — barqaror, *grofho* — yozmoq) sanaladi.

Barqaror birikmalar xalqning asrlar davomida shakllangan dunyoqarashi, milliy ruhiyati va madaniyatini o'zida aks ettiruvchi "til ko'zgusi"dir. Ulardan o'rinli foydalanish nutqning ta'sirchanligini, aniqligini va badiiy go'zalligini ta'minlaydi.

Quyidagi iboralarning ma'nosini tahlil qiling. *Ishtahasi karnay, qo'ling dard ko'rmasin, og'zi ochilib qoldi, gullab qo'ydi, ko'ragini yerga bermoq, loy bo'lmoq, misi chiqmoq, tuyog'ini shiqillatmoq, aravani tortmoq, og'zi qulog'iga yetmoq, tegirmonga tushsa butun chiqmoq, boshi osmonga yetmoq, arpasini xom o'rmoq, taqdirga tan bermoq, quloq solmoq, misi chiqdi.*

Keltirilgan frazeologizmlarga antonimik juft bo'ladigan til birliklari tanlang va ular ishtirokida gaplar tuzing. *Yerga urmoq, ichi qora, qo'li egri, pixini yorgan, sirkasi suv ko'tarmaydigan, qildan qiyiq topmoq, terisiga sig'may ketdi, yer bilan yakson qilmoq, ipidan ignasigacha.*

BARQAROR BIRIKMALAR TASNIFI

Barqaror birikmalar nutqqa tayyor holda olib kirilishi, tarkibiy qismlarining barqarorligi belgisiga ko'ra umumiylikni tashkil etsa ham, ma'no butunligi nuqtayi nazaridan turlichadir. Shunga ko'ra barqaror birikmalar quyidagi guruhlariga bo'linadi:

1. Frazeologizmlar.
2. Maqol va matallar.
3. Aforizmlar.

Barqaror birikmalarning bir guruhi tarkibidagi so'zlar ma'no jihatdan uyg'unlashib, mazmuniy yaxlitlikni vujudga keltiradi va ko'pincha mazmunan bir leksemaga teng keladi va ko'chma ma'noda ishlatiladi. Masalan, *qulog'i ding bo'lmoq* — *hushyor bo'lmoq, qovog'i osilmoq* — *xafa bo'lmoq, og'zining tanobi qochdi* — *quvonmoq* kabi.

Ma'no yaxlitligiga ega bo'lgan va nutqiy jarayonga qadar ikki va undan ortiq so'zlarning barqaror munosabatidan tashkil topgan, nutqqa tayyor holda olib kiriluvchi ko'chma ma'nodagi barqaror birikmalarga frazeologizmlar deyiladi.

Frazeologizmlar gap tarkibida uning bir bo'lagi vazifasida keladi. Frazeologizmni tashkil etgan so'zlar frazeologizmning faqat ichki uzvlari sanaladi. Gapning boshqa bo'laklari bilan yaxlit, bir butun holda munosabatga kirishadi. Masalan, *Rais daladagi*

hosilni ko'rib boshi osmonga yetdi. Bu gapda *boshi osmonga yetdi* qismi butun holda kesim vazifasida keladi.

Quyida berilgan gaplardagi frazeologik birikmalarni topib, ma'nosini sharhlang.

1. Arava bo'lsa almisoqdan qolgan, yana sinibdi.
2. Aravani quruq olib qochish evi bilan-da, avval burningni artsang-chi... (*S. Abdulla.*)
3. Ishqilib baraka topsin, shu doktorlar boshing yostiqa tekkanda joningga aro kirishadi.
4. Yo'qlab kelibsan, boshim osmonga yetdi.
5. Qizlar har zamonda ishdan bosh ko'tarib, bir-biriga gap otishadi. (*S. Ahmad*)
6. Qorasochning dili siyoh bo'lib, birdan xo'rliqi keldi. (*S. Azimov*)
7. ...Amalda ishni izdan chiqarib yuboribsiz.
8. Kavushini to'g'rilab qo'yish kerak: qurilishni ham, kollektivni ham sariq chaqaga sotadi. (*Asqad Muxtor*)
9. Hoji xola ko'zi ilinib, endi xurрак ota boshlagan edi.
10. ...Uning ko'zlari qinidan chiqayozdi. (*Oybek*)

Ingliz tilida barqaror birikmalar asosan uch guruhga bo'linadi:

A) frazeologik chatishmalar (idiomalar). Bunda birikma tarkibidagi so'zlar o'zining asl ma'nosini butunlay yo'qotadi. Ularni so'zma-so'z tarjima qilish mumkin emas.

English: To kick the bucket.

So'zma-so'z tarjima: Paqirni tepmoq. (Xato!)

Asl ma'no: Vafot etmoq.

O'zbek tilidagi muqobili: Bandalikni bajo keltirmoq.

B) frazeologik birliklar (metaphorical units). Ma'no ko'chma bo'lsa-da, zamirida mantiqiy bog'liqlik sezilib turadi.

English: To swim against the stream.

Uzbek: Oqimga qarshi suzmoq. (Bu yerda to'liq moslik bor, chunki obraz xalqaro xarakterga ega).

C) kollokatsiyalar (barqaror so'z birikmalari). Bular bir-biri bilan birlashgan birliklardir. Ular idioma emas, lekin ularni almashtirish g'aliz sanaladi.

Misol: biz “choy damlamoq” deymiz, “choy pishirmoq” demaymiz.

English: to make a mistake (xato qilmoq) to‘g‘ri, *to do a mistake* deyish ingliz tilida xato hisoblanadi. Tarjimon buni bilishi shart.

Tarjimadagi asosiy muammo bu milliy koloritdir. Barqaror birikmalarni tarjima qilishdagi eng katta qiyinchilik bu milliy-madaniy tafovutdir, Chumki har bir xalq olamni o‘z yashash tarzidan kelib chiqib tasvirlaydi. Misol uchun, ingliz xalqining yashash hududi dengizga yaqin bo‘lgani uchun tilida dengiz bilan bog‘liq iboralar ko‘p. O‘zbeklar esa dehqonchilik va chorvachilik bilan shug‘ullangani uchun “qo‘y”, “ketmon”, “xamir” bilan bog‘liq iboralar ko‘p.

Ingliz tilidagi *“To carry coals to Newcastle”* (Nyukaslga ko‘mir tashimoq) iborasini olaylik. Nyukasl – ko‘mir koni markazi. U yerga ko‘mir olib borish – ahmoqlik. Agar buni so‘zma-so‘z o‘girsak, o‘zbek kitobxoni tushunmaydi. Nyukasl qayer? Nega ko‘mir? O‘zbekona muqobillari *“Samarqandga non, Buxoroga g‘isht eltmoq”* yoki *“O‘tinchi o‘rmonga o‘tin olib bormaydi”* birliklardir.

Frazeologik tarjima strategiyalari. Tarjima nazariyasida barqaror birikmalarni o‘girishning 4 ta usul mavjud:

1-usul. Mutloq ekvivalent. Bu eng oson va eng kam uchraydigan holat bo‘lib, unda asl tildagi ibora tarjima tilidagi ibora bilan ma’no, obraz va uslub jihatdan to‘liq mos keladi.

Eng: Lion’s share. – *O‘zb:* Arslon ulushi.

Eng: Cold war. – *O‘zb:* Sovuq urush. Bular asosan Bibliya, antik adabiyot yoki xalqaro siyosatdan kirib kelgan iboralardir.

2-usul. Nisbiy ekvivalent (Muqobil / Analogue)

Bu eng professional yondashuv sanaladi. Bunda asl tildagi obraz o‘zgaradi, lekin ma’no va hissiy bo‘yoq saqlanib qoladi. Tarjimon o‘z madaniyatidagi xuddi shunday vaziyatda ishlatiladigan iborani topadi.



3-usul. Kalka (soʻzma-soʻz tarjima). Bu usul faqat asl nusxadagi obraz juda yorqin boʻlib, uni saqlab qolish muhim boʻlganda yoki tarjima tilida u yangilik sifatida qabul qilinishi mumkin boʻlganda ishlatiladi.



4-usul. Tasviriy (deskriptiv) tarjima. Agar iboraning ekvivalenti ham, muqobili ham boʻlmasa, uning maʼnosini oddiy soʻzlar bilan tushuntirishga toʻgʻri keladi. Bunda iboraning obrazlilik yoʻqoladi.

Eng: White elephant. (Oq fil).

Ma'nosi: Qimmat turadigan, lekin foydasiz va saqlash qimmatga tushadigan narsa.

Tarjima: O'zbek tilida "Oq fil" deyilsa tushunarsiz. Shuning uchun "*Eshagidan tushovi qimmat*" yoki "*Astari o'zi qimmat*" deb o'giriladi.

Kompyuter lingvistikasi (NLP) va MWE (Multi-Word Expressions), ya'ni barqaror birikmalar muammosi. Barqaror birikmalar kompyuter tarjimai (AI) tizimlari uchun eng murakab birliklardir, xususan, NLPda iboralarni tanish qiyinchilik tug'diradi. Oddiy mashina tarjimai (Word-by-word) iborani ko'rganda adashadi. Masalan, *kaltak uning boshida sindi* iborasini kompyuter *the stick broke on his head* (jismoniy jarohat) deb o'giradi. Kompyuterga "kaltak+boshida+sinmoq" so'zlari yonma-yon kelsa, ularga alohida leksema sifatida emas, yagona MWE (Multi-Word Expression), barqaror birikmalar sifatida munosabatda bo'lishni, ya'ni uni *he took the blame (kaltak uning boshida sindi)* deb tarjima qilishni algoritmgga kiritamiz. Bo'lajak tarjimonlar kelajakda aynan shu frazeologik korpuslarni (Parallel Phraseology Corpora) yaratish orqali sun'iy intellektni o'qitadilar.

Lingvomadaniy va kognitiv farqlar. Iboralar bevosita xalqning yashash tarzi: geografiyasi, iqtisodi, dini bilan bog'liq. Buyuk Britaniya dengiz atrofida joylashganligi uchun ingliz tilida dengizchilik, kema va kema qismlariga oid iboralar juda ko'p: *to be in the same boat* (bir xil ahvoldamiz, boshimizda bir xil tashvish, dardimiz bir yoki bir kemadamiz).

Inglizcha: *Don't worry about the exam, we are all **in the same boat**.*

O'zbekcha: *Imtihondan xavotir olma, hammamizning **ahvolimiz bir**.*

O'zbek xalqi esa azaldan chorvador va dehqon bo'lganligi sababli iboralar asosan hayvonlar (ot, tuya, qo'y) va dehqonchilik bilan bog'liq: *tuyani shamol uchirsa, echkini osmonda ko'r, otni qamchila*.

Tarjimon o'zbek tilidagi ot, tuya qatnashgan iborani ingliz tiliga shundayligicha qilib o'girsam, ingliz o'quvchisi asar mantig'ini tushunmaydi.

5. Post-assessment (yakuniy baholash)

(Maqsad: olingan bilimlarni mustahkamlash)

Topshiriq: Quyidagi iboralarni tahlil qiling va mos tarjima strategiyasini qo'llab, o'zbekcha variantini toping:

1. It is raining cats and dogs

Kutilgan javob: Nisbiy ekvivalent. "yomg'ir chelaklab quymoqda" yoki "osmonning tagi teshildi"

2. Xamirdan qil sug'urganday (Ingliz tiliga o'giring)

Kutilgan javob: Nisbiy ekvivalent. *Smoothly as clockwork* (Soat mexanizmiday silliq) yoki *Piece of cake*

6. 🎓 Summary (xulosa).

(Maqsad: Darsni yakunlash va yo'nalish berish)

O'qituvchi: Bugungi darsimizdan asosiy xulosalar:

iborani hech qachon matndan uzib olib tarjima qilmang;

lug'atlarga ko'r-ko'rona ishonmang, "google translate" ko'pincha iboralarni so'zma-so'z o'girib, xato qiladi, maxsus frazeologik lug'atlardan foydalaning;

obrazni emas, ma'noni tarjima qiling, agar asl matn kitobxonni kuldirsa, tarjima ham kuldirishi kerak;

Uyga vazifa: **"Kompensatsiya usuli"** topshirig'i (Badiiy asar tarjimasi amaliyoti).

Topshiriq sharti:

1. O'tkir Hoshimovning "Dunyoning ishlari" yoki Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" asaridan o'zbek xalq maqollari, matallari qatnashgan 5ta gap (parcha) ni ko'chirib oling.

2. Bu maqollarning ingliz tilida aynan muqobili yo'qligini hisobga olib, ularni "Izohli tarjima" yoki "Kompensatsiya" (boshqa bir inglizcha o'xshatish bilan o'rnini qoplash) usuli orqali ingliz tiliga tarjima qiling.

3. Asarda o'zbekona lutf ingliz o'quvchisiga yetib borishi uchun qanday qiyinchiliklarga duch kelganingizni izohlang.

MUSTAQIL TA'LIM. “Netflix subtitrlarida frazeologiya” amaliy topshirig‘i:

1. Ingliz tilidagi o‘zingiz sevgan biror film yoki serialni (masalan, *Harry Potter*, *Stranger Things*) inglizcha va o‘zbekcha subtitrlar bilan tomosha qiling.
2. Film davomida ishlatilgan 5ta murakkab inglizcha idiomani (barqaror birikmani) yozib oling.
3. Tarjimon subtitrda bu iboralarni qanday o‘giranini tahlil qiling. Tarjimon Mona Beykerning qaysi strategiyasidan (mutlaq, qisman yoki izohli) foydalangan?
4. Subtitr tarjimoni yo‘l qo‘ygan uslubiy xatolarni toping va iboraning milliy jozibasini saqlab qoladigan o‘zingizning muqobil tarjima variantingizni taklif qiling.

“MUZYURAR” SAVOLLARI

1. Zoologik konflikt (“Boyo‘g‘li” muammosi). (*Madaniy ramzlarning teskari ma‘noga egaligi*).

Savol: Ingliz va g‘arb madaniyatida boyo‘g‘li (owl) — donishmandlik va aql ramzi (*as wise as an owl*), o‘zbek mentalitetida esa boyo‘g‘li — vayronalik, shumxabar va baxtsizlik ramzi (*boyo‘g‘li sayradi, boyo‘g‘li qo‘ndi*).

Kazus: Agar siz “Disney” multfilmidagi donishmand boyo‘g‘li obrazini o‘zbek bolasiga tarjima qilsangiz, u buni “aqlli” deb qabul qiladimi yoki “yovuz” debmi?

Siz tarjimon sifatida ramzni o‘zgartirasizmi (masalan, boyo‘g‘lini laylakka yoki burgutga almashtirasizmi) yoki aslini qoldirib, izoh berasizmi?

2. Anatomik paradoks. (*So‘zma-so‘z tarjimaning xavfi*)

Savol: Ingliz tilidagi mashhur “Pulling someone’s leg” (birovning oyog‘ini tortmoq) iborasi “hazillashmoq/mazax qilmoq” degan ma‘noni bildiradi. O‘zbek tilida esa “oyog‘idan tortmoq” birovning o‘shiga to‘sqinlik qilish, hasad qilish ma‘nolarni anglatadi. Agar tarjimon buni bilmasdan *Maykl Jonning oyog‘idan tortdi* deb tarjima qilsa, o‘zbek o‘quvchisi Mayklni hazilkash do‘st deb tushunadimi yoki hasadgo‘y dushmanmi?

3. GASTRONOMIK BO‘SHLIQ (“Choy va osh”)

(*Milliy realiyalar va ekvivalentlik*)

Savol: Inglizlar biror narsa yoqmasa yoki qo‘lidan kelmasa: “*It is not my cup of tea*” (Bu mening bir finjon choyim emas) deydi. Agar buni o‘zbekchaga *Bu mening bir piyola choyim emas* deb o‘girsak, kulgili chiqadi. O‘zbek tilida bunga mos keladigan *bu menbop ish emas* yoki *men uchun xayrli emas* degan jumlar mavjud.

Savol: Shunda tarjimada “choy” leksemasini qurbon qilishga haqlimizmi? Milliy kolorit qayerga ketadi?

“Tarjimon va sun’iy intellekt” o‘yini

Talabalarga quyidagi ingliz iboralarini Google Translate qanday tarjima qilishini va aslida o‘zbekchada qaysi maqolga to‘g‘ri kelishini topishni ayting.

Inglizcha ibora (Idiom)	So‘zma-so‘z tarjima (Google xatosi)	O‘zbekcha ekvivalenti (to‘g‘ri javob)
Kill two birds with one stone	Bitta tosh bilan ikkita qushni o‘ldirmoq	Bir o‘q bilan ikki quyonni urmoq
When pigs fly	Cho‘chqalar uchganda	Tuyaning dumi yerga tekkanda
Break a leg!	Oyog‘ingni sindir!	Omad yor bo‘lsin!
Don’t count your chickens before they hatch	Jo‘jalarni ochilishidan oldin sanama	Jo‘jani kuzda sanaymiz

NAZORAT VA MUHOKAMA SAVOLLARI

1. MWE (Multi-Word Expressions) tarjimini nima uchun murakkablashtiradi?
2. Inglizcha va o‘zbekcha iboralarning lingvomadaniy bazasidagi asosiy farqlar nimada? Tabiat va hayot tarzi iboralarga qanday ta’sir qilgan?
3. Nima uchun “qisman ekvivalent” usuli asarlar tarjimasida eng ko‘p qo‘llaniladigan va eng ishonchli usul hisoblanadi?
4. Mashina tarjimalari tizimi (MT) frazeologizmlarni tarjima qilishda qanday lisoniy algoritmgaga muhtoj?
5. Tarjimada muqobil ibora topilmasa va uni tushuntirib, izohlab tarjima qilishga to‘g‘ri kelsa, badiiy matnda qanday uslubiy yo‘qotishlar yuz beradi?

GLOSSARIY

Frazeologizm (Idiom) — tarkibidagi leksemalar o‘z mustaqilligini to‘la yo‘qotgan, faqat yaxlitligicha yagona va ko‘chma ma’no ifodalovchi turg‘un birikma.

Kompensatsiya (o‘rni qoplash) — tarjima matnida aslyatdagi iboraning ma’nosi izohli tarjima orqali yo‘qotilganda, matnning boshqa joyida uning o‘rnini xuddi shunday uslubiy vosita orqali qoplab yuborish.

Lingvokulturologiya — til va madaniyatning uzviy bog‘liqligini, xalqning milliy mentalietini, qadriyati va urf-odatlari tilda (ayniqsa, iboralarida) qanday aks etishini o‘rganuvchi fan.

Multi-Word Expressions (MWE) — kompyuter lingvistikasida ikki yoki undan ortiq so‘zdan tashkil topgan, kompyuter yagona leksik birlik sifatida o‘qishi va tarjima qilishi shart bo‘lgan birikmalar (iboralar).

Nokompozitsionallik — murakkab lisoniy birlikning (iboraning) umumiy ma’nosi uning tarkibidagi alohida so‘zlarning yig‘indisiga teng emasligi hodisasi.

Mavzu yuzasidan qo‘shimcha mutolaa uchun manbalar:

1. Berdiyev H., Rasulov R. O‘zbek tilining paremiologik lug‘ati. – Toshkent: O‘qituvchi, 1984. – 288 b.
2. Mamatov A.E. O‘zbek tili frazeologizmlarining shakllanishi masalalari: Filologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2000. – 56 b.
3. Yo‘ldoshev B. Hozirgi o‘zbek adabiy tilida frazeologik birliklarning uslubiy-semantik xususiyatlari: Filologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi. – Toshkent, 1993.
4. Jo‘rayeva B.M. O‘zbek xalq maqollarining shakliy-semantik va lingvokulturologik xususiyatlari: Filologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi. – Toshkent, 2019.
5. Umarova N.R. Ingliz va o‘zbek tillarida maqol va matallarning kognitiv-semantik hamda pragmatik tahlili: Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. – Toshkent: O‘zDJTU, 2018.


6. Madaliyeva G. O'zbek va ingliz tillarida somatik frazeologizmlarning chog'ishtirma tadqiqi: Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. – Farg'ona, 2020.
7. Siddiqova G. Ingliz va o'zbek tillari paremiologik fondida gender konseptining ifodalanishi: Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. – Buxoro, 2021.
8. Tursunova M. Badiiy tarjimada frazeologik birliklarni berishning o'ziga xosliklari (Ingliz va o'zbek tillari materialida): Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. – Samarqand, 2022.
9. Yusufjonova Sh.M. Tarjimada frazeologik iboralarning milliy xususiyati va ularning badiiy asarlardagi tasviriy ifodasi // Current Approaches and New Research in Modern Sciences jurnali. – 2023. – Vol. 2 (2). – B. 112–116.
10. Sobirova Z. O'zbek xalq maqollarida salbiy hissiyotlarning leksik ifodasi. // O'zbek tili va adabiyoti jurnali. – Toshkent, 2019. – №4-son. – B.70–78.
11. G'aniyeva Sh.A. O'zbek frazeologizmlari strukturasi (shakliy va mazmuniy modellashtirish): Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. – Farg'ona, 2017. – 156 b.

10-MA'RUZA. TERMINOLOGIYA VA ILMIY TARJIMADA LEKSIK MUAMMOLARI.

1 🌉 Bridge-in (kirish).

(Maqsad: talabalarni lug'aviy birlik va termin o'rtasidagi nozik farqlarni tushuntirish)

O'qituvchi: Darsimizni qiziqarli bir lingvistik paradoks bilan boshlaymiz. Duskaga quyidagi so'zni yozaman: **“Tomir”**



Muammo shundaki, agar tilshunos olim ilmiy maqolada “so'zning tomiri” deb yozsa, bu o'zbek adabiy tili me'yorining buzilishi hisoblanadi. Chunki tilshunoslikda bu tushuncha uchun “o'zak” termini qat'iy biriktirilgan.

Kundalik nutq doirasida leksik birliklar emotsional va erkin ifoda imkoniyatiga ega bo'lsa-da, ilmiy uslub qat'iy lisoniy me'yor va monosemiyaga tayanadi. Bugungi mashg'ulotimizda biz ana shu murakkab terminologik tizimning qonuniyatlari hamda sohaga oid matnlarni tarjima qilishda yuzaga keladigan leksik-semantik muammolarni ilmiy tahlil qilamiz.

2. 🎯 Objective (maqsad).

(Maqsad: mashg'ulotdan kutilayotgan o'quv natijalarini e'lon qilish)

Bugungi dars yakunida siz:

hozirgi o'zbek adabiy tiliga xos ilmiy atamalarni farqlay olasiz;

o'zbek terminologiyasidagi leksik muammolar (sinonimiya, dubletlar, omonimiya)ni tahlil qila olasiz;

xalqaro terminlarni o‘zbek tiliga tarjima qilishdagi asosiy usullar (kalka, o‘zlashma, semantik ko‘chish)ni o‘rganasiz.

3. 🧠 Pre-assessment (dastlabki baholash).

(Maqsad: talabalarning ilmiy uslub haqidagi bilimini tekshirish)

Topshiriq: Quyidagi ikki gapni solishtiring va qaysi biri o‘zbek adabiy tilining ilmiy uslubiga mos kelishini aniqlang:

1. *Kompyuterning miyasi qizib ketdi, chunki unda joy kam edi.*
2. *Markaziy protsessorning harorati ortishi xotira hajmining yetishmasligi bilan izohlanadi.*

(Talabalar javobi: 2-gap ilmiy uslubda, sababi “miya” o‘rniga “protsessor” o‘rniga “xotira hajmi”, “qizib ketdi” o‘rniga “harorati ortishi” ishlatilgan).

4. ✨ Participatory learning (asosiy qism).

Hozirgi o‘zbek adabiy tilining lug‘at tarkibi ilmiy matnlarda uch qatlamga bo‘linadi:

1. **Umumiste’modagi leksika.** Bog‘lovchi vazifasini bajaradi (*ega, bo‘lmoq, hisoblanmoq, natija*).
2. **Umummilliy leksika.** Barcha fanlar uchun umumiy bo‘lgan so‘zlar (*funksiya, element, jarayon, tahlil, sintez, gipoteza*).
3. **Xususiy terminologiya.** Faqat bitta sohaga tegishli so‘zlar (*fonema – tilshunoslikda, integral – matematikada, reaksiya – kimyoda*).

TERMINOLOGIYA MOHIYATI, SHAKLLANISHI VA MUAMMOLARI

So‘nggi yillarda texnologik taraqqiyot tildagi ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy-texnik sohalarga oid terminologik bazani tizimlashtirish ehtiyojini sezilarli darajada oshirdi. **“Termin”** (lot. *terminus* – chegara, chegara chizig‘i) tushunchasi o‘z etimologik mohiyatiga ko‘ra, muayyan fan yoki soha doirasida qat’iy chegaralangan, aniq va monosemantik lisoniy birlikni ifodalaydi.

Terminning o‘ziga xos xususiyatlari. Lingvistik nazariyaga ko‘ra, har qanday termin so‘zdir, ammo har qanday so‘z termin bo‘la olmaydi. Terminning asosiy belgilari quyidagilardir:

birma'nolilik (monosemiya): termin maxsus kontekst doirasida faqat bitta aniq tushunchani ifodalaydi va ko'p ma'nolilikdan xoli bo'ladi;

hissiy betaraflik: terminda emotsional-ekspressiv bo'yoq va ohangdorlikka bog'liq ma'no o'zgarishi kuzatilmaydi;

tizimlilik: terminlar fan va tushunchalar tizimiga muvofiq holda shakllanadi hamda ular bilan birga rivojlanadi.

Termin yasash usullari va manbalari. Mamalakatimizda fan, texnika va sanoatning rivojlanishi terminologik bazaning boyishiga xizmat qilmoqda. Termin yasashning eng faol usullaridan biri semantik usul, ya'ni mavjud so'zga yangi maxsus ma'no yuklash hisoblanadi. Buni sport gimnastikasi misolida ko'rish mumkin: *ko'prik, osilish, tayanish, kurash, halol, chala, yonbosh* kabi umumiste'moldagi so'zlar maxsus termin sifatida qo'llanilmoqda. Statik va dinamik holatlar murakkab birikmalar orqali ifodalanadi: *bilaklarga tayanish, siltanib ko'tarilish, oyoqlarni kerib sakrash* va hokazo.

Zamonaviy terminologiya muammolari va standartlashtirish. Bugungi kunda terminologik unifikatsiya, ya'ni birxillashtirish dolzarb masaladir. Agar tibbiyotda Gippokrat davridan buyon qo'llanib kelinayotgan lotin va grek terminlari xalqaro standart vazifasini o'tasa, zamonaviy texnologiyalarda bunday barqarorlik yetishmaydi. Xususan, IT sohasidagi atamalarni tarjima qilishda me'yoriy yondashuvning yo'qligi anglashilmovchiliklarga sabab bo'lmoqda. Masalan, *Artificial Intelligence (AI)* yoki *Machine Learning (ML)* tushunchalari o'zbek tilida turlicha (*sun'iy ong, sun'iy intellekt, mashina asosida o'qitish* va b.) talqin qilinmoqda. Bunday nostandartlik ilmiy aniqlikka putur yetkazadi.

Terminologiya tilning ajralmas qismi sifatida jamiyat taraqqiyoti bilan hamohang rivojlanadi. Yangi sohalarda chalkashliklarning oldini olish uchun xalqaro atamalarni asliyatda qabul qilish yoki qat'iy milliy standartlarni ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir.

Fan va texnikaning globallasuvi natijasida o'zbek lisoniy muhitiga kirib kelayotgan axborot oqimi terminologik tizimni tartibga solish bilan bog'liq quyidagi konseptual muammolarni kun tartibiga qo'ymoqda:

1. Terminologik unifikatsiya va standartlashtirish muammosi. Hozirgi kunda muayyan bir tushuncha uchun bir nechta muqobil variantlarning qo'llanilishi, ya'ni terminologik sinonimiya hodisasi kuzatilmoqda. Bitta ilmiy tushunchaning darsliklarda turlicha nomlanishi axborot almashinuvida semantik noaniqliklarni keltirib chiqaradi. Bu holat mashina tarjimasi va sun'iy intellekt tizimlarida "Word Sense Disambiguation" (so'z ma'nosini farqlash) jarayonini murakkablashtiradi. Masalan, *pnevmoniya* (baynalmilal) va *zotiljam* (milliy). Muammo shundaki, shifokorlar ilmiy konsiliumda qaysi birini ishlatishi kerak? Adabiy til me'yoriga ko'ra tor doiradagi ilmiy matnda baynalmilal termin (*pnevmoniya*), ommabop tibbiy adabiyotda esa milliy variant (*zotiljam*) afzal ko'riladi. Boshqa misollar: *lingvistika/tilshunoslik*, *immunitet/muofiyat* (eskirgan).

2. Internatsional terminlar va "lisoniy purizm" o'rtasidagi nomutanosiblik. Xalqaro terminlarni o'zlashtirish va ularni milliylashtirish o'rtasidagi ilmiy muvozanatning yo'qligi terminologik tizimning unifikatsiyasiga putur yetkazmoqda. Bu holat terminlarni aslicha qabul qilish va ularga sun'iy ravishda o'zbekcha muqobil yaratish o'rtasida tarqoqlikni keltirib chiqarmoqda. Ushbu muammolarni tizimli hal etishning asosiy strategik yo'nalishlarini quyidagicha belgilash mumkin:

Markazlashgan terminologik xizmatni tashkil etish. Muammoning yechimi sifatida Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Atamashunoslik komissiyasi faoliyatini raqamlashtirish va soha mutaxassislari, tilshunoslari hamda tarjimonlardan iborat doimiy ishchi guruhlarni shakllantirish zarur. Ularning vazifasi har bir yangi kirib kelayotgan tushuncha uchun "tavsiya etiladigan", "joiz" va "istisno qilingan" variantlar ro'yxatini ishlab chiqishi zarur. Natijada davlat idoralari, OAV va nashriyotlar uchun majburiy bo'lgan yagona terminologik standartlar yuzaga keladi.

Qat'iy lisoniy me'yorlarni ishlab chiqish. Xalqaro va milliy terminlar o'rtasidagi muvozanatni saqlash uchun qat'iy lisoniy filtrlarni joriy etish kerak:

agar termin tor doiradagi yuqori texnologik tushuncha bo'lsa (masalan: *blokcheyn*, *neyrotarmoq*, *prompter*) va uning o'zbekcha muqobili ma'no ko'lamini toraytirib qo'ysa, uni xalqaro shaklda qoldirish;

agar tushuncha uchun o‘zbek tilining ichki imkoniyatlari hisobiga lisoniy tejamkor va tushunarli so‘z yasash imkoni bo‘lsa (masalan: *cloud computing* — *bulutli texnologiyalar*) milliy variantga ustuvorlik berish talab qilinishi lozim.

Milliy raqamli TermBank yaratish. Zamonaviy terminologiya bosma lug‘atlardan elektron shaklga ko‘chirilishi shart, ya’ni o‘zbek tilining barcha sohalarini qamrab oluvchi, iyerarxik tuzilishga ega ontologik raqamli platformasini yaratish zarur. Ushbu baza mashina o‘qiy oladigan (JSON, XML formatlarida) bo‘lishi va API orqali barcha tarjima dasturlariga (Google Translate, DeepL va boshqalar) ulanishi lozim.

UzWordNet va Semantik ontologiyalar. Terminlar shunchaki ro‘yxat emas, balki o‘zaro bog‘liq tushunchalar tizimidir. Muammoni yechish uchun har bir terminning giponimik (tur-jins) va meronimik (qism-butun) aloqalarini belgilovchi semantik tarmoqlarni yaratish kerak. Bu tizim tarjimonga faqat bitta so‘zni emas, balki o‘sha soha kontekstiga eng mos keladigan tushunchalar zanjirini taklif etadi.

ILMIY TARJIMA VA TERMIN YASASH USULLARI.

O‘zbek tili terminologiyasi asosan uch yo‘l bilan boyiydi. Tarjimonlar bu jarayonning asosiy ishtirokchilaridir.

USUL	TAVSIF	MISOLLAR
Leksik-semantik usul	Mavjud so‘zga yangi ilmiylik ortish (eski so‘z, yangi ma’no).	oyna (deraza/ko‘zgu/kompyuter interfeysi/window). ildiz (daraxt qismi/matematikada kvadrat ildiz/tilshunoslikda o‘zak). paket (buyum soladigan xalta/ma’lumotlar to‘plami/data packet).
Kalkalash (Tracing)	Boshqa tildagi so‘zni qismlarga bo‘lib, “nusxa ko‘chirish” orqali o‘girish.	osmono‘par (skyscraper – sky=osmon, scraper=qirguvchi/o‘par). bosh sahifa (homepage – home=uy/bosh, page=sahifa).
O‘zlashma (Transliteratsiya)	Terminni o‘zgartirmay, faqat talaffuzga moslab qabul qilish.	<i>investitsiya, inflyatsiya</i> (iqtisodiy terminlar); <i>brauzer, server, drayver</i> (IT terminlari – ularni “ko‘ruvchi”, “xizmatchi” yoki “haydovchi” deb tarjima qilish kulgili bo‘lar edi).

💡 **Eslatma!** Tarjimon ilmiy matnda “ijodkor” emas, balki “standartlashtiruvchi” bo‘lishi kerak. Agar sohada *marketing* so‘zi qabul qilingan bo‘lsa, uni *bozor ilmi* deb o‘zgartirish terminologik chalkashlikka olib keladi.

Hozirgi o‘zbek tiliga kirib kelayotgan IT terminologiyasi hali yagona qolipga solish bosqichidan o‘tmagan. Bu esa amaliyotda bir tushuncha uchun bir nechta nomutanosib variantlarning paydo bo‘lishiga olib kelmoqda:

streaming – *striming* (transliteratsiya) va *oqimli uzatish* (kalka).

cloud storage – *bulutli saqlash*, *bulutli xotira* yoki *bulutli ombor*.

feedback – *fidbek* (og‘zaki), *qayta aloqa*, *fikr-mulohaza* (umumiste’mol).

Bugungi kunda ilmiy va rasmiy iste’molda “qayta aloqa” (*feedback*) hamda “bulutli texnologiyalar” (*cloud technologies*) variantlari barqarorlashib bormoqda. Professional tarjimon matnning funksional uslubidan kelib chiqib, o‘zlashma (*fidbek*) va milliy muqobil (*qayta aloqa*) o‘rtasidagi farqni hamda terminologik adekvatlikni chuqur his qilishi shart.

TERMINOLOGIYA VA ILMIY TARJIMADAGI DOLZARB LEKSIK MUAMMOLAR

Hozirgi kunda ilmiy-texnik tarjimada asosiy muammo til taraqqiyoti tezligining texnologik rivojlanishdan ortda qolayotganligidir.

1. Leksik lakunalar (bo‘shliqlar) muammosi. Bu o‘zbek tilida hali muqobili yaratilmagan yoki qoliplashmagan yangi tushunchalardir. Bu holat asosan IT, sun‘iy intellekt (AI) va Fintex (Financial Technology – Moliyaviy texnologiyalar) sohalarida kuzatilmoqda:

“**Deadline**” termini. O‘zbek tilida “muddat”, “oxirgi muddat” deyiladi, lekin bu so‘zlar “deadline”ning o‘ziga xosligini va qat‘iyligini to‘liq bermaydi. Natijada so‘zlashuvda va norasmiy ish uslubida *dedlayn* o‘zlashmasi ishlatilmoqda.

“**Crowdfunding**” termini “xalqona uslubda moliyalashtirish” yoki “ommaaviy pul yig‘ish” deb tarjima qilinmoqda, ammo bu birikmalar juda uzun. Termin ixcham bo‘lishi kerakligi qoidasiga zid.

2. Terminologik unifikatsiya (birxillik) yetishmasligi

Bir xil xalqaro terminning o‘zbek tilida turli manbalarda turlicha berilishi ilmiy tilda tarqoqlikni keltirib chiqarmoqda:

“Cybersecurity” termini:

1-variant: Kiberxavfsizlik (kalka).

2-variant: Axborot xavfsizligi (kengroq ma’no).

3-variant: Kompyuter xavfsizligi.

Oqibat: Turli darsliklarda har xil berilganligi talabani chalg’itadi.

3. “Tarjimonning soxta do‘stlari” (False Friends)

Bu terminlar shaklan o‘zbek yoki rus tilidagi so‘zlarga o‘xshash, ammo ma’nosi butunlay boshqa bo‘lgan so‘zlardir. Bu eng xavfli xatolarga sabab bo‘ladi.

Misol: **“Data”**.

Xato tarjima: Sana (Date so‘zi bilan adashtirish).

To‘g‘ri termin: Ma’lumotlar.

Misol: **“Fabric”**.

Xato tarjima: Fabrika.

To‘g‘ri termin: Mato, gazlama.

Misol: **“Academic”**.

Xato tarjima: Akademik (unvoni).

To‘g‘ri termin: O‘quv (masalan, *Academic year* — o‘quv yili).

4. Semantik siljish va polisemiya (ko‘pma’nolilik). Bu ingliz tilidagi ilmiy terminlarning kontekstga qarab tubdan o‘zgarishidir.

Tibbiyotdan misol: **“Acute”**.

Matematikada: O‘tkir (burchak).


Tibbiyotda: O‘tkir (kasallik, masalan, *Acute pain*).

Ba’zi kontekstlarda “tez rivojlanuvchi” yoki “xavfli” ma’nosida keladi. Tarjimon buni shunchaki “o‘tkir” deb o‘girsam, ma’no g‘aliz chiqishi mumkin.

5. So‘zlashuvga xos neologizmlarning ilmiy matnga kirib kelishi

Misol: **“Streaming”** – *Striming* (o‘zlashma) yoki *Oqimli uzatish* (ilmiy). Garchi “oqimli uzatish” akademikroq bo‘lsa ham, hozirda ilmiy maqolalarda ham “striming texnologiyalari” deb yozish holatlari kuzatilmoqda.

TERMIN YARATISH PIRAMIDASI: DOLZARB STRATEGIYALAR



Hozirgi kunda mutaxassislar “**Yumshoq purism**” (Soft Purism) tarafdori: agar o‘zbekcha muqobil qisqa va aniq bo‘lsa, o‘shani olish, agar o‘zbekchasi uzun va tushunarsiz bo‘lsa, xalqaro terminni qabul qilish.

5. 📝 **Post-assessment (yakuniy baholash).**

(Maqsad: bilimlarni mustahkamlash)

Topshiriq: Quyidagi matnni ilmiy uslubga o‘giring (terminologik tahrir).

Matn: *Kasalxonaga kelganimizda, doktor yuragimning o‘ynashini tekshirdi va qonim kamligini aytdi. Keyin burnim oqayotgani uchun dorilar yozib berdi."*

Kutilgan ilmiy variant:

*Bemor shifoxonaga murojaat qilganda, shifokor unda **taxikardiya** (yurak tez urishi) holatini aniqladi va **anemiya** (kamqonlik) tashxisini qo‘ydi. Shuningdek, **rinit** (burun oqishi) alomatlari kuzatilgani sababli farmakologik davolash tayinlandi."*

6. 🎓 **Summary (xulosa va uyga vazifa).**

Hozirgi o‘zbek adabiy tili bu shunchaki badiiy asarlar tili emas, balki aniq fan va texnika tilidir. Terminlarni nutqda to‘g‘ri qo‘llash va tarjima qilish orqali o‘zbek tilining ilmiy salohiyati oshiriladi.

Eslab qoling: Terminda hissiyot ifodalanmaydi, u aniqlikni talab etadi.

Uyga vazifa: O‘z mutaxassisligingizga oid (masalan, inson tarjimasi, sun‘iy intellekt) 10 ta inglizcha terminni oling. Ularning:

1. O‘zbek tilidagi qabul qilingan muqobilini toping.
2. Agar muqobili bo‘lmasa, o‘zingiz taklif bering (kalka yoki tasviriy usulda) va asoslang.

“MUZYURAR” SAVOLLARI

1. “Ajal keltiruvchi so‘z” (tibbiy-leksik xato)

(Polisemantik terminlar xavfi)

Savol: Oddiy hayotda “angina” so‘zini eshitsangiz, tomog‘ingiz og‘riyotganini tushunasiz va limonli choy ichasiz. Lekin kardiologiyada (yurak shifokorlari tilida) “angina” (Angina pectoris) bu “stenokardiya” (yurak xuruji) deganidir.

Vaziyat: Agar tarjimon tibbiy yo‘riqnomani tarjima qilishda “angina”ni shunchaki “tomoq og‘rig‘i” deb o‘g‘irsa va bemor yurak dorisi o‘rniga tomoq dorisini ichsa, u vafot etishi mumkin.

Sizningcha, tarjimon bu o‘lim uchun qonun oldida javob berishi kerakmi? Yoki “Men shifokor emasman-ku” deb qutulib qoladimi?

2. “Fizikning g‘azabi” (sinonimlar taqiqi)

(Ilmiy tilda sinonimiyaning yo‘qligi)

Savol: Badiiy tilda *kuch*, *quvvat*, *g‘ayrat*, *zo‘r* so‘zlari bir-biriga sinonim bo‘lib kelaveradi. Shoir “*kuchim yetmadi*” desa ham, “*quvvatim yetmadi*” desa ham to‘g‘ri. Lekin Fizikada:

Kuch = Force (F)

Quvvat = Power (P)

G‘ayrat/Energiya = Energy (E)

Bularning har biri boshqa-boshqa formula va birlik (Nyuton, Vatt, Joul).

Muammo: Agar tarjimon fizik maqolada uslub chiroyli chiqsin deb, “Elektr kuchi” va “Elektr quvvati” so‘zlarini almashtirib ishlatlsa, bu uslubiy bezakmi yoki ilmiy jinoyatmi?

QIZIQARLI MA'LUMOTLAR

Bilasizmi, nega samolyotlardagi “Qora quti” (Black box) aslida qora emas, balki zarg‘aldoq (orange) rangda bo‘ladi? Chunki samolyot qulaganda uni o‘t-o‘lan yoki qor ichidan topish oson bo‘lishi uchun yorqin rangga bo‘yaladi.

Leksik muammo: Lekin dunyo bo‘yicha termin “Black box” (Qora quti) deb qotib qolgan. Siz tarjimon sifatida uni to‘g‘rilab “Zarg‘aldoq quti” deya olmaysiz. Bu holatda termin mantiqqa teskari bo‘lsa ham, unga bo‘ysunishga majbursiz.

“Amerikalik hindular” (geografiya/tarix)

Termin: “Indians” (hindular / indiyaliklar).

Vaziyat: Xristofor Kolumb Amerikani kashf qilganda, u o‘zini Hindistonga (India) keldim deb o‘ylagan. Shuning uchun mahalliy aholini “Indians” (hindistonliklar) deb atagan.

Haqiqat: Ular hind emas, Amerika tub aholisi edi. Oradan asrlar o‘tib xato tushunildi.

Leksik muammo: Garchi bu geografik xato bo‘lsa-da, bugungi kunda ham Shimoliy Amerika tub aholisiga nisbatan “**Red Indians**” (Qizil tanli hindular) termini ishlatiladi. Tarjimon mazkur tarixiy xatoni to‘g‘rilashga haqli emas.

MUSTAQIL TA'LIM TOPSHIRIG'I

Soha glossariysini yaratish

1. O‘zingiz qiziqqan aniq bir sohani tanlang (Masalan: *tibbiyot, anatomiya* yoki *python dasturlash tili*).
2. Ushbu sohaga oid xalqaro inglizcha adabiyotdan yoxud darslikdan 1 betlik ilmiy matn tanlang.
3. Matn ichidan 15ta barqaror terminni ajratib oling va ularning o‘zbek tilidagi ekvivalentini topib, ikki tilli miniglossariy (TermBase) tuzing.
4. Ushbu terminlarning nechtasi xalqaro (transliteratsiya qilingan), nechtasi sof o‘zbekcha so‘z bilan tarjima qilinganini foiz hisobida tahlil qiling.

NAZORAT VA MUHOKAMA SAVOLLARI

1. Termin bilan oddiy so‘zning 3 ta asosiy farqi nimada?
2. Badiiy asar tarjimasini bilan ilmiy-texnik matn tarjimasini leksik jihatdan taqqoslang.

3. Polisemantik (ko‘p ma’noli) so‘zlar qanday qilib terminologiyaga o‘tib, monosemantik (bir ma’noli) atamaga aylanadi? (*Python, string, mouse* so‘zlari misolida tushuntiring).

4. Kompyuter lingvistikasida TermBase (Terminologik baza) nima va u mashina tarjimasidagi xatolarning qanday qilib oldini oladi?

5. Tarjimada internatsional terminlarni sun’iy ravishda o‘zbekchallashtirish qanday ilmiy muammolarni keltirib chiqarishi mumkin?

GLOSSARIY

Automatic Term Extraction (ATE) — maxsus algoritmlar yordamida yirik matnlar (korpuslar) ichidan soha terminlarini avtomatik ravishda izlab topish va ajratib olish jarayoni.

Definitsiya — tushunchaning, buyum yoki hodisaning muhim belgilarini o‘z ichiga olgan qisqa, mantiqiy ilmiy ta’rif (izoh).

Kalka — xorijiy terminni uning tarkibiy qismlari (morfemalari) ma’nosiga yuz foiz tayangan holda so‘zma-so‘z tarjima qilish usuli.

TermBase (Terminologik baza) — tarjimonlar va kompyuter tarjima tizimlari (CAT tools) uchun mo‘ljallangan, bir yoki bir nechta sohaning terminlarini, ularning izohini va tarjimasini o‘zida saqlovchi elektron ma’lumotlar bazasi.

Transliteratsiya — chet tili terminining yozilish shaklini maqsadli til harflari (alifbosi) orqali hech qanday tarjimasiz qabul qilish.

Mavzu yuzasidan qo‘shimcha mutolaa uchun manbalar:

1. Madvaliyev A. O‘zbek terminologiyasi va leksikografiyasi masalalari. – Toshkent: O‘zME Davlat ilmiy nashriyoti, 2017. – 384 b.

2. Baker M. In Other Words: A Coursebook on Translation. 3rd Edition. – London: Routledge, 2018.

3. Jurafsky D., Martin J.H. Speech and Language Processing. 3rd ed. draft. – Stanford University, 2023.

4. Dadaboyev H. O‘zbek terminologiyasi. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent, 2019.

5. Abuzalova M.Q. O‘zbek tili morfologik sathining tizim-struktur talqini va kompyuter modellarini yaratish. Filologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi. – Toshkent, 2021.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

I Siyosiy-huquqiy va me'yoriy hujjatlar

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2023.
2. “Davlat tili haqida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni. (O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1989-yil, 26-28-sonlar; yangi tahriri – 1995-yil).
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 29-noyabrdagi 632-son “Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosiga bosqichma-bosqich to'liq o'tishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida”gi Qarori.

II Asosiy o'quv adabiyotlari

(M2–M8 modullari: Fonetika, Leksikologiya, Semantika va Uslubiyat bo'yicha)

5. Jamolxonov H. (2005). Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent: Talqin.
6. Mahmudov N. (2007). O'qituvchi nutqi madaniyati. Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti. (Nutq madaniyati va kasbiy til uchun).
7. Mengliyev B. (2018). Hozirgi o'zbek tili. Toshkent: Tafakkur bo'stoni.
8. Qilichev E. (2009). O'zbek tili stilistikasi. Toshkent: A.Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti.
9. Rahmatullayev Sh. (2006). Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent: Mumtoz so'z.
10. Safarov Sh. (2006). Kognitiv tilshunoslik. Jizzax: Sangzor. (Semantik maydon va kognitiv tahlil mavzusi uchun).
11. Sayfullayeva R., Mengliyev B. va boshq. (2009). Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent: Fan va texnologiya.

III Monografiyalar (fundamental ilmiy tadqiqotlar)

(Nazariy qismlarni boyitish uchun)

29. Mahmudov N. (1998). O'zbek tilidagi sodda gaplarda semantik-sintaktik asimmetriya. Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi.

30. Salomov G'. (1983). Tarjima tashvishlari. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti.
31. Abduazizov A. (2010). O'zbek tili fonologiyasi va morfologiyasi. Toshkent: O'qituvchi.
32. Hojiyev A. (1985). O'zbek tilida so'z yasalishi tizimi. Toshkent: Fan.
33. Mengliyev B. (2004). Hozirgi o'zbek tili: Tizim va sath. Qarshi: Nasaf.
34. Dadaboyev H. (2014). O'zbek harbiy terminologiyasi tarixi. Toshkent: Navoiy universiteti.

IV Dissertatsiyalar va avtoreferatlar

(Tor doiradagi muammolar va eng yangi yondashuvlar uchun)

35. Odilov Y. (2012). O'zbek tilida enantiosemiya. (Filol. fan. dokt. dissertatsiyasi avtoreferati). Toshkent.
36. Qurbonova M. (2016). O'zbek bolalar nutqi leksikasining sotsiopragmatik xususiyatlari. (Filol. fan. dokt. dissertatsiyasi). Toshkent.
37. Xudoyberganova D. (2015). O'zbek tili badiiy matnlarining antropotsentrik talqini. (Filol. fan. dokt. dissertatsiyasi). Toshkent.

V Terminologiya va Tarjima nazariyasi bo'yicha maxsus adabiyotlar

(M9–M10 modullari va "Termin yaratish piramidasi" g'oyasi uchun)

38. Dadaboyev H. (2019). O'zbek terminologiyasi. Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi.
39. Mamatov A. (2019). O'zbek tili frazeologiyasi. Toshkent: Navoiy universiteti.
40. Musayev Q. (2005). Tarjima nazariyasi asoslari. Toshkent: Fan.

VI Lug'atlar va qo'llanmalar

(Amaliy mashg'ulotlar va "Detektiv" o'yinlari uchun manba)

41. O'zbek tilining izohli lug'ati. (5 jildli). (2006–2008). Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi.
42. O'zbek tilining imlo lug'ati. (2013). Toshkent: Akademnashr.
43. Rahmatullayev Sh. (1980). O'zbek tili sinonimlarining izohli lug'ati. Toshkent: O'qituvchi.

44. Rahmatullayev Sh. (1978). O'zbek tili frazeologizmlarining izohli lug'ati. Toshkent: O'qituvchi.

VII Xorijiy adabiyotlar (ingliz va turk tillarida)

(Jahon tajribasi va qiyosiy tahlil uchun)

45. Baker, M. (2018). In Other Words: A Coursebook on Translation (3rd ed.). London & New York: Routledge. (Ekvivalentlik strategiyalari uchun).
46. Hervey, S., Higgins, I., & Loughridge, M. (2006). Thinking German Translation: A Course in Translation Method (2nd ed.). London: Routledge.
47. Mossop, B. (2019). Revising and Editing for Translators (4th ed.). London: Routledge. (Tahrir va uslubiy sayqallash uchun).
48. Munday, J. (2016). Introducing Translation Studies: Theories and Applications. London: Routledge.
49. Newmark, P. (1988). A Textbook of Translation. New York: Prentice Hall. (Kommunikativ va semantik tarjima nazariyasi uchun).
50. Yule, G. (2020). The Study of Language (7th ed.). Cambridge: Cambridge University Press. (Umumiy tilshunoslik asoslari uchun).
51. Aksoy, Ö.A. (2000). Dil Yanlışları: Yanlış Deyimler, Yanlış Cümleler. Ankara: TDK Yayınları.
52. Korkmaz, Z. (2007). Türkiye Türkçesi Grameri (Şekil Bilgisi). Ankara: TDK Yayınları.

MUNDARIJA

Kirish.....	1
M1. “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” fani, uning mundarijasi, maqsadi, vazifasi va ahamiyati.....	6
M2. Adabiy tilning fonetik me’yorlari.....	18
M3 Grafika. Orfografik va orfoepik me’yorlar.....	33
M4 Leksikologiya. Leksik birliklar semantikasi.....	44
M5. Til birliklarining shakl va ma’no munosabatiga ko‘ra turlari.....	63
M6 Semantik maydon. Leksik-semantik munosabat turlari.....	76
M7 O‘zbek tili leksikasida o‘z va o‘zlashgan qatlam. Faol va nafaol leksika.....	88
M8. O‘zbek tili leksikasining funksional va emotsional-ekspessiv xususiyatlari. Leksik ekvivalentlik va tarjima strategiyalari.....	103
M9. Barqaror birikmalar va tarjimadagi muammolar.....	117
M10 Terminologiya va ilmiy tarjimada leksik muammolari	130
Foydalanilgan adabiyotlar.....	141

QAHHAROVA SABOHAT ABDUG‘AFUROVNA

HOZIRGI O‘ZBEK ADABIY TILI

tarjima nazariyasi va amaliyoti yo‘nalishi bakalavr talabalari uchun

O‘QUV QO‘LLANMA

Muharrir Davron Ulug‘murodov

Musahhih Husniya Jumaboeva

Sahifalovchi va dizayner Firdavs Jumaboyev

“FIRDAVS-SHOH NASHRIYOTI”ga faoliyat yuritishi uchun
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
3996-sonli TASDIQNOMA berilgan.

Bosishga ruxsat berildi: 30.04.2026-y.

Bichimi 60x84 ¹/₁₆. Ofset qog‘ozi.

Ofset bosma usulida bosildi.

“Times” garniturası.

Nashr tabog‘i 7,7. Adadi 100 nusxa.

Original maket “FIRDAVS-SHOH NASHRIYOTI”da tayyorlandi.
Toshkent v., Zangiota tumani, Birodarlik-114- A.



Tel.: 90-372-85-17

<https://t.me/firdavsshohnashriyoti>